

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Tarix fakulteti
“Davlat va huquq asoslari” kafedrası
«Milliy istiqlol g'oyasi, huquq va ma'naviyat asoslari»
ta'lim yunalishi

OILA HUQUQI FANIDAN

MA'RUZA MATNI

«TA'LIM – 100000, O'QITUVCHILAR TAYYORLASH VA PEDAGOGIKA FANI -
140000» TA'LIM SOHALARI
«MILLIY ISTIQLOL G'OYASI, HUQUQ VA MA'NAVİYAT ASOSLARI - 5141500»
BAKALAVR YUNALISHI UCHUN

NAVOIY – 2010

Ma'ruza matnida oila huquqi tushunchasi, tamoyillari, tizimi, oila huquqining manbalari, oilani mustahkamlashning huquqiy masalalari. Nikoh tushunchasi. Nikoh to'zish tartibi va shartlari. Nikoh shartnomasi, nikohning bekor bo'lishi, qon-qarindoshlik va bolalarning nasl-nasabini belgilash. Er va xotinning shaxsiy va mulkiy huquqlari, ota-onalar va farzandlarning majburiyatlari. Oila a'zolarining va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlari. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakllari. Fuqarolik holati dlolatnomalarini qayd etish tartiblari yoritilgan.

Ma'ruza matni pedagogika oliy o'quv yurtlarining, "Milliy istiqlol goyasi; huquq va ma'naviyat asoslari" bakalavr yunalishi uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchi: katta o'qituvchi U.O'tamurodov

Taqrizchi: katta o'qituvchi U.Murodullayev

Dastur Navoiy Davlat pedagogika instituti Ilmiy Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya etilgan

" _____ " № _____ sonli majlis bayoni:

So'z boshi

1.1. Fanni o'qitishning maqsad va vazifalari:

Oila huquqi fani talabalarda oila huquqi, oila huquqiy munosabatlarining huquqiy tartibga solishi to'g'risidagi nazariy bilimlarga va bu munosabatlarni tushunish kunikmalarini shakllantiradi.

Oila huquqi fanining vazifasi quyidagilardan iborat: talabalarga oila, oila huquqi, oilaning jamiyatdagi o'rni, nikoh, uning shartlari, er-xotin va bolalar, ularning shaxsiy va mulkiy munosabatlari, aliment majburiyatlari to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish.

Oila huquqi fani talabalarda oila, oilaning jamiyatdagi o'rni, oila huquqi, oila qonunchiligi, oila huquqiy munosabatlarining tartibga solinishi haqida tushunchalarga ega bo'lish, bu bilimlarni o'z amaliy faoliyatlarida, ya'ni ta'lim va tarbiya jarayonida qo'llay olishlari uchun mo'ljallangan.

1.2. Fan bo'yicha talabalarning bilimiqa DTS.qa asosan qo'yilgan talablar.

Bakalavr:

-oila, oila huquqining rivojlanishi, takomillashuvi to'g'risida tushunchalarga ega bo'lish;

- oila huquqiy munosabatlari, ularning tartibga solinishi asoslarini bilishi va qo'llay olishi kerak;

- oila huquqiy munosabatlarini taxlil qilishi;

- mavzular yo'zasidan sifatli va malakali huquqiy xulosalar tayyorlash va ta'lim jarayonida ulardan samarali foydalana olish kunikmalariga ega bo'lishi kerak.

1-Mavzu: Oila huquqi fanining predmeti va vazifalari.

Reja:

1. Oila huquqi tushunchasi predmeti va vazifalari.

2. Oila huquqining boshqa fanlar bilan munosabati.

3. Oila huquqi tizimi.

Darsning maqsadi: Talabalarni oila, oila huquqi tushunchasi, predmeti, vazifalari, boshqa fanlar bilan munosabati, oila huquqi bilan tanishtirish.

Kutilayotgan natija: Talabalarning huquqiy bilimlarini rivojlantirish, huquqiy madaniyatini yuksaltirish.

Darsning uslubi: Ma'ruza

Asosiy tushunchalar: Oila tushunchasi, oila huquqi, oila huquqiy munosabati, boshqa fanlar bilan munosabati, huquq tizimida tutgan o'rni, oila huquqi tizimi, oila huquqi manbai, oila huquqining asosiy qoidalari.

1.1. Oila huquqi tushunchasi, predmeti va vazifalari.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab oilani mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirishga kirishdi.

Respublikada 27 milliondan ortiq aholi yashaydi. Shulardan 51 foizini xotin-qizlar tashkil qiladi. Hozir aholining 50 foizini 18 yoshgacha bo'lgan, 64 foizini 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar tashkil etadi.

O'zbekistonda 5 milliondan ortiq oila mavjud. Har yili 240 mingga yaqin yosh oila vujudga kelib, 700 mingdan ortiq bola tug'ilmoqda. Respublikada oila tarkibi o'rtacha 5, 6 kishidan iborat.

O'zbekistonda har bir oila va har bir insonning turmush farovonligini, fuqarolar totuvligini mustahkamlashga qaratilgan dasturiy maqsadlarga asoslanib ish olib bormoqda.

Un ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining uninchi sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov : - "Eng muhim vazifa – Xalqchil adolatparvar jamiyatni vujudga keltirish. Bu jamiyat poydevorini, eng avvalo boy va badavlat, mehnat qadrini biladigan, ma'naviy sog'lom va madaniy saviyasi baland minglab va millionlab oilalar tashkil etadi".

Ko'p bolalik – hozirgi o'zbek oilasining o'ziga xos xususiyatlaridandir. Davlat bunday oilalarga turli yo'llar bilan juda katta iqtisodiy va ijtimoiy yordam beradi.

Bizda ko'p bolali oilalarning soni boshqa mintaqalardagiga nisbatan ancha ko'p. Rossiyada bir oilada 2-3 kishi yashasa, bizda 5-7 kishi yashaydi. Respublikada jami oilalarning 12 foizidan ko'prog'i besh va undan ortiq bolalidir, qishloq joylarda esa bu ko'rsatkich yigirma foizni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63- moddasida bunday deyiladi:

"Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega."

Har bir oila, har bir mehnatkash tinch xotirjam va to'kin sochin yashasa, jumhuriyat ozod, boy bo'ladi, gullab yashnaydi.

Oilaga g'amxo'rlik qilish, unga har taraflama moddiy yordam berish insonparvar demokratik huquqiy davlatning muhim vazifalaridan biridir.

Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Oila – jamiyatning negizi. Bizning davlatimizni ham katta bir oila deb tushunish mumkin va lozim. Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir biriga nisbatan ezgulik bilan mehr – oqibat ko'rsatmasa yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning - tayanch ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir".

1997 - yil 29 - avgustda amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonunda ham oiladagi ta'lim masalasiga alohida e'tibor berilgan. Ota - onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bolaning ma'lumotini oilada olishi uchun imqoniyat yaratib berishga haqlidir. Bunday hollarda o'quvchilarning ota onalari yoki ularning o'rinini bosuvchi shaxslar bilan ta'lim muassasasi, ta'limni boshqaruvchi tegishli idora o'rtasida shartnoma to'zilib, unda bola, oila va jamiyatning manfaatlari hisobga olingan holda tomonlarning huquqiy, iqtisodiy va boshqa majburiyatlari belgilab qo'yiladi.

Bolalarga uy sharoitlarida ta'lim berish o'quv yurtlarining dasturlari bo'yicha amalga oshirilib, keyinchalik eksternat tartibda attestatsiyadan o'tkaziladi.

Oilada ta'lim olayotgan shaxslartegishli attestatsiyadan o'tgach ta'limning istalgan bosqichidan boshlab o'qishni ta'lim muassasasida davom ettirishga haqlidir.

Davlat oiladagi ta'limga yordam ko'rsatadi. Tegishli davlat muassasalari tomonidan qonunlarda belgilangan tartibda metodik, diagnostik, maslahat yordami beriladi. Qonunlarda belgilangan hollarda va tartibda oilaga kompensatsiya to'lanishi mumkin".

Davlatimiz va hukumatimiz o'zi qabo'l qilgan deyarli barcha hujjatlarda oila, farzand masalalariga katta e'tibor beradi. Jumladan, un ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi

Oliy Kengashining navbatdan tashqari to'qqizinchi sessiyasida qabo'l qilingan "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini asoslari to'g'risida" Qonunlig 16- moddasida bunday deyiladi: "Yosh fuqarolar va yosh oilalarga ijtimoiy imtiyozlar, chunonchi: yakka taritbda uy qurish uchun yer ajratish, uy joy sotib olish, uy joy qurish kopirativlariga a'zo bo'lish uchun pay badallari to'lash, ro'zg'or buyumlari (Shu jumladan chorva mollari), o'zoq muddat foydalaniladigan kundalik uy jihozlari sotib olish, tijorat asosida amal qiladigan o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun haq to'lash va boshqa maqsadlarda o'zoq muddatli kreditlar beriladi. Yoshlarga kreditlar banklar tamonidan kam foiz olish sharti bilan berilib, O'zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan imtiyozli tartibda o'ziladi".

"O'ziga to'q yurtning askari kuchli bo'ladi, askari kuchli yurt o'ziga to'q bo'ladi", – degandi Sohibqiron Amir Temur Ko'ragoniy. Kuchli askarning shakillantirish uchun raiyat farzandi to'q, sog'lom o'sishi, bilm olish, jismoniy tayyorgarlik ko'rish uchun sharoit yaratilishi kerak. Bu ish juda katta mablag'', kuch, g'ayrat – shijoat, tashabbuskorlik, fidoiyligni talab etadi. Shularni hisobga olib yosh avlodni tarbiyalash, hayotga tayyorlash ishi bilan shug'ullanuvchilarni rag'batlantirish uchun O'zbekiston prezidenti farmoniga ko'ra O'zbekiston Respublikasining "Sog'lom avlod uchun" ordeni ta'sis etildi. O'zbekiston Respublikasining Oliy mukofotlaridan biri bo'lgan bu ordenning ta'sis etilishi mamlakatimiz kelajagi sog'lom avlodda mujassamlashuvining yorqin dalilidir. Jaxon tajribasida bunday orden bo'lmagan.

Oila o'zoq davom etadigan tarixiy taraqqiyot natijasidir, jamiyat to'zilishiining ob'ektiv zarur ajralmas qismidir.

Ijtimoiy ma'noda oila odamlarning ijtimoiy jixatdan alohida uyushgan guruxlar, ma'naviy, xo'jalik, maishiy va boshqa turmush sharoitlari hamda manfaatlari bir xil bo'lgan shaxslar ittifoqidir.

Oila eng muhim ijtimoiy vazifalarni: insonni yaratish, bolalarni tarbiyalash, odamlarni jismoniy va ma'naviy jixatdan kamol toptirish, ularni ma'naviy birlashtirish, birgalikda xo'jalik yuritishni ta'minlash, o'zaro yordam ko'rsatish, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlash demografiya jarayonlarini yaxshilash vazifalarini bajaradi. Ayni oilada inson harakterining asoslari, mehnatga, ma'naviy va madaniy boyliklarga munosabat shaklidir. Jamiyat mustahkam, ma'naviy va axlokiy jixatdan soglom oiladan goyatda manfaatdordir. SHu bois u oilani mustahkamlash, ijtimoiy vazifalarni bajarishda, bolalarni tarbiyalashda unga ko'maklashish, bolali oilalarning hamda kelin-kuyovlarning moddiy, uy-joy va maishiy sharoitlarini yaxshilash to'g'risida g'amxo'rlik qilish yo'lini tutishi lozim.

Oila bolalar to'g'risida g'amxo'rlik qilishga, ona va bola manfaatlarini muhofaza etishga, onaligni rag'batlantirishga qaratilgan tadbirlar turkimini nazarda tutuvchi huquq oilaviy munosabatlarni mustahkamlashning muhim vositasi hisoblanadi.

Oila jimiyyat va davlat muhofazasidadir.

Prezident I. A. Karimov ta'kidlaganidek: «Oila jamiyatning negizi... Oila turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab extiyojlari va kadriyatlar shakllanadi. O'zbeklarining aksariyati o'zining shaxsiy faravonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug'lari va yaqinlarining, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir»¹

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsisining alohida bobi oila munosabatlarini huquqiy tartibga solish qaratilganligi oila huquqining rivojlanishi va takomillashuvi uchun asos bo'ladi. Oila huquqi fanining predmeti deyilganda oila huquqi ma'yorlari bilan tartibga solinadigan munosabatlar tushiniladi.

Oila huquqi quyidagi munosabatlarini tartibga soladi:

¹ И. А. Каримов «Ўзбекистон: миллий истиклол, иктисод, сиёсат, мафкура» 47-бет.

- nikoh, uni to'zish tartibi va shartlari;
- er-xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlari;
- nikohning tugatilishi;
- qon-qarindoshlik va bolalarning nasl-nasabini belgilash;
- ota-ona va voyaga yetmagan bolalarning huquq va majburiyatlari;
- oila a'zolarining va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlari;
- ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish;
- fuqorolik holati dalolatnomalarini qayd etish tartiblarini o'rganadi.

Oila huquqi fanining vazifasi nikoh, oila munosabatlari bu munosabatlarda er-xotin, ota-ona, farzandlar va boshqa qarindoshlar o'rtasidagi oilaviy munosabatlarni tahlil qila olish, oila qonunchiligi me'yorlarini tushunish va qo'llay olish malakalarini shakllantirishdagi huquqiy bilimlar vositasida huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgandir.

1.2 Oila huquqining boshqa fanlar bilan munosabati.

Oila huquqi oiladagi munosabatlarning huquqiy tomonlarini tartibga soladi. Oiladagi boshqa munosabatlar huquq tizimining tarmoqlari va boshqa ijtimoiy fan sohalari bilan o'rganiladi. Oiladagi munosabatlar mehnat huquqi, fuqorolik huquqi, moliya huquqi, sotsial ta'minot huquqi bilan tartibga solinadi. Oiladagi axloqiy-ruhiy munosabatlarni oila huquqi bilan tartibga solib bo'lmaydi.

Oilaning turmush jihatlarini o'rganishda undan ortiq fanlar ishtirok etadi.

Etnografiya – nikoh-oila munosabatlarini Xalqlar turmush tarzining bir jihati sifatida o'rganadi.

Demografiya – aholining hamda uning asosiy bo'g'ini bo'lishi oilaning turli xil muammolarini siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va tarixiy jarayonlar asosida o'rganadi.

Ijtimoiy geografiya o'z tadqiqotlarida aholi va oilaning hududiy tafovutlarini kompleks tahlil qiladi. Iqtisodiyot fani va statistika fani oila byudjetini, oila ishlab chiqarishni, oilaviy iste'mol, mehnat taqsimoti va oiladagi xo'jalik-iqtisodiy munosabatlarni tadqiq etish bilan shug'ullanadi. Psixologiya fani nikoh va oila munosabatlarida nomoyon bo'ladigan xissiyot, tasavvur, urf-odatlarini, shuningdek bu psixologik hodisalarning ijtimoiy va tabiiy manbalarini o'rganishdan iborat.

Oila pedagogikasining maqsadi – oilaning bolalarga ko'rsatadigan ta'sirini, oiladagi tarbiya qonuniyatlarini va vositalarini, ota yoki onaning bolaga ta'sirini oila bilan boshqa xil tarbiya muassasalarining o'zaro munosabatlari aniqlashdir.

Tibbiyot fani nikohning fiziologik jihatlarini uning oqibatlarini, shuningdek oilaning oila a'zolari sog'lig'iga ta'sirini tadqiq etadi.

Oila huquqi boshqa huquq sohalari bilan chambarchas bog'liq. Chunki oila a'zosi jamiyatimizning barcha sohalarida mehnat qiladi. Oilada farzand tarbiyalanadi, jamiyatga kerakli shaxs bo'lib yetilishida oilaning o'rnini juda kattadir.

Davlat va huquq nazariyasi fani oila huquqining umumiy tushunchasini, maqsadini izohlab beradi. Konstitutsiyaviy huquq inson huquqlari, burchlari, ularning kafolati masalalarin, oila davlat himoyasida ekanligini, ota – onalar va farzandlarning huquqiy munosabatlarining asosini tasdiqlab beradi.

Mehnat huquqi onalik va bolalikni himoya qilish, ko'p bolalik oilalarga yordam berish, voyaga yetmaganlarning mehnat munosabatlarini tartibga solish masalalarini yoritishda oila huquqi, oila munosabatlaridan kelib chiqqan holda ish tutadi.

Ma'muriy huquqda ham ma'muriy tartib bo'zish, ma'muriy javobgarlikka tortish shaxslarga, oila a'zolariga nisbatan qo'llanadi. Demak, oilada tarbiya masalasi, qonunga rioya qilish, qonun doirasida ish tutish masalalariga e'tibor berishni talab qiladi.

Jinoyat huquqida oiladagi tarbiyaga bog'liq muhim masala o'z ifodasining natijasini bildiradi. Jinoyatchi bizning jamiyatimizda nega vujudga keladi? Qaysi sharoitda, qanday oilada u shakllanadi, tarbiyalangan, degan savollarning yechimini topish uchun oila, undagi muhit o'z ijobiy yoki salbiy o'rnini ko'rsatadi.

1.3. Oila huquqining tizimi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida «Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish –huquqiga ega», deb yozilgan.

Ma'lumki oila hayotning abadiyligini ta'minlaydi, vorislar ota - ona boshlagan ishni davom etishini amalga oshiruvchi muqaddas dargoh. Bud argoh millatning urf - odatlarini saqlashga ko'maklashadi. SHu Bilan birga oila, kelajakda farzandlar qanday inson byo'lib yetilishiga ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir.

Oila huquqi fani nikoh to'zish, nikohdagilarning huquqiy munosabatlarini, ota – ona va farzandlarning mulkiy va shaxsiy majburiyatlarini, nikohni bekor qilish, uning oqibatlarini va boshqa oilaviy turmush bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni tartibga soladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining un to'rtinchi bobi alohida oilaviy munosabatlarga bag'ishlanib, o'z ichiga to'rtta moddani oladi. 63 – modda oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligi hamda jamiyat va davlat muhofazasidaligi qonunlashtirilgan.

YOshlarga oila huquqini o'rgatishdan asosiy maqsad, ularni kelajak turmushga tayyorlash, o'z kasblarida olgan bilimni joriy etish kunikmasini hosil qilish. Ularda oila qonunchiligi haqida chuqur bilimni shakllantirish, qonunning tamoyillarini o'rgatish va oilaviy – huquqiy munosabatlardan doirasidan kelib chiqadigan muammolarni yechishda olingan bilim bilan hal qila olishni o'rgatish.

Oila huquqida talabalar va tinglovchilar:

- oila tushunchasini va uning asosiy vazifasini;
- oila huquqi tushunchasi, tamoyillari va tizimini;
- O'zbekistonda oila huquqining tarixini;
- mazkur huquq manbalarini;
- oilaviy – huquqiy munosabatlarni;
- nikoh to'zish tartibini;
- nikohlanuvchilarning tibbiy ko'rikdan o'tish sabablarini;
- nikohdagilarning huquqiy holatlarini;
- nikoh shartnomasi tushunchasini, uni to'zish tartibini;
- oila a'zolarining shaxsiy va mulkiy huquq va majburiyatlarini;
- farzandlarning ota – onasi oldidagi huquq va majburiyatlarini;
- vasiylik va homiylik tushunchasi va ularni o'rnatish maqsadlarini;
- oilaga tarbiyaga olish asolarini;
- chet el fuqarolarining oilaviy munosabatlarini O'zbekistonda tartibga solinish tartibini va boshqalarini o'rgatadi.

Oila huquqi tizimi deyilganda oila kodeksi bilan huquqiy tartibga solinadigan munosabatlar tushuniladi.

Oila huquqi huquqning mustaqil tarmog'i sifatida oilaviy huquqiy munosabatlar, oilaviy huquqiy munosabatlarning sub'ektlari, oilaviy huquqiy munosabatlarning ob'ektlari, oilaviy huquqiy munosabatlarning yo'zaga kelish sabablari, nikoh, nikohning bekor bo'lishi, er-xotin oilaviy huquqiy munosabatlarning mazmuni, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi shaxsiy, mulkiy, huquqiy munosabatlar, ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy munosabatlar, oila a'zolarining va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlari, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakllaridan iborat.

Oila huquqining tizimi O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksida o'z aksini topgan. Oila huquqining asosiy manbai hisoblangan Oila Kodeksi 8 bo'lim, 30 bob, 238 moddadan iborat. I – bo'lim Umumiy qoidalar deb nomlanib 1 va 2 boblarni o'z ichiga oladi:

1. Asosiy qoidalar

2. Oilaviy huquqlarni amalga oshirish va himoya qilish .

II – bo'lim Nikoh deb nomlanib 3, 4, 5, 6, 7, 8 boblarni o'z ichiga oladi:

3. Nikoh to'zish tartibi va shartlari
 4. Er-xotinning shaxsiy huqu va majburiyatlari
 5. Er va xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari
 6. Er va xotin mol-mulkining shartnomaviy tartibi
 7. Nikohning tugatilishi
 8. Nikohning haqiqiy emasligi
- III – bo'lim Qon – qarindoshlik va bolalarning nasl – nasabini belgilash deb nomlanib, 9, 10 boblarni o'z ichiga oladi:
9. Qarindoshlik, qayin-bo'yinchilik va quda – andachilik
 10. Bolalarning nasl-nasabini belgilash
- IV – bo'lim Ota – ona hamda voyaga yetmagan bolalarning huquq va majburiyatlari deb nomlanib, 11, 12, 13 bo'limlarni o'z ichiga oladi:
11. Voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy nomulkiy huquqlari
 12. Ota – onaning shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlari
 13. Ota – ona hamda bolalarning mulkiy huquq va majburiyatlari
- V – bo'lim Oila a'zolarining va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlari deb nomlanib, 14, 15, 16, 17, 18 boblarni o'z ichiga oladi.
14. Ota – ona hamda bolalarning aliment huquqi va majburiyatlari
 15. Er-xotinlar va sobiq er-xotinlarning aliment majburiyatlari
 16. Qarindoshlar va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlari
 17. Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv
 18. Alimentlarni to'lash va undirish tartibi
- VI – bo'lim Ota – ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakllari deb nomlanib, u 19, 20, 21, 22 boblarni o'z ichiga oladi:
19. Ota – ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish
 20. Farzandlikka olish
 21. Vasiylik va homiylik
 22. Bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat)
- VII – bo'lim Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish deb nomlanib, u 23, 24, 25, 26, 27, 28, 29, 30 boblarni o'z ichiga oladi.
23. Umumiy qoidalar
 24. tug'ilishni qayd etish
 25. Nikoh to'zilganligini qayd etish
 26. Nikohdan ajralishni qayd etish
 27. O'limni qayd etish
 28. Familiya, ism va ota ismini o'zgartirish
 29. Dalolatnoma yozuvlariga to'zatis, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish
 30. Fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlarini tiklash va bekor qilish
- VIII – bo'lim Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni tartibga solish deb nomlanib u o'z ichiga bir nechta moddalarni oladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun cavollar:

1. Oila huquqi nimani o'rganadi?
2. Oila huquqi predmetini ayting?
3. Oila huquqi kanday vazifalarni bajaradi?
4. Oila huquqining boshqa fanlar bilan munosabati.
5. Oila huquqi tizimi nima?
6. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalarini ayting.
7. Oila huquqi kanday munosabatlarni tartibga soladi?
8. Etnogrofiya nima?

9. Demografiya nima?

Adabiyotlar ro'yxati:

Rahbariy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir" Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabo'l qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi Ma'ruzasi. // Huquq va burch jurnali. 2009 – yil. № 12 son. 2-9 – betlar.
2. Karimov I.A. "O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir" Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabo'l qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi Ma'ruzasi. // Huquq va burch jurnali. 2009 – yil. № 12 son. 2-9 – betlar.
3. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T.8. -T., 2000 y.
4. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz. T.9. –T., 2001 y.
5. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun ko'rashmoq kerak. T.10 -T., 2002 y.
6. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008 - yil.
7. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: "O'zbekiston", 2009 – yil.
8. Karimov I.A.. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. "Xalq so'zi", 2007 - yil, 31 - avgust.

Maxsus adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar. 2009 – yil.
2. Saidov A, Tadjixanov U, Odilkoriyev X. "Davlat va huquq asoslari". T., "Sharq", 2002 - yil.
3. Z. Islomov, O. Xusanov, M. Mirhamidov. Huquqshunoslik. Ma'ruzalar matni. T., 2000 - yil.
4. F. Otaxujayev. "Nikoh va uni huquqiy tartibga solinishi". T., "O'zbekiston", 2000 - yil.
5. O'zbekiston Respublikasi oila kodeksiga sharhlar. T., 2009 - yil.

Me'yoriy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston", 2009 - yil.
2. O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi 1991 -yil 31 - avgust konstitutsiyaviy qonuni.
3. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy Dasturi. 1997 - yil 27-avgust.
4. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. T., "Adolat", 2009 - yil.
5. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. T., "Adolat", 2009 - yil.
6. O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi qonuni. 2000 - yil 15.12.

2. Mavzu: O'zbekistonda nikoh munosabatlarining huquqiy tartibga solinishi.

Reja:

1. **Mustaqil O'zbekiston Respublikasining oila va nikoh to'g'risidagi qonunchiligi va ularning takomillashuvi.**
2. **Oila to'g'risidagi qonun hujjatlari, ularning vazifalari.**
3. **Oilaviy huquqlarni amalga oshirish va himoya qilish.**

Darsning maqsadi: Talabalarni oila, oila to'g'risidagi qonun hujjatlari ularning vazifalari, oilaviy huquqlarni amalga oshirish va himoya qilish tartiblari bilan tanishtirish.

Darsning uslubi: Ma'ruza.

Ma'ruzadan kutilayolgan natija: Talabalarning huquqiy sovdxonligini oshirish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish.

Asosiy tushunchalar: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi, qonun hujjatlari, oilaviy huquqlar, ularni amalga oshirish, ularni himoya qilish.

2.1. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining oila va nikoh to'g'risidagi qonunchiligi va ularning takomillashuvi.

O'zbekiston Respublikasi istiqloлга erishgach, uning hayotida muhim tarixiy voqealar, jamiyatning rivojlanishida va davlat qurilishida yangi bosqichga o'tishdan dalolat beruvchi ijtimoiy siyosiy o'zgarishlar sodir bo'ldi.

«O'zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligi asoslari to'g'risida» qonunning qabo'l qilinishi, davlat Mustaqilligini e'lon qilish muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Davlat Mustaqilligining huquqiy asosi bo'lgan O'zbekiston Konstitutsiyasining qabo'l qilinishi, konstitutsiyaning asosiy qonun sifatida ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi masalalarni hal qilib beruvchi boshqa barcha qonunlarning shu jumladan maxsus qonunlar tizimini tashkil etuvchi kodekslarning yuridik manbai, poydevori bo'lib xizmat qildi. Konstitutsiyaning IX bobi oila munosabatlarini huquqiy tartibga solishga qaratilgan.

Oilaning davlat muhofazasida bo'lishi haqidagi qoida «Inson huquqlari umumjaxon Deklaratsiyasi» da davlatlar zimmasiga yuklatilgan muhim vazifalardan iborat bo'lib, u juda keng ma'noga ega. Bunda oila jamiyatning tabiiy va quyi zvenosi ekanligi, uning daxlsizligini ta'minlash, bolalarga ta'lim va tarbiya berish, onalar va ishga yaroqsiz oila a'zolari uchun zarur bo'lgan moddiy imtiyozlar berish, oilani mustahkamlash borasidagi muhim masalalar nazarda tutiladi.

O'zbekistonda oilani mustahkamlash, yosh avlodni jismoniy va ruxiy sog'lom qilib tarbiyalashga g'oyat katta ahamiyat berilmoqda. Sunngi yillarda qonun, farmon va qarorlar qabo'l qilish yo'li bilan amalga oshiriladigan tadbirlar oilalarga, ayollarga, ko'p bolali va yolgiz onalarga, maktab bolalari va studentlarga davlat tomonidan berilgan moddiy va ma'naviy yordamlar sog'lom avlodni tarbiyalash uchun zamin tayyorlamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 - yil 12 - sentyabrdagi «Respublika mahalla xayriya jamgarmasini tashkil etish to'g'risida» gi farmoni «Sog'lom avlod uchun» ordenini ta'sis etish to'g'risidagi 1993-yil 4 - martdagi farmon, 1994 - yil 16 - iyundagi «Bolali onalarga davlat ijtimoiy yordami tizimini takomillashtirish to'g'risida» farmoni, 1994 - yil 22 - avgustdagi «Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish choralari to'g'risida» gi farmonlar oila, oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik me'yorlarining takomillashuviga olib keldi.

Oilani jamiyatning ravnaq topishidagi tutgan o'rni va ishtirokini yanada oshirish, oilalarning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, ahloqiy manfaatlarning va faravonligini yaxshilashni davlat tomonidan qo'llab quvatlashni kuchaytirishi hamda izchil ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 - yil 9 - dekabrdagi farmoyishi bilan 1998 - yil «Oila» yili deb e'lon qilindi. Farmoyishga asosan O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 1998 - yil 27 - yanvardagi qarori bilan oila manfaatlarini ta'minlash borasida 1998-yilda amalga oshiriladigan tadbirlar to'g'risida davlat dasturini tasdiqladi. Bu tadbirlar quyidagi strategik yunalishlardan iborat:

- oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish, oila manfaatlarining huquqiy himoya qilishni ta'minlash, onalik va bolalik huquqlarini muhofaza qilish;

- oilaning ijtimoiy manfaatlarini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, oila a'zolarining sog'ligini muhofaza qilish va ta'lim darajasini oshirish uchun shart-sharoitlarni yaxshilash;

- oilaning iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash, oila daromadlarini, oila a'zolarini ish bilan ta'minlash darajasini oshirish va turmush sharoitlarini yaxshilash, kam ta'minlangan oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;
- oilaning ma'naviy-ahloqiy asoslarini va moddiy manfaatlarini takomillashtirish;
- oilaning sog'lom, aql-zakovatli yoki avlodni tarbiyalashdagi rolini oshirish, har tamonlama kamol topgan avlodni tarbiyalashda oila va jamiyatning vazifalarini takomillashtirish;
- oila muammolarini ilmiy va ijtimoiy tadqiq etishni chuqurlashtirish, oila, xotin - qizlar va bolalarning iqtisodiy va ijtimoiy axvolini ko'rsatuvchi statistika axbototini to'plash tizimini takomillashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 - yil 2 - fevralda qabo'l qilgan qarori bilan O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlar qo'mitasi ho'zurida Respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi.

Bundan asosiy maqsadi jamiyat taraqqiyotida, ma'naviy barkamol va jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalashda oilaning o'rni muhim ekanligini hisobga olib, oilaga taalluqli boy va sarmazmun milliy an'analarni avaylab-asrash, ularni umumbashariy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, oila va nikohning muqaddasligini yosh avlod ongiga chuqur singdirish yo'li bilan oilalarning mustahkamligini ta'minlash, oila a'zolarining huquqiy savodxonligini oshirish muammolarini ilmiy o'rganishni va fuqarolarga bu masalalarni amaliy yordam berishni muvofiqlashtirishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, Prezident farmonlari, fuqarolik kodeksi me'yorlari muvofiqlashtirilib, sud va prokratura, vasiy va homiy, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarining faoliyatida sinovdan o'tash va o'zlashtirilgan ko'p yillik tajriba, chet el mamlakatlarining oila qonunlarida nazarda to'tilgan oilaviy munosabatlarni mustahkamlash borasida ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan qoidalar e'tirof etildi va O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining qabo'l qilinishi uchun asos bo'lib xizmat kildi.

2.2. Oila to'g'risidagi qonun hujjatlari, ularning vazifalari.

Oila to'g'risidagi qonun hujjatlari deyilganda, O'zbekiston Respublikasi «Oila kodeksi» hamda unga muvofiq qabo'l qilinadigan boshqa qonun hujjatlari tushuniladi.

Oila haqidagi qonun hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 5 - moddasida belgilangan munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qonun hujjatlarining tizimidan iborat.

Oila to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan doirasi belgilangan munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan qabo'l qilingan qarorlar va shuningdek boshqa huquqiy normativ hujjatlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 94 – moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Konstitutsiya va qonunlarga, ya'ni Oila Kodekiga asoslanib, oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar, farmoyishlar chiqaradi.

Konstitutsiyaning 94 – moddasiga ko'ra Vazirlar Mahkamasiga ko'ra Oila Kodeksiga muvofiq ravishda O'zbekiston Respublikasi hududida bajarilishi majburiy bo'lgan oilaviy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Oila to'g'risidagi qonun hujjatlari nikoh to'zish, nikohning tugatilishi va uni haqiqiy emas deb topish shartlari va tartibini belgilaydi, oila a'zolari: er-xotin, ota-ona va bolalar o'rtasidagi, qarindoshlar hamda o'zga shaxslar o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy va mulkiy munosabatlarni tartibga soladi, shuningdek ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni oilaga olish shakl va qoidalarini, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish tartibini belgilaydi.

Oila kodeksi va oilaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan boshqa qonunlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid kelishi mumkin emas.

Oila to'g'risidagi hujjatlarning vazifalari: Oila kodeksining 1-moddasida quyidagicha ta'riflanadi:

- oilani mustahkamlash;
- oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a'zolarining ma'sulligi hissi asosida qurish;
- biron bir shaxsning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'ymaslik;
- oila a'zolari o'z huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning ta'minlanishidan iborat.

Huquqiy davlatda oilaviy munosabatlarga oid ahloqiy normalar huquqiy qoidalar bilan o'zviy bog'liqdir. Adolat va tinchlik qaror topgan demokratik jamiyatda oilaviy munosabatlar yuksak ideallar-muhabbat, do'stlik, o'zaro hurmat ehtiromga asoslanadi. Shu asosda yo'zaga kelgan oilaviy munosabatlar ham mustahkamdir. O'zaro muhabbat, ishonch, hurmat va hamjihatlikka asoslangan oilaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solish oila qonunchiligining asosiy vazifasidir. Oila qonunchiligining yana bir muhim vazifasi: - fuqarolarning oila oldida o'z ma'suliyatlarini his etgan holda tarbiyalashdan iborat bo'lib, bunda er va xotin, ota-onalar, bolalar va boshqa qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlar qonun bilan belgilangan majburiyatlarning bajarilishi bilan ta'minlanadi.

Oilaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning vazifasi va maqsadi uning tamoyillarida ifodalanadi.

Ular quyidagilardir:

1. Oilaviy munosabatlarda ayol va erkakning teng huquqliligi;
2. Oilaviy munosabatlarda fuqarolarning teng huquqliligi;
3. Oilaning, onalik, otalik va bolalikning muhofaza qilinishi.

Oilaviy munosabatlarda ayol va erkakning teng huquqliligi Oila Kodeksining 2 - moddasida mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib to'zgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Demak, O'zbekistonda ayollarning erkaklar bilan teng huquqliligi huquqiy mustahkamlangan va amaliy ifodasini topgan. Oila qonunchiligiga ko'ra oilaviy munosabatlarda er va xotin teng shaxsiy va mulkiy huquqlarga egadir. Ular teng huquqdan foydalanadilar, bab – baravar majburiyatlarni bajaradilar.

Oiladagi munosabatlar ham shaxsiy ham mulkiy harakterga ega bo'lishi mumkin.

Ota - onalar bolalarni vatanga sodiqlik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik ruhida va jamiyat qurilishining faol ishtirokchilari qilib tarbiyalashlari lozim. Bolalarni to'g'ri tarbiyalashda davlat va uning qonunlarini hurmat qilish, ularning talablariga rioya qilish muhim rol o'ynaydi. Ota va onaning bolalarni tarbiyalashda teng majburiyatlarga ega bo'lishi ular o'rtasidagi nikoh bekor qilinganda ham saqlanadi.

Bo'lar ota – onalarning shaxsiy huquq – majburiyatlariga kiradi.

Oilaviy munosabatlarda ayol va erkakning tenglik tamoyili mulkiy munosabatlarda ham o'z ifodasini topgan. Qonunga asosan er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol – mulklari shuningdek nikoh qayd etgunga qadar bo'lajak er – xotinning umumiy mablag'lari hisobiga olingan mol – mulklari ularning birgalidagi mulki hisoblanadi.

Er va xotin birgalikdagi umumiy mulkni egallash, foydalanish va tasarruf qilishda teng huquqlarga egadir.

Oilaviy munosabatlarda fuqarolarning teng huquqliligi Oila Kodeksining 3-moddasida mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra barcha fuqarolar oilaviy munosabatlarda teng huquqqa egadirlar. Nikoh to'zish chog'ida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi,

shaxsiy va ijtimoiy mavqei hamda boshqa holatlarga qarab huquqlarni muayyan tarzda, bevosita yoki bilvosita cheklashga, bevosita yoki bilvosita afzalliklar belgilashga hamda oilaviy munosabatlarga aralashishga yo'l qo'yilmaydi.

Oilaviy munosabatlarda fuqarolarning huquqlari faqat qonunga asosan va faqat oiladagi boshqa a'zolarining hamda o'zga fuqarolarning axloqi, sha'ni, qadr-qimmatini, sog'lig'i, huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida zarur me'yordagina cheklanishi mumkin.

Fuqarolarning teng huquqliligi faqat nikoh to'zish chog'idagina emas balki mavjud oilaviy munosabatlarda er bilan xotin va oila a'zolarining o'rtasida ham davom etishi va saqlanishi qonun bilan himoya qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46 - moddasiga ko'ra "Xotin – qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar". Oila Kodeksining 2 – moddasiga ko'ra esa oilada er va xotin shaxsiy va mulkiy munosabatlarni amalga oshirishda teng huquqli hisoblanadilar. Oilada er va xotinning teng huquqliligi oilaviy munosabatlarni o'zaro kelishilgan holda hal qilish uchun imqoniyat yaratadi.

Ayol va erkakning oilada fuqaro sifatida teng huquqli bo'lishi oilaviy masalalarini o'zaro kelishuv tamoyili asosida hal qilinishi ularning bolalarni tarbiyalash, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishi, muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Oilaning onalik, otalik va bolalikning muxofaza qilinishi Oila Kodeksining 4-moddasida mustahkamlangan. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasida Oila onalik, otalik va bolalik davlat himoyasidadir. Ona va bola manfaatlarini muxofaza qilish ayollarning mehnati va sog'lig'ini saqlashga doir maxsus tadbirlar ko'rish, mehnatni onalik bilan qo'shib olib borish uchun ayollarga sharoit yaratish, onalik va bolalikni huquqiy himoya qilish, moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash yo'li bilan ta'minlanadi.

Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining 16 - moddasi uchinchi qismiga ko'ra oila jamiyatning tabiiy va asosiy boshlang'ich hujayrasidir va u jamiyat va davlat tomonidan muhofaza etilish huquqiga ega. Ushbu tamoyil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63 - moddasida o'z aksini topgan. Unga ko'ra: "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega".

Oilani muxofaza qilish tushunchasi keng mazmunga ega bo'lib, bunda oilaning daxlsizligini, sha'nini, qadr – qimmatini himoya qilish, oila uchun kerakli moddiy, madaniy va maishiy sharoitlarni yaratish, bolalarga ta'lim va tarbiya berish, ishga yaroqsiz oila a'zolari uchun zarur bo'lgan moddiy imtiyozlar berish, oilani mustahkamlash borasida shu kabi muammolarni hal etish tushuniladi.

Oilaning jamiyatda tutgan o'rni va ishtirokini rivojlantirish, oilalarning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy – axloqiy manfaatlarini va farovonligini davlat tomonidan qo'llab – quvvatlashni kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 - yil 7 - dekabrda farmoyishi bilan 1998 - yil Oila yili deb e'lon qilindi. Farmoyishga ko'ra O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 1998 - yil 27 - yanvardagi qarori bilan oila manfaatlarini ta'minlash borasida 1998 - yilda amalga oshiriladigan tadbirlar to'g'risidagi davlat dasturini tasdiqladi.

Vazirlar mahkamasining 1998 - yil 2 - fevralidagi qarori bilan Respublikada Oila – ilmiy amaliy markazi tashkil etildi. Bundan asosiy maqsad har tomonlama kamol topgan oilani mustahkamlashning ilmiy amaliy asoslarini yaratishdan iborat.

1998 - yili – Oila yilidan boshlangan hayrli ishlarning bardavomligini ta'minlash jamiyat ma'naviyatining sog'lomligi, mamlakatimizda tinchlik – osoyishtalikni ta'minlashning muhim omilidir. YUrtimizda «Sog'lom ona – sog'lom bola» dasturi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar ko'lamining kengligi, bu sohaga davlatimiz qanchalik g'amxo'r ekanligi ayondir.

2.3. Oilaviy huquqlarni amalga oshirish va himoya qilish.

"Oila" kodeksining II bobi oilaviy huquqlarni amalga oshirish va himoya qilish masalalariga bag'ishlanadi. Oila kodeksining 10-moddasiga ko'ra, fuqarolar oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan huquqlarini o'z hohishlariga ko'ra tasarruf etadilar. Oila a'zolarining o'z huquqlarini amalga oshirishlari hamda o'z majburiyatlarini bajarishlari oilaning boshqa a'zolari va o'zga shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini bo'zmasligi shart. Oilaviy huquqlarni himoya qilish sud tomonidan fuqarolik sud ishlarini yuritish qoidalari bo'yicha, Ushbu Kodeksda nazarda to'atilgan hollarda esa, vasiylik va homiylik organlari yoki boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Oila a'zolarining o'z huquqlarini amalga oshirishlarida suiste'molchilikka yo'l qo'yilmaslik nazarda tutiladi.

Masalan: oilaning boshqa a'zolari va o'zga shaxslarning huquqlari erkinliklari va qonuniy manfaatlarini bo'zmaslik talab qilinadi. Ushbu talab O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20-moddasiga asoslanadi. Unga ko'ra "fuqarolar o'z huquq va erinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart".

Oilaviy huquqlarni amalga oshirishning eng muhim xususiyatlaridan biri bu oila kodeksi normalarining dispozitiv harakterga ega ekanligidir, ya'ni bu normalarni taraflarning o'zaro kelishuvi bilan o'zgartilishi mumkin.

Bunday normalar ko'proq, oila a'zolarining mulkiy masalalarini tartibga solishda uchraydi. Ammo oila a'zosining o'z huquqi boshqa oila a'zolari va o'zga shaxslarning huquqlari bilan bog'langan, ya'ni chegaralangandir.

Bundan xulosa shuki, o'z huquqlarini amalga oshirish bilan boshqa shaxslarning huquqlari va erkinliklariga putur yetkazish mumkin emas. Bunday putur yetkazish bilan amalga oshirilgan huquq himoya qilinish imqoniyatidan mahrum bo'ladi.

Masalan: nikoh bekor qilingandan keyin o'rtadagi bolaning onasi otasiga yoki otasi onasiga bola bilan uchrashishiga yo'l qo'ymasligi ham otaning, ham onaning shuningdek bolaning ham huquqlarini bo'zganlik hisoblanadi. Ota yoki onaning bola bilan uchrashishga qarshilik qilgan harakatlari ulardan birining huquqlariga putur yetkazilgan deb baholanadi va bunday harakatlar himoya qilinmaydi.

Fuqarolarning o'z oilaviy huquqlarini o'z hohishlariga ko'ra tasarruf etishlari ko'pincha qonun bilan cheklangan bo'lishi mumkin. Shunga e'tibor berish kerakki, oila a'zolarining ko'pincha huquqlari ularning majburiyati sifatida ham nomoyon bo'ladi. Bu ko'proq ota-ona bilan bolalarning shaxsiy huquqlariga tegishli.

Misol: ota-onaning bolani tarbiyalashga bo'lgan huquqlari ularning asosiy majburiyatlaridan iborat deb hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasiga muvofiq «Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlaricha tarbiyalashga majburlirlar»

SHunday ekan bunday huquqni amalga oshirishni ota-onaning hohishiga quyib bo'lmaydi, bu soxada ular zimmasiga majburiyat yuklatiladi.

Fuqarolarning o'z huquqlarini amalga oshirishdan voz kechishi bu huquqlarning bekor bo'lishiga olib kelmaydi.

Masalan: aliment olishdan voz kechish faqat navbatda olinadigan alimentga tegishli bo'lishi mumkin, lekin alimentni olmagan shaxs aliment olish huquqidan mahrum bo'lmaydi.

Boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini qasddan bo'zish javobgarlik uchun asos bo'ladi. Qasddan qilingan bo'zishlar sud tomonidan himoya qilinadi.

Oila kodeksining 11-moddasiga ko'ra «Oilaviy huquqlarni himoya qilish sud tomonidan fuqarolik sud ishlarini yuritish qoidalari bo'yicha, ushbu kodeksda nazarda to'atilgan hollarda esa, vasiylik va homiylik organlari tomonidan amalga oshiriladi»¹

1. Oilaviy nizolarni hal qilish umumiy sud vakolatiga taaluqlidir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997 - yil 30 - avgustda qabo'l qilingan va 1998 - yil 1 - yanvardan amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolik – protsessual kodeksi fuqarolarning oilaviy huquqlarini imtiyozlarni nazarda tutadi.

Masalan: aliment undirish bo'yicha da'vogarlar sud harajatini to'lashdan ozod qilinadi. Bunday ishlar qisqartirilgan muddatlarda ko'rib chiqiladi. Alimentlarni to'g'risidagi sud ajrimi darhol ijro etiladi. (F. P. K – 263 modda)

2. Oilaviy huquqlar ma'muriy tartibda, ya'ni davlat organi yoki mansabdor shaxsga murojaat qilish yo'li bilan ham himoya qilinishi mumkin.

Bunday tartib ota-ona homiyligidan mahrum bo'lgan bolalarga ularning huquqlarini himoya qilish maqsadida o'rnatiladi.

Oilaviy munosabatlarda bo'zilgan huquqlarni tiklashda ularni himoya qilish usullari turlichadir. YA'ni, birinchidan, shaxsning o'zi tomonidan o'z huquqining himoya qilinishi. Ikkinchidan, sud tomondan himoya qilinishi va uchinchidan, ma'muriy tartibda himoiya qilinishi.

3. Oila huquqlarini himoya qilishda vasiylik va homiylik organlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning huquqiy maqomi Fuqarolik Kodeksining 32 – moddasida, Oila Kodeksining 173-193 moddalarida nazarda tutiladi.

4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasiga ko'ra har bir shaxsning huquq va erkinligini sud tartibida himoya qilish davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy hatti-harakati ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Oilaviy huquqlarni amalga oshirish va himoya qilishda bolalarning nasl-nasabini belgilash, er-xotin, bolalar, ularning manfaatlarini himoya qilish uchun ularning umumiy mulkdagi ulushini tan olish va belgilash, o'gay ota, o'gay ona, o'gay o'g'il, o'gay qizdan aliment undirish kabi masalalar faqat oilaviy munosabatlarda uchraydi.

Demak, oilaviy munosabatlarda oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilishda bo'zilgan huquqlarni tiklashda qator usullardan foydalanish mumkin.

Oilaviy munosabatlarda kelib chiqadigan nizolarni hal etishda da'vo muddatlari qo'llanilmaydi. (12-modda)

Da'vo muddati bo'zilgan huquqni sud tomonidan himoya qilish uchun qonun bilan belgilangan muddatdir. Da'vo muddati jamiyat a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek sud amaliyotida barqarorlikni o'rnatish uchun xizmat qiladi.

Vaqtning o'tishi bilan nizoli masalarni hal etish uchun tegishli va zarur dalillar bo'lishi yoki bo'lmay qolishi mumkin. Agar nizoni hal qilish uchun ma'lum bir vaqt belgilanmagan bo'lmasa aybi bo'lmagan shaxs asossiz talablar natijasida aybli hisoblanib zarar ko'rishi mumkin. SHuning uchun ham da'vo muddati fuqarolarning bo'zilgan huquqlarini tiklash uchun o'z vaqtida sudga murojaat qilishni talab qiladi va jamiyat a'zolari o'rtasida tartib-intizomni o'rnatish va ta'minlashga yordam beradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi bobi oila munosabatlarini huquqiy tartibga solishga qaratilgan?
2. Oila to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifasi nimalardan iborat?
3. O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi nechanchi yilda qabo'l qilingan?
4. «Oila» ilmiy amaliy markazi qanday vazifalarni amalga oshiradi?
5. Oilani huquqiy tartibga solish va muhofaza etishga qaratilgan qanday qonunlarni bilasiz?
6. Prezident I. A. Karimov tomonidan oila manfaatlarini mustahkamlashga qaratilgan qanday amaliy chora-tadbirlar amalga oshirildi?

Adabiyotlar ro'yxati:

Rahbariy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va

- fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir” Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabo‘l qilinganining 17 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi Ma‘ruzasi. // Huquq va burch jurnali. 2009 – yil. № 12 son. 2-9 – betlar.
2. Karimov I.A. “O‘zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo‘lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir” Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabo‘l qilinganining 17 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi Ma‘ruzasi. // Huquq va burch jurnali. 2009 – yil. № 12 son. 2-9 – betlar.
3. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T.8. -T., 2000 y.
4. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma’sulmiz. T.9. –T., 2001 y.
5. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun ko‘rashmoq kerak. T.10 -T., 2002 y.
6. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. T.: “Ma’naviyat”, 2008 - yil.
7. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. T.: “O‘zbekiston”, 2009 – yil.
8. Karimov I.A.. O‘zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo‘li. “Xalq so‘zi”, 2007 - yil, 31 - avgust.

Maxsus adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar. 2009 – yil.
2. Saidov A, Tadjixanov U, Odilkoriyev X. "Davlat va huquq asoslari". T., "Sharq", 2002 - yil.
3. Z. Islomov, O. Xusanov, M. Mirhamidov. Huquqshunoslik. Ma‘ruzalar matni. T., 2000 - yil.
4. F. Otaxujayev. "Nikoh va uni huquqiy tartibga solinishi". T., "O‘zbekiston ", 2000 - yil.
5. O‘zbekiston Respublikasi oila kodeksiga sharhlar. T., 2009 - yil.

Me‘yoriy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O‘zbekiston ", 2009 - yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi asoslari to‘g‘risida"gi 1991 -yil 31 - avgust konstitutsiyaviy qonuni.
3. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy Dasturi. 1997 - yil 27-avgust.
4. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. T., "Adolat", 2009 - yil.
5. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. T., "Adolat", 2009 - yil.
6. O‘zbekiston Respublikasi "Sudlar to‘g‘risida"gi qonuni. 2000 - yil 15.12.

3 – Mavzu: Nikoh to‘zish tartibi va shartlari.

Reja:

1. Nikoh tushunchasi, nikohning huquqiy ahamiyati
2. Nikoh to‘zish tartibi va shartlari
3. Nikohni qayd etish muddatlari, tartibi va shartlari
4. Nikohni haqiqiy emas deb topish asoslari va tartibi

Darsning maqsadi: Talabalarni nikoh, nikoh to‘zish tartibi va shartlari, nikohni qayd etish tartiblari va nikohni haqiqiy emas deb topish asoslari bilan rasmiylashtirish.

Kutilayotgan natija: Talabalarning huquqiy madaniyatini rivojlantirish, Oila Kodeksi me‘yorlarini qo‘llash kunikmalarini shakllantirish.

Dars uslubi: Munozara.

Tayanch tushunchalar: Nikoh, nikohning ixtiyoriyligi, nikoh yoshi, nikoh to‘zishga monelik qiladigan holatlar, tibbiy kurik, soxta nikoh, nikohni haqiqiy emas deb topish, uning okibatlari.

3.1. Nikoh tushunchasi, nikohning huquqiy ahamiyati.

Oila – jamiyatning bir bo‘lagi. Jamiyat katta kichik bo‘lakchalar, oiladan iborat. Bu bo‘lakchalar kanchalik mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham shunchalik mustahkam, kuchli, sharaflil bo‘ladi.

Oila jamiyatning o'ziga xos ijtimoiy muassasasidir. Oilaning bu xususiyati birinchi galda uning jamiyat manfaatlari bilan bog'liqligida hamda ijtimoiy vazifalarda ifodalanadi.

Oilaning umumiy (sotsiologik) va maxsus (yuridik) tushunchasi mavjuddir.

Sotsiologik ma'nodagi oila nikohga, qarindoshlikka (yoki faqat qarindoshlikka), bolalarni tarbiyaga qabo'l qilishga, umumiy xayot, maqsad, o'zaro gamxurlikka asoslangan shaxslar ittifoqdan iboratdir.

Oilaviy ittifoqda shaxslar o'rtasida axlokiy, psixologik, jismoniy va xo'jalik maishiy alokalar sodir bo'lib, ular xayotda maqsadlarda umumiylikni vujudga keltiradi.

Oilaviy ittifoq maxsus va shu bilan birga murakkab ijtimoiy munosabatlardan iboratdir.

Odatda oilaning vujudga kelishiga nikoh asos bo'ladi, shuning uchun oilada bola tug'ilmagan bo'lsa ham, nikoh munosabatining o'zi oilani tashkil etadi. Oilada er-xotin bilan bir qatorda bolalarni ham bo'lishi tipik oilani vujudga keltiradi.

Ota-onalar va bolalar har taraflama jipslashgan oila birligini tashkil etadi. Ular o'rtasida juda yaqin oilaviy munosabatlar mavjuddir. Bu shaxslar oilaning yadrosini tashkil etadi.

O'zining ijtimoiy mazmuniga qarab oila, odatda, uch o'zaro alokadagi sotsial gurux, uning asosi sifatida nikoh, nikohning natija sifatida er-xotin munosabatlari, er-xotin munosabatlarining okibati sifatida farzandlardan tashkil topadi. Tipik oilaviy munosabatlardan tashqari bolali yolgiz ona bilan uning bolasi o'rtasidagi, boshqa qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlar, ayrim holatlarda esa tugishmaganlar (farzandlikka olganlar va farzandlikka olingan, tarbiyaga olgan va tarbiyaga olinganlar) o'rtasidagi munosabatlar ham oilaviy munosabatlarni tashkil etadi.

Huquqiy ma'noda oila – yuridik alokadir. Oilaviy munosabatlardagi yuridik harakter huquqiy normalar bilan ularning munosabatlarini tartibga solib, davlatning majburiy qoidalari bilan oila a'zolarining xulkiga ta'sir etib, oildani jamiyat xoxlagan asosda rivojlantirishga yordam beradi.

Yuridik fakt sifatida qayd qilingan nikoh va yaqin qarindoshlik oilaviy – huquqiy munosabatlarning vujudga kelishida muhim huquqiy asos bo'ladi. Bu munosabatlar qayd qilingan nikohdan tashqari ham vujudga kelishi mumkin. Turmush ko'rmagan ayol yoki uylanmagan erkak tomonidan farzandlikka olish bunga misol bo'la oladi. Yolgiz shaxs tomonidan bolalarni doimiy tarbiyaga olganda ham oilaviy huquqiy munosabatlar vujudga keladi.

Maxsus huquqiy adabiyotlarda huquqshunos olim tomonidan oilaga ta'rif berilgan. Insonparvar demokratik huquqiy davlatda mavjud bo'lgan oilaga biz bergan ta'rif quyidagicha: «Oila jamiyatning tabiiy va asosiy bugini bo'lib, yuridik ma'noda nikoh, qarindoshlik, farzandlikka olish yoki boshqa shakllarda bolalarni doimiy tarbiyaga olishdan kelib chiqadigan tegishli huquq va majburiyatlar bilan boglangan shaxslar doirasidan iborat bo'lgan milliy mustaqillik mafko'rasiga umuminsoniy kadriyatlar va Sharqona an'analarga asoslangan oilaviy munosabatlarni rivojlantirib, uni mustahkamlashga qaratilgan Fuqarolar ittifoqidan iboratdir».

Oilaviy huquq munosabatlar jamiyatda juda keng tarkalgan munosabatlardandir. Oilaviy munosabatlar aksariyat hollarda axlokiy normalar bilan tartibga solinadi.

Oilaviy huquqiy munosabatlar nikoh va oila doirasidagi aniq ijtimoiy munosabatlarni nikoh-oila qonunchiligi nuktai nazaridan tadbiq etishdir. Oilaviy huquqiy munosabatlar davomli huquqiy munosabatlar hisoblanadi. Bu xususiyat huquqiy munosabatlarning maqsadlari bilan belgilanadi. Nikohdan maqsad oila qurish bo'lib, u er-xotinning butun umri davomida yashashi muljallanadi. Ota-onalik huquqiy munosabati bolalarning tarbiyasi va ta'minotiga qaratiladi. Farzandlikka olish, vasiylik, homiylik va boshqa munosabatlar kup xususiyatlari bilan bir-biriga uxshab ketadi. Bunday huquqiy munosabatlarda qo'yilgan maqsadlarga o'zok muddat davomida erishish mumkin.

Oilaviy huquqiy munosabatlar ko'pincha muddatsiz bo'ladi. Er-xotinning huquq va majburiyatlari, nikohdan ajralish holatini hisobga olmaganda, bir umr davom etadi. Ayni paytda shunday oilaviy huquqiy munosabatlar ham mavjudki, ular ma'lum muddat bilan

cheklanadi. Biroq belgilangan davrgacha albatta davom etadi. Masalan, ota-onalarning o'z bolalarini tarbiyalash majburiyatlari farzand 18 yoshga tuguniga qadar davom etadi.

Qonunchilik oilaviy huquqiy munosabatlarni huquqiy munosabatlarning maxsus turi deb hisoblaydi. Bu fikrni tasdiqlash uchun yangi davlatning vujudga kelishidan boshlab nikoh oila qonunchiligining mustaqil ravishda rivojlanganligini misol kilib keltirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi mukaddimasida oila jamiyatning tabiiy asosiy buguni ekanligi, nikoh va qarindoshlikka asoslanishi hamda jamiyat (har xil jamgarmalar-kursiv bizniki-F.O.) va davlat muhofazasida bo'lishi huquqiga ega ekanligi ko'rsatildi. SHuningdek, jamiyat va davlat oilani, otalik, onalik va bolalikni himoya qilishi oilaviy munosabatlarda umuminsoniy va milliy kadriyatlar joriy etilishi alohida ta'kidlab utildi.

3.2. Nikoh to'zish tartibi va shartlari

Nikoh Fuqarolik holatlarini dalolatnomalarini qayd qilish organlarini to'ziladi. Diniy rasm-rusumlarga binoan to'zilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas.

Oila kodeksining 14- moddasida belgilanishicha, nikoh to'zish ixtiyoriy ravishda amalga oshirilishi lozim.

Nikoh erkak bilan ayol o'rtasidagi tenglik va o'zaro hohish asosida to'zilgan erkin ittifoq bo'lib, maqsad oila qurish, farzand ko'rish ularni jamiyatning munosib kishilari qilib tarbiyalashdan iborat.

Nikohlanuvchilarning o'zaro roziligi nikoh to'zishning muhim shartlaridan biri.

Nikohning o'zaro rozilik va ixtiyoriy asosda to'zilishi, oilaning barqaror va mustahkam bo'lishiga imqoniyat yaratadi. Erkak va ayolning o'zaro roziligi bilan nikoh to'zishning muhimligi va ahamiyati BMT Bosh Assambleyasining o'zaro roziligi bilan «Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi» da ham ta'kidlangan.

Deklaratsiyaning 16- moddasiga ko'ra¹ «nikoh, nikohdan o'tayotgan ikkala tomonning hohish va batomom roziligi bilangina to'zilishi mumkin».

Nikoh to'zish uchun berilgan rozilik, chinakam bo'lishi kerak. O'zaro qo'rqitish, zo'rlik, aldash yoki ruhan ta'sir etish yo'li bilan majbur qilish orqali olinishi mumkin emas. Zo'rlik, qo'rqitish, aldash natijasida to'zilgan nikoh, nikohning haqiqiy emas deb topilishiga asos bo'ladi. Bu g'ayriqonuniy hatti-harakatni sodir etgan shaxsga nisbatan jinoiy javobgarlik qo'llaniladi..

O'zbekiston Respublikasining Amaldagi jinoyat kodeksi 136- moddasiga ko'ra «Ayolni erga tegishga yoki nikohda yashashga majbur qilish yohud ayolning erkiga xilof ravishda o'zaro u bilan nikohda bo'lish uchun o'g'irlash, shuningdek ayolning erga tegishiga to'sqinlik qilish – eng kam oylik ish haqqining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha ahloq to'zatisht ishleri yohud olti oygacha qamoq bilan yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanadi»².

Nikoh to'zishning yana bir sharti bu nikoh yoshidir. Oila kodeksining 15- moddasiga ko'ra: «Nikoh yoshi erkaklar uchun 18 yosh, ayollar uchun 17 yosh etib belgilanadi»³. CHunki bu yoshda erkak va ayollar fiziologik yetilib, ma'naviy va jismoniy jihatdan o'sib, ota-ona bo'lish qobiliyatiga ega bo'ladilar.

Amaldagi oila qonunlarida belgilangan nikoh yoshiga rioya qilmasdan g'ayriqonuniy ravishda nikoh munosabatida bo'lish huquqiy oqibat tug'diradi. Bunday nikoh haqiqiy emas deb topilib, tegishli shaxsiy va mulkiy oqibatlarga olib keladi. Jinoyat kodeksining 98- moddasiga ko'ra «nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan nikohda bo'lish – bir yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki shu muddatgacha ahloq to'zatisht ishiga hukm qilish bilan jinsiy jihatdan yetilmagan shaxs bilan nikohda bo'lish uch yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki ikki yilgacha muddatga ahloq to'zatisht ishiga hukm qilish bilan jazolanadi»⁴.

¹ Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi.

² O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. Adolat. 2006 y.

³ O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi Adolat 2006 y.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Adolat.2006 y.

Qonun ayrim favqulodda hollarda nikoh Tuzuvchilarga nikoh yoshini kamaytirishiga yo'l qo'yadi. Amaldagi qonunga binoan o'zrli sabablar bo'lganda, alohida hollarda nikoh to'zishni hohlovchilar iltimosiga ko'ra, nikoh davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydan tuman, shahar hokimi tomonidan 1 yilga kamaytirilishi mumkin (ayolning homiladorligi yoki bola tug'ish hollari hisobga olinadi).

Oila kodeksining 16- moddasiga ko'ra, nikoh to'zishga quyidagi holatlar monelik qiladi:

- Loaqal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o'rtasida;
- Nasl – nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida, shuningdek farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida loaqal bittasi ruhiyatbo'zilishi sababli sud tomonidan muomilaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o'rtasida yo'l qo'yilmaydi¹.

Inson sog'lig'i uning bugungi kuni va kelajak avlodining barkamolligi jamiyatimizning eng katta boyligidir. Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash va uni mustahkamlash vazifasini davlat o'z zimmasiga olgan.

SHu maqsadda Oila kodeksi nikoh Tuzuvchilarning roziligi bilan, birinchi marta nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, shuningdek tibbiy-irsiy hamda oilani rejalashtirish masalalari bo'yicha ularga maslaxatlar berish davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalari tomonidan amalga oshirilishini belgilaydi. Bunday konsultatsiya va tekshirish o'tkazishdan maqsad tibbiy-irsiy kasalliklardan kelajak avlodni asrash, shuningdek er-xotinlarni oldindan ogohlantirish, ular kasallanishining oldini olishdir.

Tekshiruvdan o'tgan fuqaroning tibbiy hujjatlarida O'zbekiston ifodasini topgan xulosalar tibbiy sir hisoblanadi.

Tekshiruv natijalari nikohdan o'tuvchi ikkinchi tomonga faqat tekshiruvdan o'tgan shaxsning roziligi bilan bildiriladi. Bu qoida ma'lumot berish vrachlik siri hisoblanib o'zaro fuqaroning rozilgisiz berilmaydi.

Agar nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki odam immuniteti taqchilligi virusi (OITS infeksiyasi) borligini boshqasidan yashirgan bo'lsa, bu shaxs nikohni haqiqiy emas deb topishini talab qilib sudga murojaat qilishga haqlidir.

Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida to'ziladi. Nikohni tegishli organda qayd etishlik, uning vujudga kelganligini isbotlovchi birdan-bir dalildir.

Nikoh davlat va jamiyat manfaatlarini ko'zlab, shuningdek er bilan xotinning va bolalarning shaxsiy va mulkiy huquqlarini hamda manfaatlarini muxofaza qilish maqsadida fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida to'ziladi.

Diniy yo'l bilan yohud mahalliy urf-odatlariga amal qilingan holda to'zilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Nikoh to'zishda diniy marosimlarga amal qilish inkor etilmaydi, bu nikohga kiruvchilarning shaxsiy e'tiqodi, ular o'z nikohlarini diniy rasm-rusmlardan oldin yoki keyin davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim.

FXDYO organida qayd etilmagan nikoh tomonlarda er, xotinga tegishli huquq va majburiyatlarni vujudga keltirmaydi.

Nikoh davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan tomonlarda, er-xotin o'rtasida qator huquq va majburiyatlar paydo bo'ladi, ular o'rtasida tug'ilgan bola nikohda tug'ilgan bola deb hisoblanadi, unda ota-onaga nisbatan huquq va burchlar paydo bo'ladi.

3.3. Nikohni qayd etish muddatlari, tartibi va shartlari

Nikoh to'zish tartibi O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining VII bo'limida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 - yil 12 - apreldagi 171 - sonli qarori bilan tasdiqlangan «Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari» da batafsil bayon qilingan .

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 13 - moddasiga ko'ra², nikoh Tuzuvchilar ariza berganlaridan sung bir oy muddat o'tgandan sung nikoh to'zilishi belgilangan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. Adolat 2006 y.

² O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharhlar. Toshkent. Adolat. 2000 y. 37 bet.

Bunday muddatni belgilashdan maqsad nikohdan o'tuvchilarning bir-birlari bilan yaxshi tanishib olishlari uchun imqoniyat yaratishdan, shuningdek yengiltaklik qilib, shoshma-shosharlik qilib, tor o'ylab nikohdan o'tishlariga yo'l sqo'ymalikdan iborat. Bir oylik muddat ichida nikohga kiruvchilar nikoh to'zishga bo'lgan o'z hohishlarini yana tekshirish imqoniyatlariga ega bo'ladilar.

Bundan tashqari bu muddat ichida nikohni qayd etishga monelik qiladigan holatlar ham aniqlanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi «Oila kodeksi» 13 - moddasining 4 - bandi sharhiga ko'ra, o'zrli sabablar bo'lganida fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi bir oy o'tkunga qadar nikoh to'zishga ruhsat berish mumkin. Biroq oila kodeksi moddalarida ham, fuqarolik holatlarini qayd etish tartibi to'g'risidagi qoidalarga ham qanday holatlar o'zrli hisoblanishi va belgilangan bir oylik muddatni qisqartirishga asos bo'lishi ko'rsatilmagan. Biroq amaliyotda quyidagi hollar o'zrli sabab hisoblanib, bir oylik muddatni qisqartirishga asos bo'lishi mumkin:

- a) nikohni qayd ettirish uchun ariza berganlar o'zoq vaqt birga turgan bo'lsalar;
- b) ariza berganlardan biri o'zoq muddatga chet elga yoki kelib-ketish qiyin bo'lgan joyga yo'llanma bilan ketayotgan bo'lsa;
- v) kuyov yoki kelinning yaqin qarindoshlaridan biri og'ir kasal bo'lsa;
- g) nikohni qayd ettirish uchun ariza bergan kuyov armiya safiga chaqirilgan yoki boshqa o'zrli sabablar bo'lsa.

Qanday sabablarni o'zrli deb hisoblash qonun bo'yicha, FXDYO bo'limining mudiriga berilgan. Nikohni qayd etish muddatini qisqartirish haqidagi ariza kelin-kuyovning har ikkalasi tomonidan birgalikda berilishi kerak.

Arizaga muddatni qisqartirishga asos bo'ladigan hujjatlar ilova qilinishi lozim. Ariza va tegishli hujjatlarni qabo'l qilib olgan FXDYO mudiri muddatni qisqartirish yoki qisqartirmaslik, agar qisqartirish lozim bo'lsa, necha kunga qisqartirish kerakligini aniq axvolga qarab aniqlaydi. Bu masalani hal qilayotgan mansabdor shaxs o'z xulosasini yozib uni imzosi bilan tasdiqlashi lozim. Bu hol mansabdor shaxslarning muddatni qisqartirishga bo'lgan ma'suliyatini oshiradi.

Alohida hollarda nikoh ariza berilgan kun to'zilishi mumkin. Masalan:

- 1. homiladorlik,
- 2. bola tug'ilishi,
- 3. bir tomonning kasalligi,
- 4. er-xotindan birining xayoti xavf ostida bo'lishi

Bunday hollar tegishli hujjatlar asosida, rasmiy dalillar bilan aniqlanishi kerak;

- a) tibbiy muassasaning homiladorlik to'g'risidagi ma'lumotnomasi;
- b) bola tug'ilganligi haqida tibbiy muassasa ma'lumotnomasi;
- v) ish joyidan berilgan ma'lumotnoma;
- g) harbiy kumita ma'lumotnomasi;

nikohni kyad etish nikohlanuvchi shaxslardan birining FXDYO organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Alohida hollarda nikohni qayd etish kasalxona yoki uyda amalga oshiriladi.

Amaldagi qonunga muvofiq, nikohlanuvchilarning biri ilgari nikohda turgan bo'lsa, nikoh to'zishga yo'l qo'yilmasligi tufayli, FXDYO organi arizani qabo'l qilaturib, nikohlanuvchilarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar bo'yicha ularning qonuniy nikohda bo'lganmi-yo'qmi ekanligini tekshirib ko'rish kerak.

Ilgari nikohda bo'lgan shaxs FXDYO organiga avvalgi nikoh tugatilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etishi kerak. Bu nikohdan ajratilganligi to'g'risida sudning hal qiluv qarori, er-xotindan birining vafot etganligi to'g'risidagi guvohnoma yohud sudning nikoh haqiqiy emas deb topgan hal qiluv qarori bo'lishi mumkin. Nikoh to'zish to'g'risidagi ariza belgilangan shaklda berilishi kerak.

Belgilangan shakldagi ariza nikohlanuvchilarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari asosida to'ldirilib, barcha savollarga aniq va to'liq javoblar berilishi kerak.

Nikohlanuvchilarning istaklariga binoan nikoh ularning qarindoshlari, tanishlari ishtirokida tantanali vaziyatda qayd etilishi mumkin. Nikohni qayd etishda guvohlarning soni ikki kishidan kam bo'lmazligi kerak.

Nikohga kirish haqidagi arizani berishda shaxsni aniqlovchi hujjatlar: pasport, harbiy bilet yoki shaxsiy guvohnoma ko'rsatilishi kerak.

Nikohga kirish to'g'risidagi ariza maxsus daftarda ro'yxatdan o'tkazilishi kerak. Unda nikohlanuvchilarning familiyasi, ismi, otalarining ismi, ariza qabo'l qilingan va nikohni qayd etish uchun belgilangan kun, nikoh qayd etilganligi to'g'risidagi dalolatnomaga yozuvi teng tartib raqami ko'rsatiladi.

Nikoh faqat nikohlanuvchilarning ishtirokida qayd etiladi, nikohni ishonch qog'ozi yoki vakil orqali qayd etilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Nikohni qayd etilgan shaxslarning pasportiga yoki uning shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatlariga shtamp bosilib, nikoh qayd etilgan vaqti va joyi, nikohlangan shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi, tug'ilgan yili yozib qo'yiladi.

Nikoh to'zish bo'yicha o'rnatilgan qoidalar bo'zilganda, sudning hal qiluv qarori bilan bunday nikoh haqiqiy emas deb topiladi.

Ahloq to'zatishtish mehnat muassasasida jazoni o'tayotgan mahkumlar bilan nikoh shu hududda joylashgan FXDYO organida qayd etiladi.

Mahkum bilan nikoh FXDYO idorasi bilan kelishgan holda ahloq to'zatishtish mehnat muassasasi ma'muriyati tomonidan belgilangan binoda nikohga kiruvchilarning ishtirokida qayd etiladi.

Mahkum bilan nikohga kirgan shaxsga FXDYO tomonidan nikoh qayd etilgani to'g'risidagi guvohnoma beriladi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish idoralari tomonidan yuqoridagi qoidalarining bo'zishini javobgarlik uchun asos bo'ladi.

4. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining VIII bobi «nikohning haqiqiy emasligi» deb nomlanib nikohni haqiqiy emas deb topish tartibini, nikohni haqiqiy emas deb topish vaqti va nikohni haqiqiy emas deb topish oqibatlarini belgilaydi¹.

Oila kodeksining 49- moddasiga ko'ra «Ushbu kodeksning 14-16- moddalarida hamda 17- moddasining 3- qismida belgilangan shartlar bo'zilgan taqdirda, shuningdek, soxta nikoh, ya'ni er-xotin yoki ulardan birining oila qurish maqsadini ko'zlamay to'zgan nikohi haqiqiy emas deb topiladi».

Qonun nikoh to'zish uchun nikohga kiruvchilarning o'zaro roziligini talab qiladi. «Nikoh to'zish ixtiyoriydir. Nikoh to'zish uchun bo'lajak er-xotin o'z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Nikoh to'zishga majbur qilish ta'qiqlanadi»².

SHuningdek qonun nikoh to'zish uchun ayol va erkakning nikoh yoshiga to'lgan bo'lishlarini talab qiladi: «Nikoh yoshi erkaklar uchun 18 yosh, ayollar uchun 16 yosh qilib belgilanadi»³.

Nikoh to'zish nikohlanuvchilarning Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlariga ariza berganlaridan keyin bir oy utgach, shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi.

O'zrli sabablar bo'lganda Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi bir oy utgunga qadar nikoh to'zishga ruxsat berilishi mumkin.

Nikoh to'zish Fuqarolik holati dalolatnomalarini davlat ro'yxatidan utkazish uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organi nikohni ro'yxatga olishni rad etganda, shikoyat bilan bevosita sudga yoki buysunishiga ko'ra yukori turuvchi organga murojaat qilinishi mumkin.

Nikoh to'zish ixtiyoriydir.

Nikoh to'zish uchun bo'lajak er-xotin roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Nikoh to'zishga majbur qilish ta'qiqlanadi.

Nikoh yoshi erkaklar uchun 18 yosh, ayollar uchun 17 yosh deb belgilanadi.

O'zr sababalar bo'lganida, alohida hollarda nikohga kirishni xoxlovchilarni iltimosiga ko'ra nikoh davlat ro'yxatidan utkaziladigan joydagi tuman, shahar xokimi nikoh yoshini kupi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin.

Nikoh to'zishga:


- Loakal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o'rtasida;
- Nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida, tugishgan va ugay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida;

Loakal bittasi ruxiyat ruxit bo'zulishi (ruxiy kasalligi yoki akliy zaifligi) sababali sud tomonidan muomilaga loyakatsiz deb topilgan shaxslar o'rtasida yo'l qo'yilmaydi.


Nikohlanuvchi shaxslarni tabbiy kurikdan utkazish shuningdek tibbiy, irsiy hamda oilani rejalashtirish masalalalri bo'yicha maslaxat berish nikohlanuvchi shaxslarning roziligi bilan davlat soglikni saqlash tizimi muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

Nikohlanuvchi shaxsni kurikdan utkazish natijalari shifokor siri hisoblanadi va uni nikohlanuvchi shaxsga faqat kurikdan utgan shaxsning roziligi bilan bildirilishi mumkin.

Basharti, nikohlanuvchi shaxslarning biri tanosil kasalligiga yoki odam immuniteti takchilligi virusi (OITS infeksiyasi) borligini boshqasidan yashirgan bo'lsa, shu shaxs nikohni haqiqiy emas deb topishni talab kilib sudga murojaat etishga haqlidir.




Izox: Nikoh yoshi erkaklar uchun 18 yosh, ayollar uchun 17 yosh kilib belgilangan. O'zrli sabablar bo'lganida, alohida hollarda nikohga kirishni xoxlovchilarning iltimosiga ko'ra nikoh davlat ro'yxatidan utkaziladigan joydagi tuman, shahar xokimi nikoh yoshini kupi bilan bir yilga kamaytirish mumkin.



Izox: Nikoh uni to'zishga moneylik qiladigan holatlarda to'zilishi mumkin emas. Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organining nikohni kayt etishdan bosh tortishi yo'zasidan sudga shikoyat qilish mumkin.

Nikohni to'zishga monelik qiladigan holatlar.



3.4. Nikohni haqiqiy emas deb topish asoslari va tartibi.

Ushbu kodeksning 14-16 moddalarida hamda 17-moddasining 3 qismida belgilangan shartlar bo'zulganda, shuningdek soxta nikoh, ya'ni er-xotin yoki ulardan biri oila qurish maqsadini ko'zlamay to'zgan nikoh haqiqiy emas deb topiladi.

Nikohni haqiqiy emas deb topish faqat sud tartibida amalga oshiriladi. nikohni haqiqiy emas topish haqida sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qaroridan nusxa berilayotganda pasportga yoki shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjatlarga tegishli belgi qo'yiladi. Nikohni haqiqiy emas deb topish haqida sud chiqargan hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgach, 10 kun ichida undan ko'chirma nikoh to'zilganligi ro'yxatga olingan joydagi Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organiga yuboriladi.

Nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan to'zilgan nikoh hali nikoh yoshiga yetmay nikohga kirgan shaxsning manfaatlari talab qilgan hollarda haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bunday nikohni haqiqiy emas deb topishni nikoh yoshiga yetmay nikohga kirgan shaxs, uning ota-onasi yoki homiysi, shuningdek, vasiylik va homiylik organi hamda prokuror talab qilishga haqlidir.

Ish sudda hal qilinishi paytigacha er yoki xotin nikoh yoshiga yetgan bo'lsa, nikoh faqat uning talabi bilan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Er-xotindan biri nikoh yoshiga yetmaganligi tufayli nikohni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi ish, agar er-xotin (ulardan biri) ish sudda ko'rilayotgan paytda nikoh yoshiga yetmagan bo'lsa, vasiylik va homiylik organining ishtirokida ko'rib chiqiladi.

Ushbu kodeksning 16-moddasida ko'rsatilgan holatlar mavjud bo'lganda to'zilgan nikoh haqiqiy emas deb topiladi.

Agar ish hal qilinish paytigacha nikohni to'zish uchun moniylik qiladigan holatlar tugagan bo'lsa, sud nikohni o'sha holatlar tugagan paytdan boshlab haqiqiy deb topishga haqli.

Muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxs bilan to'zilgan nikohni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi ishni sud vasiylik va homiylik organining ishtirokida ko'rib chiqadi.

Majburlab to'zilgan nikoh jabrlanuvchi va prokurorning arizasi bo'yicha haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Er-xotin soxta nikoh qayd qildirgan va oila ko'rmagan bo'lsalar, nikoh haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Nikohni haqiqiy emas deb topish uchun uning soxtaligi ham asos bo'ladi. Nikohni haqiqiy emas deb topish faqat sud tartibida amalga oshiriladi. Bunday munosabatlardan kelib chiqadigan talablarga nisbatan da'vo muddati joriy qilinmaydi.

Soxta nikohni haqiqiy emas deb topishni prokuror talab qilishga haqli, er (xotin) oila qurish maqsadimiz nikohga kargan hollarda esa, bunday talab xotin (er) tomonidan ham qo'yilishi mumkin.

Sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan nikoh to'zilgan vaqtidan boshlab haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Nikohni haqiqiy emas deb topish bo'yicha ko'riladigan ish nikohdan ajralishdan ishning qurilishi tartibi bo'yicha farq qiladi, ya'ni:

1. Nikohni haqiqiy emas deb topish faqat sudning hal qiluv qarori bilan hal qilinsa, nikohdan ajralish esa sud hukmi bilan va ma'muriy tartibda hal qilinadi.

2. Nikohni haqiqiy emas deb topish to'g'risida er-xotinlarning o'zlari, shuningdek bundan manfaatdor bo'lgan shaxslar bir qator asoslarga ko'ra da'vo qilishi mumkin, nikohdagi ajralishda esa, ish faqat er-xotinning yoki ulardan birining tashabbusi bilan qo'zg'atiladi.

Nikohni haqiqiy emas deb topish haqida sud chiqargan hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgach, un kun ichida uning ko'chirmasi nikoh to'zilganligi ro'yxatga olingan joydagi fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga yuboriladi.

Nikohni to'zish jarayonida amaldagi oila qonunchiligida belgilangan shartlarni bo'zadigan va monelik qiladigan holatlarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, bunday nikoh ajralish yo'li bilan tugatilgandan keyin ham haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

CHunki haqiqiy bo'lmagan nikoh oqibatlarini ajralish yo'li bilan tugatilgan nikoh oqibatlaridan bir qator masalalarda farq qiladi, nikoh haqiqiy emas deb topilganda uning kuchi tugallanadi deb aytilish to'g'ri bo'lmaydi.

Bu ibora davlat tomonidan tan olingan huquq bilan tartibga solingan nikoh ittifoqiga nisbatan o'rinlidir. Haqiqiy bo'lmagan nikoh qonunni bo'zib to'zilgan nikoh hisoblanib uning natijasida bir qator huquqiy oqibatlar kelib chiqishi mumkin.

Bunday nikoh to'zilgan kundan e'tiboran haqiqiy emas deb tan olinadi.

Nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan to'zilgan nikoh hali nikoh yoshiga yetmay nikohga kirgan shaxsning manfaatlari talab qilingan hollarda haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bunday nikohni haqiqiy emas deb topishni nikoh yoshiga yetmay nikohga kirgan shaxs uning ota-onasi yoki homiysi, shuningdek, vasiylik va homiylik organi hamda prokuror talab qilishga haqlidir.

Ish sudda hal qilinishi paytigacha er yoki xotin nikoh yoshiga yetmagan bo'lsa, nikoh faqat uning talabi bilan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Er-xotindan biri nikoh yoshiga yetmaganligi tufayli nikohni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi ish, agar er-xotin ish sudda ko'rilayotgan paytda nikoh yoshiga yetmagan bo'lsa, vasiylik va homiylik organining ishtirokida ko'rib chiqiladi. Nikoh to'zishga monelik qiladigan holatlar mavjud bo'lganida to'zilgan nikohni haqiqiy emas deb topilishi Oila kodeksining 52-moddasida mustahkamlangan.

Majburlab to'zilgan nikoh jabrlanuvchi yoki prakurorning arizasi bo'yicha haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Haqiqiy emas deb topilgan nikoh er-xotin uchun ushbu kodeksda belgilangan shaxsiy va mulkiy huquq hamda majburiyatlarni vujudga keltirmaydi. Nikohning haqiqiy emas deb topilishi unday nikohdan tug'ilgan yoki nikohning haqiqiy emas deb topilgan kundan keyin 100 kun ichida tug'ilgan bolalarning huquqlariga ta'sir etmaydi.

Sud nikoh nikohni haqiqiy emas topish to'g'risida hal qiluv qarori chiqarishda nikoh to'zulishi bilan huquqi bo'zulgan er (xotin) ni (insofli er(xotin)ni) ushbu kodeksning 118-119 moddalariga muvofiq xotin eridan ta'minot olish huquqiga ega deb topishga haqlidir, nikohni haqiqiy emas deb topish vaqtiga qadar birgalikda ortirilgan mol-mulkni bo'lishga nisbatan esa, ushbu kodeksning 23,27 va 28 – moddalarida belgilangan qoidalarini tadbiq etishga, shuningdek nikoh shartnomasini to'la yoki qisman haqiqiy deb topishga haqlidir.

Insofli er (xotin) o'ziga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni koplashni Fuqarolik qonun hujjatlarida nazarda to'atilgan qoidalar bo'yicha talab qilishga haqli.

Insofli er (xotin) nikohni haqiqiy emas deb topilganda nikoh to'zish davlat ro'yxatiga olingan vaqtda tanlangan familiyasini saqlab qolishga haqlidir.

Nikohni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi da'voni shaxsiy yoki jamoat manfaati bo'lgan shaxs qilishi mumkin. Bundaylar davrasiga nikoh to'zishi oqibatida huquqi bo'zilgan er yoki xotin, nikohlanuvchilarning ota-onalari, vasiylik va homiylik organ va prakuror kiradi.

Bundan tashqari, nikohni haqiqiy emas deb topishga er-xotinning tiriklik vaqtida ham (nikohdan ajralishdan farq qilib) ularning o'limidan sung ham yo'l qo'yiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Nikoh nima?
2. Nikohning huquqiy ahamiyati nimada?
3. Nikoh to'zish tartibi va shartlari deganda nimani tushunasiz?
4. Nikoh to'zish ixtiyoriyligi Oila Kodeksining nechanchi moddasida ko'rsatilgan?
5. Nikoh to'zish tartibi Oila Kodeksining nechanchi moddasida keltirilgan?
6. Nikohni qayd etish muddatlari va tartibini ketma-ket ayting?
7. Nikoh to'zishga monelik qiladigan holatlar nimalar?
8. Nikohni haqiqiy emas deb topish asoslari va tartibiga misol keltiring?
9. Nikohni haqiqiy emas deb topish qaysi organ tomonidan hal etiladi?
10. Oila qonunchiligida soxta nikoh deb nimaga aytiladi?

Adabiyotlar ro'yxati:

Rahbariy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir" Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabo'l qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi Ma'ruzasi. // Huquq va burch jurnali. 2009 – yil. № 12 son. 2-9 – betlar.
2. Karimov I.A. "O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir" Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabo'l qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi Ma'ruzasi. // Huquq va burch jurnali. 2009 – yil. № 12 son. 2-9 – betlar.
3. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T.8. -T., 2000 y.
4. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz. T.9. –T., 2001 y.
5. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun ko'rashmoq kerak. T.10 -T., 2002 y.
6. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008 - yil.
7. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: "O'zbekiston", 2009 – yil.
8. Karimov I.A.. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. "Xalq so'zi", 2007 - yil, 31 - avgust.

Maxsus adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar. 2009 – yil.
2. Saidov A, Tadjixanov U, Odilkoriyev X. "Davlat va huquq asoslari". T., "Sharq", 2002 - yil.
3. Z. Islomov, O. Xusanov, M. Mirhamidov. Huquqshunoslik. Ma'ruzalar matni. T., 2000 - yil.
4. F. Otaxujayev. "Nikoh va uni huquqiy tartibga solinishi". T., "O'zbekiston ", 2000 - yil.
5. O'zbekiston Respublikasi oila kodeksiga sharhlar. T., 2009 - yil.

Me'yoriy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston ", 2009 - yil.

2. O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi 1991 -yil 31 - avgust konstitutsiyaviy qonuni.
3. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy Dasturi.1997 - yil 27-avgust.
4. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. T., "Adolat", 2009 - yil.
5. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. T., "Adolat", 2009 - yil.
6. O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi qonuni. 2000 - yil 15.12.

4-Mavzu: Er va xotinning huquq va majburiyatlari.

Reja:

1. Er va xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlari.
2. Er va xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari.
3. Er va xotin mol-mulkining shartnomaviy tartibi.

Darsning maqsadi: Talabalarga er, xotin, ularning shaxsiy va mulkiy huquq va majburiyatlari to'g'risidagi bilimlarni berish.

Kutilayotgan natija: Talabalarining huquqiy savodxonligini oshirish, oila kodeksi me'yorlarini urganish, qo'llash malakalarini shakllantirish.

Dars uslubi: Munozara.

Tayanch tushunchalar: Teng huquqlilik, familiya tanlash huquqi, bolalar tarbiyasi, oila turmushi masalalari, mashg'ulot turlari, kasb tanlash, turar joy tanlash, umumiy mulkka egalik qilish, foydalanish, tasarruf qilish huquqi, nikoh shartnomasi.

4.1. Er va xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlari.

Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida ro'yxatga olingan paytdan boshlab, nikohni to'zganlar er-xotin deb hisoblanadilar va shu paytdan e'tiboran ular o'rtasida er-xotinlik huquq va majburiyatlari vujudga keladi.

Oila kuruvchilarning qonuniy nikoh munosabatiga kirishi ularning huquqiy holatini o'zgartirib yuboradi, nikoh tufayli ular «er», «xotin» deb nomlanib, ular o'rtasidagi munosabatlar faqatgina axlokiy qoidalar bilan emas, balki huquqiy normalar bilan ham tartibga solinadi.

Oilada er-xotin o'rtasidagi munosabat kanchalik barqaror bo'lsa, oila ham shunchalik mustahkam bo'ladi.

Qayd etilgan nikoh natijasida er-xotin o'rtasida shaxsiy va mulkiy huquq va majburiyatlar vujudga keladi.

Oilaviy munosabatlar er-xotinning shaxsiy huquqlari mulkiy huquqlariga nisbatan ustivor ahamiyatga ega bo'lib, ularning hajmi, mazmuni, harakteri, er va xotinning oilaviy huquqiy munosabatlarda qatnashuvchi sifatidagi huquqiy holatni belgilab beradi.

Oila kodeksining 19-22- moddalarida er va xotinning quyidagi shaxsiy huquqlari mustahkamlangan:

1. Oilada er va xotinning teng huquqliligi

Er va xotin oilada teng huquqlardan foydalanadilar va ular teng majburiyatlarga egadirlar.(19- modda)

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46- moddasiga ko'ra:

Xotin-qizlar shaxsiy va mulkiy masalalarda erkaklar bilan teng huquqlardan foydalanadilar va bob-baravar majburiyatlarga egadirlar. Amaldagi qonunlar er va xotinning rasmiy jihatidagina emas, balki amalda teng huquqliligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Oila huquqiga ko'ra er-xotin umumiy xo'jalik ishlarini birgalikda, o'zaro hamjixatlik asosida olib boradilar. Ular bir-birlariga ma'naviy yordam berib, ko'makdosh bo'lib yashaydilar, hamma masalalarni bamaslaxat hal qiladilar. Er-xotindan birining muntazam ravishda shaxsiy huquqlarni amalga oshirishga halakit berish, shaxsiy huquqlarni amalga oshirishni suiste'mol qilish nikohdan ajralishga olib kelishi mumkin (Misol: mashg'ulot turi yoki tanlashga halal berish).

2. Er va xotinning familiya tanlash huquqi

Nikoh to'zish vaqtida er va xotin o'z xohishi bilan eri yoki xotinining familiyasini umumiy familiya qilib tanlaydi yoki ularning har biri nikohgacha bo'lgan o'z familiyasini saqlab qoladi.

Er va xotindan birining o'z familiyasini o'zgartirishi boshqasining ham familiyasi o'zgarishiga olib kelmaydi. (20- modda)

Familiya tanlash huquqi er va xotinga tegishli bo'lganeng muhim shaxsiy huquqlardan biridir. Nikohga kiruvchilarga o'zaro kelishib familiya tanlash huquqi beriladi. Ular nikohgacha bo'lgan O'zbekiston familiyalarini saqlash huquqiga ega bo'lganlaridek, er-xotin hohishi bilan birining familiyasini umumiy familiya kilib tanlash huquqiga ham egadir. Er va xotinning familiya tanlash masalasi nikohni qayd etish vaqtida hal qilinishi lozim. Nikohga utuvchilarga ularning familiya tanlash huquqi nikohni qayd etuvchi mansabdor shaxsning vazifasi hisoblanadi. Qonunchilik tajribasida ba'zan qo'shma familiyalar ham uchraydi.

Nikohdan ajratish vaqtida ham er-xotinning familiyasi har birining shaxsiy talabiga binoan o'zgartilishi mumkin. Nikoh haqiqiy hisoblanmagan holda, nikohni to'zish vaqtida familiyasini o'zgartirgan shaxslarning nikohgacha bo'lganfamiliyalari tiklanadi. Lekin nikoh to'zishga monelik qiladigan holatlar borligini bilmagan shaxslar nikoh to'zish vaqtida qabo'l qilingan familiyalarini saqlash huquqiga egadirlar.

3. Er-xotinning bolalar tarbiyasi va oila turmushi masalalarini hal qilish

Bolalar tarbiyasi va oilaviy turmushning boshqa masalalarini er va xotin birgalikda hal etadilar. (21- modda)

Oilaviy turmushning hamma masalalari er-xotin tomonidan o'zaro rozilik asosida birgalikda hal etiladi. Bolalar tarbiyasi va oilaviy turmushning ayrim masalalarini hal qilishda o'rtada rozilik bo'lmasa, tegishla davlat organiga marojaat qilish yo'li bilan bu masala hal etiladi. Nizoning harakteriga qarab bunday ishlar sud tartibida, vasiylik va homiylik organida ko'rib chiqiladi. Misol: er-xotin o'rtasida bolalar tarbiyasiga oid nizolar, familiya yoki ism berish masalasidagi kelishmovchilik vasiylik va homiylik organi tomonidan hal qilinadi.

Bolalarning moddiy ta'minlash masalalari sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998 - yil 11 - sentyabrda «Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgannizolarni hal qilishda sudlar tomonidan qonunlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida»gi qarorga ko'ra «bolalarning tarbiyasi bilan bog'liq nizolarning sudlar tomonidan to'g'ri hal etilishi, ota-onalar huquqlarini muhofazasi, ota-onalarning o'z bolalari tarbiyasidagi ma'suliyatlarini oshirish muhim ahamiyatga ega»¹

4. Er va xotinning mashg'ulot turi, kasb va turar joy tanlash huquqlari. Er va xotinning har biri turi, kasb va turish hamda yashash joyini tanlashda erklidir. (22- modda)

Amaldagi qonunchilik er-xotinning oilaviy masalalarini birgalikda hal qilishdagi huquqlarni ta'minlashga qaratilgan. Oilada mashg'ulot turi, kasb tanlash masalalari kelishilgan holda hal qilinadi.

Er-xotindan har biri o'z qiziqishi, hislati, ijobiy qobiliyati, jismoniy rivojlanishiga qarab, o'ziga mos keladigan faoliyat turini tanlaydi. Er-xotinning erkin kasb tanlash huquqi qonun bilan mustahkamlangan.

Er-xotinning birga yashash bolalarni tarbiyalash, mustaqil oila qurish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Qonun har bir er-xotinga qayerda yashashni erkin hal qilish huquqini beradi, lekin nikohda bo'lishni aslo er-xotinning birga turish majburiyatini vujudga keltirmaydi. Er-xotinning turar joyiga qarab, ularning voyaga yetmagan farzandlarining turar joylari belgilanadi. Er va xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari «Oila» kodeksining V bobida mustahkamlangan.

Er-xotinning oilaviy munosabatlarda teng huquqliligi va bab-baravar majburiyatlarga ega ekanligi mulkiy munosabatlarda ham o'z ifodasini topadi. Er-xotinning mulkiy huquq va majburiyatlariga iqtisodiy mazmundagi masalalar kiradi. Masalan, er-xotinning umumiy

¹ . O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Axborotnomasi. Toshkent-1998 y. 3 son, 3-12- betlar

mulkiga nisbatan bo'lgan huquq va majburiyatlari, er-xotinning har birining alohida xususiy mulkiga bo'lgan huquq va majburiyatlari, o'zaro moddiy ta'minlashdagi aliment huquqi va majburiyatlari shular jumlasidandir.

4.2. Er va xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari

Er va xotinning nikoh davomida birgalikda orttirgan mol-mulk-lari, shuningdek nikoh qayd etilgunga qadar, bo'lajak er – xotinning umumiy mablag'lari hisobiga olingan mol – mulk-lari, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi.

Oila kodeksining 23- moddasi 2 bandi umumiy mulkning asosiy turlarini sanab beradi:

Ular jumlasiga,

- er va xotin har birining mehnat faoliyatidan;
- tadbirkorlik faoliyatidan;
- intellektual faoliyat natijalaridan orttirgan daromadlari;
- ular tomonidan olingan pensiyalar, nafakalar;
- maxsus maqsadga mo'ljallangan boshqa pul tulovlari (moddiy yordam summasi, mayib bo'lish yoki salomatligiga boshqacha zarar yetkazish okibatida mehnat qilish qobiliyatini yuqolganligi munosabati bilan yetkazilgan zararni koplash tarzida to'langan summalar) kiradi.

Er va xotinning umumiy daromadlari hisobiga olingan kuchar yoki kuchmas ashyolar, kimmatli kozoqlar, paylari, omonatlari, kredit muassasalariga yoki boshqa tijorat tashkilotlariga kiritilgan kapitaldagi ulushlari haqidagi er va xotinning nikoh davomida orttirgan har kanday mol-mulk-lari, ular er yoki xotindan birining nomiga rasmiylashtirilgan yoxud pul mablag'lari kimning nomiga yoki er va xotinning qaysi biri tomonidan kiritilgan bo'lishidan qat'iy nazar ular ham er va xotinning umumiy mol-mulki hisoblanadi.

Er va xotindan biri uy-ro'zgor ishlarini yuritish, bolalarni parvarish qilish bilan band bo'lgan yoki boshqa o'z rli sabablarga ko'ra mustaqil ish haqi va boshqa daromadga ega bo'lmagan taqdirda ham er va xotin umumiy mulkkanisbatan teng huquqqa ega bo'ladi.

Fermer xujaligi va dexkon xujaligi a'zolarining birgalikdagi mulki bo'lgan mol-mulka nisbatan er va xotinning egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlari fermer xujaligi va dexkon xujaligi to'g'risidagi qonunlar bilan belgilanadi.

Er va xotin ularning birgalikdagi umumiy mulki bo'lgan mol-mulka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishda teng huquqlarga egadir. Er va xotindan birining umumiy mol-mulkini tasarruf etish bilan bog'liq bitim to'zilganda bu harakat boshqasining roziligiga ko'ra amalga oshirilayotganini anglatadi. Er va xotindan birining umumiy mulkini tasarruf etish etish yo'zasidan amalga oshirgan bitimi boshqasining biriga roziligi bo'lmaganligi sababligina bildirgan talabiga binoan va faqat bitimni amalga oshirgan ikkinchi tomon amalga oshirilgan bitim yo'zasidan er (xotin) rozi emasligini oldindan bilgan holda yoki bilishi lozim bo'lganligi isbotlangan hollarda sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Er (xotin) o'zining nomiga rasmiylashtirilgan umumiy kuchmas mulkni tasarruf etish bo'yicha bitim to'zishi uchun xotin (er) ning notarial tartibda tasdiqlangan roziligini olishi lozim. Ko'rsatilgan bitimni to'zishga notarial tartibda tasdiqlangan roziligi olinmagan er yoki xotin mazkur bitim amalga oshirilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgankundan boshlab bir yil davomida bu bitim sud tartibida haqiqiy emas deb topilishini talab qilishga haqlidir.

Er va xotinning nikohga qadar o'ziga tegishla bo'lgan mol-mulki, shuningdek ulardan har birining nikoh davomida hadya, meros tarikasida yoki boshqa bepul bitimlar asosida logan mol-mulki ulardan har birining o'z mulki hisoblanadi.

Nikoh davomida er-xotinning umumiy mulki yoki ulardan har birining mol-mulki yoxud er va xotindan birining mehnat hisobiga mol-mulkning qiymati ancha oshishiga olib kelgan mablag'lar kushilgani aniqlansa, er yoki xotindan har birining mol-mulki ularning birgalikdagi mulki deb topilishi mumkin.

Er yoki xotindan faqat bittasiga tegishli bo'lganva u tomonidan tasarruf etiladigan mulk xususiy mulk hisoblanadi.

Xususiy mulkka quyidagilar kiradi:

- er yoki xotinning nikohga qadar faqat o'ziga tegishli bo'lganmulki (uy jihozlari, omonat kassasiga qo'yilgan pul, kimmatbaxo kogozlar);
- nikoh davomida hadya yoki meros tarikasida olgan mulklari;
- tuy sovg'alari, agar ular er yoki xotindan birining shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan bo'lsa;
- er yoki xotin tomonidan olingan Davlat mukofatlari va sovg'alar (Misol: oltin soat, mototsikl va boshqalar);
- er-xotinning nikoh to'zishga qadar olgan hadyalari (kelinning sepi va boshqalar).

Bu buyumlardan turmushda birgalikda foydalanishdan qat'iy nazar, ularning birgalikdagi umumiy mulki tarkibiga kirmaydi»¹.

Qimmatbaho buyumlar va zebu – ziynatlardan boshqa shaxsiy foydalanishdagi buyumlar (kiyim – bosh, payabzal va boshqa shu kabilar), garchi nikoh davomida ea va xotinning umumiy mablag'i hisobiga olingan bo'lsa ham, ulardan foydalanib kelgan er va xotinning xususiy mulki hisoblanadi.

Er va xotinning shaxsiy foydalanishida bo'lgankiyim bosh, payabzal va boshqa shu kabilar ularning xususiy mulklari hisoblanadi. Bunday mulklarni xususiy mulk deb hisoblash uchun ularning qaysi mablag' hisobiga harid qilinganligi hisobga olinmaydi. Mulkn er-xotinning xususiy mulki deb hisoblash uchun ularning o'sha er yoki xotinning shaxsiy foydalanishida bo'lganligi kifoya qiladi. Lekin shaxsiy foydalanishda bo'lganhamma buyumlar ham xususiy mulk hisoblanmaydi. Masalan: zeb-ziynat ashyolari umumiy mablag' hisobiga olingan bo'lsa, er-xotinning umumiy mulki hisoblanadi.

Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish er va xotindan birining talabiga ko'ra, ular nikohda bo'lgandavrida ham, nikohdan ajralishgandan keyin ham, shuningdek kreditor er va xotindan birining umumiy mol-mulki ulushiga unduruvni qaratish uchun umumiy mol-mulkn bo'lish talabi bilan arz qilgan hollarda amalga oshirilishi mumkin.

Er va xotinning umumiy mol-mulki er va xotin o'rtasida o'zaro kelishuv asosida bo'linib olinishi mumkin. Er va xotinning hohishi bilan ularning umumiy mol-mulkn bo'lish to'g'risidagi o'zaro kelishuvi notarial tartibda tasdiqlanishi mumkin.

Nizo tug'ilgan hollarda er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish, shuningdek er va xotinning bu mol-mulkidagi ulushini aniqlash sud tartibida amalga oshiriladi.

Umumiy mol-mulkn bo'lishda sud er va xotinning har biriga mulkning qaysi qismi berilishi lozimligini aniqlaydi. Er (xotin) ga unga qarashli ulushdan oshik kiymatga ega bo'lgan mol-mulk beriladigan hollarda, xotin (er) ga tegishli pul yoki o'zga kompensatsiya belgilanishi mumkin.

Oilaviy munosabatlar tugatilganda, sud er va xotin alohida yashagan davrda orttirgan mol-mulkn ularidan har birining o'z mulki deb topishi mumkin.

Voyaga yetmagan bolalar extiyojini kondirish uchun olingan buyumlar bo'linmaydi (kiyim-bosh, payabzal). Er va xotinning umumiy mol-mulki hisobidan o'rtadagi voyaga yetmagan bolalar nomiga qo'yilgan omonatlar o'sha bolalarga tegishli hisoblanib, er-xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish paytida e'tiborga olinmaydi.

Er va xotinning umumiy mol-mulki ular nikohda to'zgan davrda bo'lingan taqdirda, er va xotin mol-mulking bo'linmay qolgan qismi, shuningdek er va xotin tomonidan ular nikohda to'zgan davrda orttirilgan mol-mulk keyinchalik ularning birgalikdagi umumiy mulkini tashkil qiladi.

Nikohdan ajralgan er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish to'g'risidagi talablariga nisbatan uch yillik da'vo muddati kullaniladi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Оила кодексига шархлар, Тошкент 2000 й «Адолат» 63 бет.

Mulkni bo'lishda er-xotindan har biriga tegishli ulush ajratiladi. Agar er va xotin o'rtasidagi nikoh shartnomasida boshqacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, er va xotinning ulushlari teng deb hisoblanadi.

Biroq ma'lum holatlar mavjud bo'lganida sud teng bo'lishi tamoyilidan chekinishi mumkin. Bunga, er-xotinning voyaga yetmagan bolalarning manfaatlari talab etilsa, yo'l qo'yiladi. Ko'pincha bunday zarurat uyni yoki kvartirani bo'lishda vujudga keladi. Bolalar manfaatini hisobga olib sud mebel va uy-jihozlarini bo'linishida tenglik tamoyilidan chekinishi mumkin.

Agar er yoki xotinning biron e'tiborga loyiq manfaati talab kilsa, tenglik tamoyilidan chekinish mumkin. Bunday xodisalarning ro'yxati yangi qonunchilikda to'la-tukis burilgan. Birinchi navbatda, bu er xotindan o'zok muddat davomida o'zrsiz sabablarga ko'ra daromadlar olmagan bo'lsa, bu qoidani tadbiiq etishda juda extiyot bo'lish lozim. Bir tomondan mehnatga o'z qobiliyatini erkin tasarruf etishlik har bir fuqaroning konstitutsiyaviy huquqi hisoblanadi. Hech kim mehnat qilishga majbur etilmaydi yoki mehnat qilishdan bosh tortganligi uchun jazolanmaydi.

Er xotinning birgalikdagi umumiy mulkini bo'lishda er (xotin) ning topgan daromadini hisobga olmaslik favkuloddagi nohaqlik bo'lib hisoblanadi. Bunday holda er-xotinning bu faktga nisbatan munosabatini aniqlash ahamiyatiga ega. Er va xotinning umumiy mol-mulkini er (xotin) oila manfaatlariga zarar yetkazgan holda sarflangan bo'lsa, bu holat mulkni bo'lishda nazarga olinadi. Ko'pincha bunday mulkni sarflashga er-xotindan bittasining spirtli ichimlik ichishga yoki giyoxvand moddalarni iste'mol qilishga ruju qo'ygani sabab bo'ladi. Er-xotindan bittasining ogir kasal ekanligi yoki nogironligi ham sud tomonidan hissalar teng bo'linmasligiga sabab bo'lishi mumkin.

Hissalarni aniqlashda avval ideal hissalar, ya'ni huquq (masalan, uy-joyning egallashda 50%), keyin esa er bilan xotinning hohishi bo'yicha, amaliy asosda, qaysi ashyo er yo xotininga tegishliligi aniqlanadi. Sud ashyolarni bo'lishda, birinchi navbatda, er-xotinlarning o'z hohishlarini hisobga olib, qaysi ashyoni kimga berishni hal qiladi. Agar er-xotin o'zaro kelisha olmasalar, nizo sud orqali hal qilinadi.

4. Bo'linishi lozim bo'lgan ashyolardan tashqari er-xotinlarga tegishli bo'lgan, narsalarni talab qilish huquqi va ularning umumiy qarzlari ham bo'lishi mumkin.

Talab etish huquqi er-xotinlarga tegishli bo'lgankimmatbaxo kogozlarda (aksiyalar, davlat zayomi, beletlari, veksellarda) aks etishi mumkin. Talab eish huquqiga molik ashyolar mazkur mulkning aktivi tarkibiga qarab, boshqa mulklar qatori umumiy qoidalar asosida bo'linadi. Qarzarlar er-xotininga tegishli umumiy mulkning passivi hisoblanib, er-xotinlarga tegishli bo'lgan qarzlarga nisbatan mutanosib taqsimlanadi.

4.3. Er va xotin mol-mulking shartnomaviy tartibi

Nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo'lgan davrda va (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy va huquq va hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvi nikoh shartnomasi deb hisoblanadi.

Ilgari amalda bo'lgan oila qonunchiligida er va xotinning faqat qonuniy mulk tartibi ma'lum edi. Hozirgi vaqtda qonuniy mulk tartibini saqlab qolish bilan birga mulkning shartnomaviy tartibiga ham o'rin berildi. U nikoh shartnomasi deb yuritiladi.

Nikoh shartnomasiga ko'ra er va xotinning har ikkalasiga ham nikohda o'lgan davrlarida yoki nikohdan ajratilgan paytlarida o'z huquq va majburiyatlarini aniqlab olish imqoniyyati yaratiladi.

Nikoh shartnomasi fuqarolik huquqiy shartnomalarining turlaridan hisoblanadi. Faqatgina uni to'zishda qatnashuvchi taraflarning o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Nikoh shartnomasi faqat nikohdagi er va xotin o'rtasida to'ziladi va uning mazmunini tomonlarning mol-mulkka bo'lgan huquq va majburiyatlari tashkil etadi.

Nikoh shartnomasida ayol va erkak o'rtasidagi shaxsiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan shartlar haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olinguniga qadar ham, shuningdek nikoh davrida ham to'zilihi mumkin.

Nikoh davlat ro'yxatiga olingunga qadar to'zilgan nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Nikoh shartnomasi yozma shaklda to'ziladi va notarial tartibda tasdiqlanishi lozim. Bu qoidaga rioya qilmaslik shartnomani haqiqiy emas deb topish uchun asos bo'ladi.

Nikoh shartnomasini to'zish yoki to'zmaslik ixtiyoriy er – xotinning o'ziga tegishlidir. Nikoh shartnomasini to'zishda agar er (xotig) muomila layoqatiga ega bo'lmasa, u holda nikoh shartnomasini uning nomidan homiysi to'zadi.

Er va xotin nikoh shartnomasiga ko'ra birgalikdagi umumiy mulkning qonunda belgilangan (ushbu Kodeksning 23- moddasi) tartibini o'zgartirishga, er va xotinning barcha mol-mulkiga, uning ayrim turlariga yoxud er va xotindan har birining mol-mulkiga nisbatan birgalikdagi, ulushli yoki alohida egalik qilish tirtibini urnatishga haqlidir.

Nikoh shartnomasi er va xotinning mavjud mol-mulkiga nisbatan ham, bo'lgusi mol-mulkiga nisbatan ham to'zilihi mumkin.

Er va xotin nikoh shartnomasida o'zaro moddiy ta'minot berish, oila harajatlarini kutarish, bir-birining daromadida ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan mulkiy shartnomalar to'zish, birgalikda tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanish bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini belgilab olishga, nikohdan ajralganda er va xotindan har biriga beriladigan mulkni aniqlab olishga, shuningdek nikoh shartnomasiga er va xotinning mulkiy munosabatlariga oid boshqa ma'lumotlar kiritishga haqli.

Nikoh shartnomasida nazarda to'tilgan huquq va majburiyatlar muayyan muddat bilan cheklanishga yoki muayyan shart-sharoitning yo'zaga kelishi yoxud kelmasligiga bog'liq kilib qo'yilishi mumkin.

Nikoh shartnomasi er-xotinning huquq layoqati yoki muomala layoqati, ularning o'z huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilish huquqlarini cheklashni, er-xotin o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy munosabatlarni, er-xotinning bolalarga nisbatan bo'lganhuquq va majburiyatlarini tartibga solishni, mehnatga layoqatsiz ta'minot olishga er yoki xotinning huquqini cheklovchi qoidalarni, er va xotindan birini uta nokulay holatga solib kuyuvchi yoxud oila to'g'risidagi qonun hujjatlarining noarmalarigazid keluvchi boshqa shartlar nazarda tuta olmaydi.

Nikoh shartnomasi er-xotinning kelishuvi bilan istalgan vaqtda o'zgartilishi va bekor qilinishi mumkin. Nikoh shartnomasi kanday shaklda to'zilgan bo'lsa, uning o'zgartilishi yoki bekor qilinishi ham shunday shaklda amalga oshiriladi.

Nikoh shartnomasini bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga yo'l qo'yilmaydi. Nikoh shartnomasi er-xotindan birining talabi bilan O'zbekistoan Respublikasi Fuqarolik kodeksida belgilangan asoslar va tartibda sudning hal qiluv qarori bilan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

Nikoh tugatilgan paytdan boshlab nikoh shartnomasining amal qilishi ham tugaydi, nikoh shartnomasida nikoh tugatilganidan keyingi davr uchun nazarda to'tilgan majburiyatlar bundan mustasno.

Nikoh shartnomasi sud tomonidan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida nazarda to'tilgan asoslar bo'yicha to'la yoki qisman haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Nikoh shartnomasining shartlari ushbu Kodeks 31- moddasi beshinchi qismining talablariga zid kelsa, sud er-xotindan birining talabiga binoan nikoh shartnomasini to'la yoki qisman haqiqiy emas deb topish mumkin.

Er-xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari haqiqiy deb tan olingan shartnomaga asosan vujudga keladi. Haqiqiy deb tan olingan shartnomaning shartlari:

birinchidan, nikoh shartnomasining mazmuni qonunga xilof bo'lmasligi lozim. Shaxsiy nomulkiy bo'lgan munosabatlarni majburan bo'ysundirib kelishilishiga yo'l qo'yilmaydi;

ikkinchidan, er – xotin huquq va muomala layoqatiga ega bo'lishi kerak. Istisno sifatida nikoh to'zishga yo'l qo'yilgan shaxs muomala yoshiga to'lgan bo'lishi yoki to'lgan deb hisoblanishi kerak;

uchunchidan, nikoh shartnomasi notarial rasmiylashtirilishi shart;

to'rtinchidan, nikoh shartnomasi qatnashchilarining bayon etilgan xohishi uning haqiqiy hohishiga mos kelishi, ya'ni kelishuv to'g'ri tushunilib, uni to'zish ixtiyoriy asosda bo'lmog'i kerak.

Er (xotin) ning majburiyatlari bo'yicha haq undirish faqat uning mol-mulkiga qaratilish mumkin. Ushbu mol-mulk yetarli bo'lmagan taqdirda ham undirishni er-xotinning mol-mulkiga qaratish uchun kreditor qarzdor er (xotin) ulushini er-xotinning umumiy mol-mulkidan ajratib undirib berilishini talab qilishga haqlidir.

Agar sud er (xotin) ning majburiyatlari bo'yicha orttirilgan barcha ashyolar oila extiyojlari uchun ishlatilganligi aniqlansa, er-xotinning umumiy majburiyatlari bo'yicha, shuningdek er (xotin) ning majburiyatlari bo'yicha haq undirish er-xotinning umumiy mol-mulkiga qaratiladi. Bu mol-mulk yetarli bo'lmagan taqdirda er-xotin ko'rsatib o'tilgan majburiyatlar yo'zasidan ularning har biriga qarashli mol-mulk bilan sherik javobgar bo'ladilar.

Agar er-xotinning umumiy mol-mulki ularning biri tomonidan jinoiy yo'l bilan topilgan mablag' hisobiga orttirilgani yoki ko'paygan sud hukmi bilan aniqlangan bo'lsa, haqni undirish tegishli ravishda er-xotinning umumiy mol-mulkiga yoki uning bir qismiga qaratilishi mumkin.

Er-xotinning voyaga yetmagan bolalari yetkazgan zarar uchun javobgarligi fuqarolik qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Er (xotin) nikoh shartnomasi to'zayotgani, uni o'zgartirayotgani yoki bekor kilayotgani to'g'risida o'z kreditorini (kreditorlarini) xabardor qilishi shart. Ushbu majburiyatni bajarmagan taqdirda er yoki xotin, nikoh shartnomasi mazmunidan kat'i nazar, o'z majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'ladi.

Qarzdor er (xotin) ning kreditori (kreditorlari) sharoit jiddiy o'zgargani tufayli nikoh shartnomasining shartlari qonunda belgilangan tartibda o'zgartirish yoki bekor qilishni talab qilishga haqli.

Er-xotin qonunda yo'l qo'yiladigan barcha mulkiy-shartnomaviy munosabatlarga o'zaro kirishishga haqlidir.

Er-xotin o'rtasida to'zilgan, ulardan birining huquqlarini cheklashga qaratilgan kelishuvlar haqiqiy hisoblanmaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Er va xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlari Oila Kodeksining nechanchi bobida ko'rsatilgan?
2. Er va xotinlik huquq va majburiyatlari qachon vujudga keladi?
3. Er yoki xotinning shaxsiy huquqlariga nimalar kiradi?
4. Er yoki xotinning turar joy tanlash huquqi huquqning qaysi turiga mansub?
5. Er va xotinning familiya tanlash huquqi Oila Kodeksining nechanchi moddasida ko'rsatilgan?
6. Er – xotinning birgalikdagi umumiy mulki deb nimaga aytiladi?
7. Er yoki xotinning hadya tariqasida olgan mulklari qanday mulk turiga kiradi?
8. Er – xotinning umumiy mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish tartibini ayting.
9. Nizo tug'ilgan paytda er va xotinning umumiy mol – mulkini bo'lish qaysi organ tomonidan amalga oshiriladi?
10. Haqiqiy deb tan olingan shartnomaning shartlari?

Adabiyotlar ro'yxati:

Rahbariy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir" Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabo'l qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi Ma'ruzasi. // Huquq va burch jurnali. 2009 – yil. № 12 son. 2-9 – betlar.
2. Karimov I.A. "O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir" Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabo'l qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi Ma'ruzasi. // Huquq va burch jurnali. 2009 – yil. № 12 son. 2-9 – betlar.
3. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T.8. -T., 2000 y.
4. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz. T.9. -T., 2001 y.
5. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun ko'rashmoq kerak. T.10 -T., 2002 y.
6. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008 - yil.
7. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: "O'zbekiston", 2009 – yil.
8. Karimov I.A.. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. "Xalq so'zi", 2007 - yil, 31 - avgust.

Maxsus adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar. 2009 – yil.
2. Saidov A, Tadjixanov U, Odilkoriyev X. "Davlat va huquq asoslari". T., "Sharq", 2002 - yil.
3. Z. Islomov, O. Xusanov, M. Mirhamidov. Huquqshunoslik. Ma'ruzalar matni. T., 2000 - yil.
4. F. Otaxujayev. "Nikoh va uni huquqiy tartibga solinishi". T., "O'zbekiston ", 2000 - yil.
5. O'zbekiston Respublikasi oila kodeksiga sharhlar. T., 2009 - yil.

Me'yoriy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston ", 2009 - yil.
2. O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi 1991 -yil 31 - avgust konstitutsiyaviy qonuni.
3. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy Dasturi. 1997 - yil 27-avgust.
4. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. T., "Adolat", 2009 - yil.
5. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. T., "Adolat", 2009 - yil.
6. O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi qonuni. 2000 - yil 15.12.

5- Mavzu: Nikohning bekor bo'lishi

Reja:

1. Nikohning tugatilish asoslari.
2. Nikohdan ajratish tartibi va asoslari.
3. Nikohdan ajratish to'g'risida hal qiluv qarorini chiqarish vaqtida sud tomonidan hal etiladigan masalalar.

Darsning maqsadi: Talabalarda nikohning tugatilish asoslari, nikohdan ajratish tartibi va asoslari, nikohdan ajratish to'g'risida hal qiluv qarorini chiqarish vaqtida sud tomonidan hal etiladigan masalalar to'g'risida tushuncha va bilim berish.

Kutilayotgan natija: Talabalarning huquqiy savodxonligini oshirish, oila kodeksi me'yorlarini urganish, qo'llash malakalarini shakllantirish.

Dars uslubi: Munozara.

Tayanch tushunchalar: Nikohning tugatilishi, nikohdan ajratish, nikohdan ajratish to'g'risida hal qiluv qarori, nikohning tugatilish vaqti, sud tartibida ajralish, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida nikohdan ajratish, nikohdan ajratish to'g'risida hal qiluv qarori chiqarishda davlat boji to'lash.

5.1. Nikohning tugatilish asoslari.

Er – xotindan birining vafoti yoki sud ulardan birini vafot etgan deb e’lon qilishi oqibatida nikoh tugaydi

Nikoh er – xotindan biri yoki har ikkalasining arizasiga muvofiq nikohdan ajratish yo’li bilan, shuningdek sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan er yoki xotinning vasiysi bergan arizaga muvofiq tugatilishi mumkin.

Nikohning tugatilishi deyilganda, aniq sharoitdagi xodisa va boshqa yuridik faktlar: vafot etishi, sud ulardan birini vafot etgan deb e’lon qilishi nikohdan ajratish tufayli er-xotin o’rtasidagi munosabatlarning tugatilishi tushiniladi. O’zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 37- moddasi 1- qismida nikoh tugatilishining ikki asosi: er-xotindan birining vafot etishi va ulardan birining vafot etgan deb e’lon qilinishi keltiriladi.

Vafot etish yuridik fakt bo’lib er-xotinning o’rtasidagi munosabatini tugallaydi. SHuning uchun nikohning tugallanishini maxsus ravishda rasmiylashtirish talab qilinmaydi, er-xotindan bittasining vafoti to’g’risidagi tibbiy muassasaning yoki ulganlik faktini isbotlaydigan boshqa ma’lumotlar Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga vafot etganlik to’g’risida guvohnoma berish uchun asos bo’ladi.

Er-xotindan birini sudning hal qiluv qaroriga asosan vafot etgan deb e’lon qilish, o’z huquqiy okibati bo’yicha, ulimga tenglashtiradi.

SHuning uchun, vafot etgan deb e’lon qilish bilan uning er yoki xotini o’rtasidagi nikoh ham tugallanadi. Bunday holda tirik bo’lgantamon yangi yangi nikohga utish xukikiga ega bo’ladi.

Oila kodeksining 37-moddasi 2 bandiga muvofiq er-xotindan birining yoki har ikkisining arizasiga ko’ra nikohdan ajratish yo’li bilan, shuningdek sud tamonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan er yoki xotinning vasiysi bergan arizaga muvofiq tugatilishi lozim.

Demak,:

1. er-xotindan birining arizasiga ko’ra;
2. er-xotinning har ikkisining birgalikdagi arizasiga ko’ra;
3. sud tamonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan er yoki xotinning vasiysi arizasiga ko’ra nikohdan ajralish holati yo’z beradi.

Nikohdan ajralish er-xotin o’rtasidagi huquqiy munosabatlarni kelajak vaqt uchun tugatishga asos bo’ladi. Nikohdan ajralish va nikohni haqiqiy emas deb topish bir-biridan fark qiladi.

Amaldagi Oila Kodeksi nikohdan ajratishning ikki tartibini belgilaydi:

- sud tartibi bo’yicha;
- qonun hujjatlarida ko’rsatilgan asoslarda Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish idoralarida.

Nikohdan ajratish to’g’risidagi ishlar sud tamonidan O’zbekiston Respublikasi Oila va Fuqarolik-protsessual kodekslarida da’vo ishlarini hal qilish uchun belgilangan tartibda kuriladi.

Nikohdan ajralish to’g’risidagi da’vo er-xotin yashab turgan joydagi tuman (shahar) sudida ko’zgatiladi. Agar er – xotin boshqa – boshqa joyda yashasa, da’vo javobgar er yoki xotin turgan joydagi Xalq sudida qo’zg’atiladi, agar ularning turar joyi noma’lum bo’lsa, nikohdan ajralish to’g’risidagi ariza javobgarining oxirgi yashab turgan joyidagi sudga topshiriladi.

Nikohdan ajralish to’g’risidagi arizada nikohdan ajralish uchun asos ko’rsatilishi lozim. Ajralishni keltirib chiqargan sabablar batafsil ko’rsatiladi. Ariza berish bilan bir vaqtda davlat boji to’lanishi kerak.

Nikohdan ajralish ishlari ochik sud majlisida kuriladi. Ajralish to’g’risidagi ish er-xotinning arizasiga muvofiq, zarur xillarda sudning ajrimiga asosan yopiq sud majlisida kurilishi mumkin.

Xotinning homiladorlik vaqtida va bola tug'ilganidan keyin bir yil mobaynida er xotinning roziligisiz nikohdan ajratish to'g'risida ish qo'zg'atishga haqli emas.

5.2. Nikohdan ajratish tartibi va asoslari.

Nikohdan ajratish to'g'risidagi ishlar sud tomonidan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik – protsessual kodeksida da'vo ishlarini hal qilish uchun belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

Sud ishning ko'rilishini keyinga qoldirib, er – xotinga yarashish uchun olti oygacha muhlat tayinlashga haqli.

Nikohdan ajralish ishlarini qurishda sud o'z faoliyatini er-xotinni yarashtirishga va oilaviy vaziatni sog'lomlashtirish choralari qurishga qaratadi.

Sud yarashtirish uchun berilgan muddatda, er-xotinni yarashtirish maqsadida ular yashab turgan joydagi o'z-o'zini boshqarish organlariga, mahalla oksokollari kengashiga, xotin-qizlar kumitalariga ularni yarashtirish choralari qurishni tavsiya etib, ajrim no'shalarini yuborishi mumkin.

Ishni qurish boshqa vaqtga qoldirayotganda, beriladigan muhlat er-xotinning o'zaro munosabatlarini va ularning yashab ketish imqoniyatlarini hisobga olgan holda belgilanishi lozim.

Oilani saqlab kolish manfaati yo'zasidan, sud ishni qurishni ikkinchi marta qoldirishga va er-xotinning yarashishi uchun qonunda ko'rsatilgan olti oylik muhlatni yana kayta belgilashi mumkin.

Yarashtirish uchun muhlat berish haqidagi ajrim, ish holatlari tekshirilgandan keyin va sudga murojaat qilishga olib kelgan haqiqiy asoslar aniqlanganidan keyin chikariladi.

Sud er-xotinning ajrimi to'g'risidagi ishlarini kurganida ajralishning haqiqiy sabablarini aniqlash, o'zining butun faoliyatini, oilani saqlab qolishga va uni mustahkamlashga, onalik va bolalik manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan chora va tadbirlarni qurishi lozim.

Sud amaliyotini urganish natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, er va xotin nikohdan ajralishi uchun quyidagi asoslarni ko'rsatadi:

- er-xotindan birining doimiy spirtli ichimliklar iste'mol qilishi;
- oiladagi janjallar;
- er-xotinlik munosabatiga xiyonat qilish;
- farzandsizlik;
- oilaviy ishlarga qarindoshlarning aralashuvi;
- o'zok muddat birga yashamaslik;
- er-xotindan birining kasalligi;

Agar er yoki xotin tamonidan keltirilgan asoslar yetarli bo'lmasa, u holda sudlar nikohdan ajralish da'vosini rad etish to'g'risida hal qiluv qarorini chikaradi.

Quyidagi hollarda sud nikohdan ajratish ishlarini sud tartibida ko'radi.

- er-xotindan biri nikohdan ajralishga rozi bo'lmasa;
- ular o'rtasida voyaga yetmagan, umumiy bolalari bo'lib, ularni kimda qoldirish va ta'minoti uchun aliment undirish to'g'risida nizo bo'lsa;
- er-xotin o'rtasida mkexnatga layoqatsiz, muxtoj er yoki xotinga aliment undirish va uning mikdori haqida masala bo'lsa;
- birgalikda topilgan umumiy mulkni bo'lish bo'yicha nizo vujudga kelgan bo'lsa;

Voyaga yetmagan bolalari bo'lmagan er-xotin nikohdan ajralishga o'zaro rozi bo'lsalar, ular nikohdan Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida ajratiladi. Demak, quyidagi asoslarga ko'ra nikohdan Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish idoralarida ajratiladi:

1. er-xotinning har ikkalasining roziligi;
2. er-xotinning farzandlari yukligi;
3. voyaga yetmagan, umumiy bolalarning yukligi;
4. mulkiy nizo bo'lmaganida:

Er-xotindan birining arizasiga ko'ra Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida nikohdan ajratish asoslari quyidagilar bo'lishi mumkin:

1. er-xotindan birining bedarak yuqolgan deb topilishi;
2. er-xotindan biri sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganida;
3. sodir qilgan jinoyati uchun uch yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan bo'lsa;

Uch yildan kam muddatga ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilingan shaxslar bilan nikohdan ajralish haqidagi ishlar, sudlovga tegishliligi bo'yicha, umumiy qoidalarga rioya qilingan holda kurilishini sudlar alohida nazarda tutadi.

Agar sud er va xotinning bundan buyon birgalikdagi yashashiga va oilani saqlab qolishga imqoniyat yo'q deb topsa, ularni nikohdan ajratadi.

Amaldagi qonunchilik ona hamda bolalarning sogligini himoya qilish maqsadida erga xotinning xomiladorlik vaqtida va bola tug'ilganidan keyin bir yil mobaynida nikohdan ajralish to'g'risida xotinning rozilgisiz ish ko'zgatishni ta'qiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Plenumining 1998 - yil 11 - sentyabrdagi «Sudlar tomonidan nikohdan ajratish haqidagi ishlarni qurishda qonunlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida» gi qarorida ko'rsatilishicha «Bolaning otasi qayd etilmagan hollarda ham er bola tug'ilganidan keyin bir yil mobaynida xotinning rozilgisiz nikohdan ajralish to'g'risida da'vo ko'zgatishga haqli emas, ...»

Nikohdan ajralish to'g'risidagi ishni ko'zgatish uchun xotinning roziligi bo'lmasa, sud da'vo arizasini qabo'l qilishni rad etadi, agar ariza qabo'l qilingan bo'lsa, ish yurgizishni tugatadi. Chunki asosiy maqsad ona va bolaning solomatligini muxofaza qilish.

Xotin xomiladorlik vaqtida yoki bola bir yoshga to'lguncha nikohdan ajralish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

1. er va xotinning birgalikda yozgan arizasi;
2. xotin urning da'vo arizasiga rozi bo'lishi;
3. arizaning xotin tomonidan berilishi.

5.3. Nikohdan ajratish to'g'risida hal qiluv qarorini chiqarish vaqtida sud tomonidan hal etiladigan masalalar.

Nikohdan ajratish to'g'risida hal qiluv qarori chiqarish vaqtida sud tomonidan hal etiladigan masalalar O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksining 44 - moddasida va O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga sharhlarda shu moddaga berilgan sharhlarda quyidagicha belgilanadi¹.

Nikohdan sud tartibida ajratilayotganda er va xotin voyaga yetmagan bolalari kim bilan yashashi, bolalarga va mehnatga layoqatsiz, yordamga muxtoj er yoki xotinga ta'minot berish uchun mablag' to'lash tartibi, bu mablag'ning mikdori yoxud er-xotinning umumiy mol-mulkini bo'lishga doir kelishuvni ko'rib chikish uchun sudga taqdim qilishlari mumkin. Yuqorida keltirilgan masalalar bo'yicha er va xotin o'rtasida kelishuv bo'lmagan taqdirda, shuningdek ushbu kelishuv bolalar yoki er-xotindan birining manfaatlariga zid ekanligi aniqlangan taqdirda sud: - nikohdan ajratilgandan keyin voyaga yetmagan bolalar ota-onasining qaysi biri bilan yashashini aniqlashi;

- voyaga yetmagan bolalarga ta'minot berish uchun ota-onaning qaysi biridan va kancha mikdorda aliment undirilishini aniqlash;

- er va xotinning talabiga ko'ra ularning birgalikdagi mulki bo'lganmol-mulkni aniqlash;

- er (xotin) dan ta'minot olishga haqli bo'lgan xotin (er) ning talabiga ko'ra, ana shu ta'minot miqdorini belgilash shart.

Mol-mulkni bo'lish uchun uchinchi shaxslarning manfaatiga daxldor bo'lgan hollarda sud mol-mulkni bo'lish talabini alohida ish yuritish uchun ajratadi.

Nikohdan ajratish to'g'risidagi ish ko'rib chiqilayotganida to'yni o'tkazishga ketgan sarf – harajatlarni undirish haqidagi talablar qanoatlantirilmaydi.

Voyaga yetmagan bolalar ota – onasining qaysi biri bilan yashashi, ularning qaysi biridan va qancha miqdorda aliment undirish masalalarini hal qilishda sud birinchi navbatda bolalar manfaatini hisobga olishi kerak.

Voyaga yetmagan bolalar uchun undiriladigan aliment miqdori sud tomonidan qonunda belgilangan hajmda ota – onaning har oydagi ish haqi va (yoki) boshqa daromadlaridan hissa barobarida undiriladi.

Er – xotinning umumiy mol – mulkini bo'lishda sud er va xotinning har biriga mulkning qaysi qismi berilishi lozimligini aniqlaydi.

YOrdamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er yoki xotinga aliment to'lash hajmi va shartlari sud tomonidan belgilanadi. Bu masalani sud faqat mehnatga layoqatsiz er yoki xotinning talabi bo'yicha ko'radi.

Sud nikohdan ajratish haqida hal qiluv qarorini chiqarish paytida nikohdan ajratish to'g'risidagi hal qiluv qaroridan nusxa berilayotganda er-xotinning har ikkalasidan undirishni lozim deb topsa, ulardan har biri to'laydigan boj miqdorini belgilaydi. Agar sud bu bojni er – xotinning har ikkalasidan undirishni lozim deb topsa, ularning har biri to'laydigan boj miqdorini belgilaydi.

Bunday paytda, sud ularning har birining moddiy ahvolini, oilaning barbod bo'lishidagi aybi darajasini va boshqa muayyan holatlarni inobatga oladi.

Nikohga kirish vaqtida o'z familiyasini o'zgartirgan er (xotin) nikohdan ajratilgandan keyin ham shu familiyada qolishga haqli, yoki uning hohishiga ko'ra sud tomonidan nikohdan ajratish to'g'risidagi qaror chikarilayotganda unga nikohgacha bo'lgan familiyasi kaytarilishi mumkin.

Familiyaga bo'lgan huquq er va xotinning shaxsiy huquqi bo'lib, uni o'zgartirish faqat familiya egasining ixtiyori bilan amalga oshiriladi.

Agar nikohdan ajratish, masalasi FXDYO organi tomonidan hal qilinayotgan bo'lsa, er – xotinning arizasiga muvofiq, familiyani o'zgartirish masalasi ham FXDYO organi tomonidan hal qilinadi.

Nikohdan ajratilganda nikohning tugatilish vaqti Oila kodeksining 47- moddasi bilan belgilanadi.

Nikohdan Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida ajratilganda Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organida nikohdan suda ajratilganda esa, sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab nikoh tugatiladi.

Nikohdan ajratish to'g'risidagi sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori nusxasi nikohdan ajratilganlik to'g'risidagi guvohnomaga tenglashtiriladi.

Hal qiluv qaroridan nusxa berishda davlat boji undiriladi, pasportga yoki shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjatga nikohdan ajratilganlik to'g'risidagi belgi qo'yiladi, ya'ni shtamp qo'yiladi. Bunda nikohdan ajralish qaysi FXDYO organi tomonidan kachon amalga oshirilganligi ko'rsatiladi.

Nikohdan ajratish to'g'risidagi sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab 10 kun ichda sud nikoh to'zilganligi ro'yxatga olingan joydagi Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga ushbu qarordan ko'chirma yuborilishi shart.

Qonunda, nikohdan ajratilganda nikohning tugatilish vaqtini aniq belgilash muhim yuridik ahamiyatga ega, chunki bu bilan er – xotin o'rtasidagi har xil munosabatlarning tugallanganligi yoki bunday munosabatlarning jiddiy o'zgarganligi yoxud yangi munosabatlar vujudga kelganligi, masalan, nikohdan ajratish fakti tufayli sobiq er (xotin)ning qonuniy manfaatlari bilan bog'liq huquqlarni himoya qilish va boshqalar vujudga kelganligini bildiradi.

Sud tomonidan vafot etgan deb e'lon qilingan yoki bedarak yo'yalgan deb topilgan er (xotin) qaytib kelgan va tegishli sud qarorlari bekor qilingan hollarda nikoh er – xotinning birgalikdagi arizasiga ko'ra fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi tomonidan tiklanishi mumkin.

Agar er (xotin) yangi nikohga kirgan bo'lsa nikohga kirgan bo'lsa nikohni tiklash mumkin emas.

Ushbu kodeksning 37 – moddasiga binoan, er – xotin ikkovidan birin vafot etgan deb e'lon qilish oqibatida nikoh tugaydi. Vafot etgan yoki bedarak yo'qolgan deb topilgan shaxsni qaytib kelishligi tufayli kelib chiqadigan huquqiy oqibatlarni tartibga solishga bag'ishlanadi.

Vafot etgan yoki bedarak yo'qolgan shaxs kelib qolganida yoki uning yashab turgan joyi aniqlanganida sud vafot etgan yoki bedarak yo'qolgan deb topish to'g'risidagi hal qiluv qarorini bekor qiladi. Sudning bu yangi qaroriga asosan, nikoh er – xotinning birgalikdagi arizasiga ko'ra fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi tomonidan tiklanishi mumkin.

Fuqaroning sud tomonidan vafot etgan yoki bedarak yo'qolgan deb topish tartibi fuqarolik qonunlari bilan belgilanadi. (FKning 33-36 moddalari) .

Nikoh er – xotinning faqat birgalikda bergan arizasiga ko'ra tiklanishi mumkin. Buning uchun er (xotin) qaytib kelgan yoki uning yashab turgan joyi aniqlangan bo'lishi kerak. Bunday holda sudning avvalgi qarorini bekor qiluvchi yangi sud qarori qabo'l qilinishi talab etiladi.

Ushbu qoidaning kiritilishiga sabab, avvalgi qoidagi muvofiq ko'p vaqt yuandan sung nikohning bexosdan tiklanishi, ikkinchi taraf er yoki xotinni mushkul ahvolga solib qo'yardi. Yangi qonunga binoan nikohni tiklash uchun ikkinchi tarafning roziligi bo'lishi talab qilinadi.

Agar er (xotin) yangi nikohga kirgan bo'lsa, avvalgi nikohni tiklash mumkin emas. Agar er (xotin) yangi nikohga kirgan bo'lmasa nikoh er – xotinning birgalikdagi arizasiga asosan FXDYO organi tomonidan tiklanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Nikohning tugatilish asoslari Oila Kodeksining nechanchi moddasida ko'rsatilgan?
2. Qanday holatlarda nikoh tugagan hisoblanadi?
3. Er va xotinning birining vafoti nikoh tugaganligiga asos bo'ladimi?
4. Nikohdan ajratish tartibini ayting
5. Nikohdan ajratishning qanday tartibini bilasiz?
6. Erning nikohdan ajratish to'g'risida talab qo'yishini mann etadigan hollar.
7. Sud er – xotinning yarashishiga doir qanday ishlarni amalga oshirishi kerak?
8. Qanday holatlarda nikohdan ajratish sud tartibida ko'rib chiqilishga asos bo'ladi?
9. Er – xotinlar ajralish uchun qanday asoslarni ko'rsatib o'tishi mumkin?
10. Qanday holatlarda nikohdan ajratish fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida amalga oshiriladi?
11. Nikohdan ajratish to'g'risida hal qiluv qarori chiqarish vaqtida sud tomonidan hal etiladigan masalalar
12. Sudning nikohdan ajratish to'g'risida hal qiluv qarorini chiqarishida davlat boji miqdori qanday tartibda belgilanadi?
13. Nikohdan ajratilganda er (xotin) o'z familiyasini o'zgartirishga haqlimi?
14. Nikohdan ajratilganda nikohning tugatilish vaqti.
15. Sud tomonidan bedarak yo'qolgan yoki vafot etgan deb e'lon qilingan er (xotin)ning qaytib kelgan taqdirda nikohi tiklanadimi?

Adabiyotlar ro'yxati:

Rahbariy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. “O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir” Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabo'l qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi Ma'ruzasi. // Huquq va burch jurnali. 2009 – yil. № 12 son. 2-9 – betlar.
2. Karimov I.A. “O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir” Prezident Islom Karimovning

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabo'l qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi Ma'ruzasi. // Huquq va burch jurnali. 2009 – yil. № 12 son. 2-9 – betlar.
3. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T.8. -T., 2000 y.
 4. Karimov I.A.Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz. T.9. –T., 2001 y.
 5. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun ko'rashmoq kerak.T.10 -T., 2002 y.
 6. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: “Ma'naviyat”, 2008 - yil.
 7. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi,O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: “O'zbekiston”, 2009 – yil.
 8. Karimov I.A.. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. “Xalq so'zi”, 2007 - yil, 31 - avgust.

Maxsus adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar. 2009 – yil.
2. Saidov A, Tadjixanov U, Odilkoriyev X. "Davlat va huquq asoslari". T., "Sharq", 2002 - yil.
3. Z.Islomov, O.Xusanov, M.Mirhamidov. Huquqshunoslik. Ma'ruzalar matni. T., 2000 - yil.
4. F.Otaxujayev. "Nikoh va uni huquqiy tartibga solinishi". T., "O'zbekiston ", 2000 - yil.
5. O'zbekiston Respublikasi oila kodeksiga sharhlar. T., 2009 - yil.

Me'yoriy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston ", 2009 - yil.
2. O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi 1991 -yil 31 - avgust konstitutsiyaviy qonuni.
3. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy Dasturi.1997 - yil 27-avgust.
4. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. T., "Adolat", 2009 - yil.
5. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. T., "Adolat", 2009 - yil.
6. O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi qonuni. 2000 - yil 15.12.

6- Mavzu: Qon-qarindoshlik va bolalarning nasl-nasabini belgilash.

Reja:

1. Qarindoshlik tushunchasi.
2. Bolalarning nasl-nasabini belgilash asoslari.
3. Otalikning sud tartibida belgilash tartibi.

Darsning maqsadi: Talabalarga Qon-qarindoshlik va bolalarning nasl-nasabini belgilash to'g'risidagi bilimlarni berish.

Kutilayotgan natija: Talabalarining huquqiy savodxonligini oshirish, oila kodeksi me'yorlarini urganish, qo'llash malakalarini shakllantirish.

Dars uslubi: Munozara

Tayanch tushunchalar: Teng huquqlilik, familiya tanlash huquqi, bolalar tarbiyasi, oila turmushi masalalari, mashg'ulot turlari, kasb tanlash, turar joy tanlash, umumiy mulkka egalik qilish, foydalanish, tasarruf qilish huquqi, nikoh shartnomasi.

6.1. Qarindoshlik tushunchasi.

Bir umumiy uchinchi shaxsdan (ajdoddan) kelib chiqqan shaxslar qarindoshlar hisoblanadi. Ikki shaxs o'rtasidagi to'g'ri shajara bo'yicha qarindoshlikning yaqinligi qarindoshlik darajasi, ya'ni tug'ilish soni bilan belgilanadi.

Bolalar ota-onasiga nisbatan to'g'ri shajaradagi birinchi, nevara bobosiga, buvisiga nisbagan - ikkinchi, evara katta bobosiga, katta buvisiga nisbatan uchinchi darajadagi qarindosh hisoblanadi va xokazo.

Aka-uka, opa-singil, ularning bolalari, ota-onaning, aka-uka va opa-singillari hamda ularning bolalari, bobo va buvilarning aka-uka hamda opa-singillari va ularning bolalari va shunga uxshashlar yon shajara bo'yicha qarindoshlar hisoblanadi va xokazo.

To'g'ri shajara bo'yicha qarindoshlar yon shajara bo'yicha qarindoshlarga nisbatan yaqinrokdir.

Ikki shaxs o'rtasida qarindoshlikning o'zok-yakinligini aniqlashda, darajalarning soni yoki shu shaxslardai birining o'zini hisobga qo'shmay turib, undan kelib chiqqan avlodlar soni hisobga olinadi.

Hisob ajdodlar tomon to'g'ri shajara bo'yicha ular uchun umumiy bo'lgan shaxsga (ajdodga) harab va undan esa, avlodlar tomon - ulardan boshqasiga harab olib boriladi.

Tugishgan aka-uka va opa-singil qarindoshlikning ikkinchi darajasida, toga va amaki, amma va hola o'z jiyanlari bilan qarindoshlikning - uchinchi, togavachcha, amakivachcha, amnavachcha va holavachchalar esa - turtinchi darajasida turadilar.

Oila huquqi yuridik faktlar ichida qarindoshlik eng asosiy urinlardan birini egallaydi. Biri ikkinchisidan yoki umumiy ajdoddan tarkalgan shaxslar o'rtasidagi kondosh bog'liqlik qarindoshlikdir. Ajdodlar va ularning erkak va ayol jinsidagi avlodlari - masalan, katta bobo, bobo, ona, o'g'il, nabira, evara va boshqalar - biri ikkinchisidan kelib chiqqan kisoblanadi.

Umumiy ajdoddan kelib chiqqan deb opa-singillar, aka-ukalar, amakilar va ammalar, togalar va holalar, amakivachchalar va amnavachchalar, togavachchalar va holavachchalar, jiyanlar va boshqalar hisoblanadi.

Qarindoshlikning o'zok-yakinligi qarindoshlik darajasini aniqlash yo'li bilan belgilanadi. Qarindoshlik darajasi - ikki qarindosh shaxsni o'zaro boglab turuvchi tug'ilishlar soni, ya'ni, boshqacha aytganda, ikki shaxs o'rtasida qarindoshlik vujudga kelishi uchun zarur bo'lgan tug'ilishlar sonidir. Tug'ilishlar soni hisoblanayotganda qarindoshlik darajasi aniqlanayotgan shaxsning tug'ilishi hisobga olinmaydi. Masalan, ona va o'g'il o'zaro birinchi darajali qarindoshdirlar. Buvi va nabira esa ikkinchi darajali qarindoshlar hisoblanadi. CHunki nabira tug'ilishi uchun oldin o'g'il (qiz) tug'ilishi lozim.

Sharhlanayotgan moddaning turtinchi qismida to'g'ri shajara bo'yicha qarindoshlar yon shajara bo'yicha qarindoshlarga nisbatan yaqinrokdir deb ta'kidlandi. Bunday ta'rif merosxurlarni aniqlashda, qarindoshlik darajasini belgilash kiyin bo'lgan hollarda ayniksa juda muhimdir.

Qarindoshlikning aniqlanishi shaxsning qarindoshlar qatoriga kirishini belgilaydi, uning to'g'ri va yon shajaraga nisbatan huquqiy maqomini aks ettiradi. Bu hol O'rta Osiyo xalqlari uchun doimo muhim ma'naviy va huquqiy ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ma'naviy tomondan bu kishining cheksiz tug'ilishlarga asoslangan, bir dinga e'tikod qiluvchi, bir xil an'analar va turmush tarziga urgangan muayyan avlodga tegishli ekanligini anglatadi. Bir avlodga tegishlilik masalalari tarixiy ahamiyatga ham ega, chunki ular o'z ajdodlarini yodda saqlovchi har bir kishi uchun muhim bo'lgan shajara ildizlarini aks ettiradi.

Oila huquqida qarindoshlar o'rtasidagi aloqalar masalasi alohida o'rin tutadi. OK qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlarni me'yorlab qo'ygan: ya'ni qarindoshlar o'rtasida nikoh ta'qiqlanadi, otalik aniqlanadi, alimentlar undiriladi, qarindoshlarga bola bilan muloqot qilish huquqi beriladi va xokazo.

Aka-uka va opa-singillar yot aralashmagan va yot aralashgan qarindosh bo'lishi mumkin. Aka-uka va opa-singillar bir ota-onadan kelib chiqqan bo'lsa, yot aralashmagan, ota bir ona boshqa yoki aksincha, ona bir ota boshqa bo'lsa, yot aralashgan qarindosh hisoblanadi. Yot aralashmagan qarindoshlikka aka-uka va opa-singillar tugishgan, yot aralashgan qarindoshlikda esa, aka-uka va opa-singillar ugay hisoblanadi.

Er-xotinning ilgarigi nikohlaridan bo'lgan bolalari o'zaro qarindosh hisoblanmaydi.

Aka-uka va opa-singillar bir ota-onadan kelib chiqqan bo'lsa, yot aralashmagan, ota bir ona boshqa yoki aksincha - ona bir ota boshqa bo'lsa, yot aralashgan qarindosh kisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, ugay aka-ukalar va ugay opa-singillarning yo otasi, yo onasi

bir bo'ladi. Agar aka-ukalar va opa-singillar bir otadan dunyoga kelgan bo'lsalar, ular qoni bir-hisoblanadilar, bir onadan tug'ilgan bo'lsalar bir korindan tushgan hisoblanadilar. Yot aralashgan qarindoshlik xuddi yot aralashmagan qarindoshlikdagi kabi huquqiy oqibatlarni keltirib chiharadi (masalan, ugay aka (uka) yoki ugay opa (singil) vafot etgandan sung meros olishda yoki ulardan aliment undirishda).

Yot aralashgan aka-ukalar va opa-singillarni o'gay aka-ukalar va opa-singillardan ajrata bilish lozim. O'gaylar - bir oilada yashovchi, lekin otasi ham, onasi ham bir bo'lmagan bolalardir. Er va xotinning avvalgi nikohdan (yoki nikohsiz) orttirgan bolalari bir-biriga o'gay hisoblanadi. Er-xotindan biri bolalar uchun ota (ona) bo'lsa, ikkinchisi o'gay ona (o'gay ota) bo'ladi. Ugay aka-ukalar va opa-singillar bir-birlari bilan qarindosh emas, balki qayin-bo'yinchilik munosabatlarida bo'ladilar (OKning 59-moddasi).

Er (xotin) va uing yakin qarindoshlari bilan xotin (er) qarindoshlarining bir-biriga nisbatan munosabatlari (qayin-buyinchilik va quda-andachilik) o'zaro huquq, va majburiyatlarni keltirib chiharmaydi.

Qarindoshlikdan qayin-buyinchilik va quda-andachilikni ajrata bilish kerak. Er (xotin) va uning yakin qarindoshlari bilan xotin (er)ning o'zaro munosabatlari (ugay o'g'il, ugay qiz, ugay ota, ugay ona, qaynona, qaynota, kuyov, kelin, erning (xotinning) aka-ukalari va opa-singillari va xokazo) yoki er va xotin qarindoshlarining o'zaro munosabatlari (masalan, erning akasi bilan xotinning akasi o'rtasidagi, erning otasi bilan xotinning otasi o'rtasidagi munosabatlar) qayin-buyinchilik va quda-andachilik hisoblanadi, Qayin-buyinchilik va quda-andachilik kishining nasl-nasabiga yoki krndoshlikka asoslanmaydi, balki nikohning yondosh okibati bo'lganijtimoiy boglanish hisoblanadi. Er-xotinning qarindoshlari yuk bo'lsa, qayin-buyinchilik va quda-andachilik vujudga kelmaydi. Qayin-buyinchilik va quda-andachilik munosabatlari oila huquqi orqali boshharilmaydi, ugay ota (ugay ona) bilan ugay o'g'il (ugay qiz) o'rtasidagi munosabatlar bundan mustasno. Bun-day munosabatlar yukrida ko'rsatilgan shaxslar o'rtasidagi aliment majburiyatlarini keltirib chiharuvchi holatlar ka-toriga kiradi (OKning 127-128 moddalari).

Er va xotin qarindosh ham emas, qayin-buyin ham emas, quda-anda ham emas. Er va xotin o'zaro nikohda bo'lib, shu asosda ularning o'rtasida alohida huquqiy munosabat - er-xotinlik yo'zaga keladi.

6.2. Bolalarning nasl-nasabini belgilash asoslari.

Bolaning shu onadan tug'ilganligi (onalik) fuharolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organi tomonidan tibbiy muassasaning hujjatlariga ko'ra, bola tibbiy muassasada tug'ilmagan holda esa, boshqa dalillarga asosan belgilanadi.

Ayolning nikoh. to'zilgandan keyin yoki erining ulimi, nikohdan ajratilganligi yoxud nikoh haqiqiy emas deb topilganligi tufayli nikoh tugaganidan sung uch yo'z kun ichida to'tilgan bolasi nikohda tug'ilgan bola hisoblanadi.

Agar nikoh tugaganidan keyin uch yo'z kun ichida bola tug'lsa va bu davrda ayol yangi nikohga kirgan bo'lsa, bola yangi nikohda tug'ilgan hisoblanadi. Bunday hollarda sobiq er yoki uning ota-onasi bolaning nasl-nasabi xususida nizolashish huquqiga ega.

Bolaning (bolalarning) nasl-nasabini aniqlash masalasida turli organlarning faoliyati doirasini belgilab qo'ygan. Bu organlar qatoriga fuharolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari, tibbiy muassasalar, vasiylik va homiylik muassasalari, sudlar kiradi.

Bola tibbiy muassasada tug'ilmagan va u tug'ilayotgan paytda tibbiy yordam ko'rsatilmagan bo'lsa, tug'ilish guvohlarning ko'rsatmalariga asoslangan holda qayd etilishi mumkin. Bunday hollarda tug'ilish fakti bir yoki ikki guvohning tug'ilish dalolatnomalarini qayd etish daftaridagi «Bolaning tug'ilish faktini tasdiqlovchi hujjatlar» degan 10-sonli ustunga o'z familiyasi, ismi, ota ismi va manzili ko'rsatilgan holda imzo chekishi bilan tasdiqlanadi. Bu ma'lumotlar guvohdarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlardan olinadi.

Agar bola dengiz, daryo, xavo kemasida yoki poyezdda tug'ilgan bo'lsa, u holda kapitan (kema komandiri yoki yo'lovchi poyezd boshligi) ikki guvoh, va vrach yoki feldsher ishtirokida (agar kemada, poyezdda vrach yoki feldsher bor bo'lsa) bola tug'ilganligi to'g'risida dalolatnoma to'zishi mumkin. U tug'ilish dalolatnomalarini qayd etish organiga tug'ilish to'g'risidagi tibbiy ma'lumotnoma o'rnida taqdim etiladi.

Bolaning shu onadan tug'ilganligini tasdiqlovchi boshqa dalillar qatorida irsiy (genetik) daktiloskopiya natijalarini ham keltirish mumkin. Irsiy ekspertiza eng aniq, natijalarni beradi va bu natijalar bolaning muayyan ota-onadan tug'ilganligi to'g'risida ishonchli xulosa chiqarishga imqoniyat yaratadi,

Nikohda tug'ilgan bolaga, shu bola onasining eri ota hisoblanadi. Biroq, bu prezumpsiya masalasida sud tartibida nizolashish mumkin. Agar sudda boshqa holat isbotlansa, otalik yoki onalik to'g'risidagi yozuv o'z kuchini yo'qotgan hisoblanadi.

60-moddaning 2-bandiga shunday yangi qoida kiritilganki, u bo'yicha ayolning nikoh, to'zilgandan keyin yoki erining ulimi, nikohdan ajratilganligi yoxud nikoh, haqiqiy emas deb topilganligi tufayli nikoh, tugaganidan sung uch yo'z kun ichida tug'ilgan bolasi nikohda tug'ilgan bola hisoblanadi. Uch yo'z kun - bu me'yordagi xomiladorlik davri hisoblanmish 9 oydan sal ortiqroq muddat. Bunday muddat (sobiq, SSSR Adliya vazirligi 1984 - yil 28 - martdagi Yuriknomasining 6,3 bandida 10 oy muddat belgilangan edi) eri to'satdan vafot etgan bevalar uchun imtiyoz tarzida belgilab qo'yilgan deb hisoblaymiz. Mazkur muddat shu muddat ichida tug'ilgan bola nikohda tug'ilgan va qonuniy otaga ega deb hisoblanishiga kafolat beradi.

Nikoh, bekor qilingandan keyin yoki nikoh, haqiqiy emas deb topilgandan keyin uch yo'z kun ichida tug'ilgan bolalar haqida so'z ketganda axvol birmuncha murakkablashadi. Bunda avvalgi to'zilgan nikoh, tugatilganligi ma'lum, lekin bola tug'ilgan taqdirda, bu nikoh, bekor qilingandan yoki haqiqiy emas deb topilgandan keyin yana uch yo'z kun davom etadigandek bo'lib kurinadi. Natijada ota-onalar va bolalarning qonuniy er-xotinlikdan tashharidagi huquq, va majburiyatlarini keltirib chiqaruvchi «galati nikoh» paydo bo'ladi, Qonuniy nikoh, tugatilgan bo'lsa ham, o'sha nikohga asoslangan huquqiy munosabat shu muddat ichida tug'ilgan bolaga nisbatan tatbik etiladi.

Biroq, onaning sobiq, erini bolaning otasi deb tan olinishi faqat qayd etish uchun ahamiyatga ega va u har doim ham haqqoniy faktni aks ettiravermaydi. Nikoh, tugatilganligiga qaramay, agar nikoh, avval tuzilgan bo'lsa-yu, u tugatilgan paytdan boshlab uch yo'z kun o'tmagan bo'lsa, sobiq, er shu davr ichida tug'ilgan bolaning otasi deb tan olinadi. Lekin manfaatdor shaxslarga boshqa holatni isbotlash va keyinchalik dalolatnomadagi yozuvni o'zgartirish imqoniyati beriladi.

Bolaning onasi bilan nikohda bo'lmagan shaxsning otaligi o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs va onaning fuharolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organiga birgalikda topshirgan arizasiga binoan belgilanadi.

Ona vafot etganda, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganda, onaning qayerdaligini aniqlash imqoniyati bo'lmaganda yoki u onalik huquqidan mahrum qilinganda, otalik, vasiylik va homiylik organi bilan kelishilgan holda o'zini bolaning otasi deb tan olayotgan shaxsning arizasiga binoan belgilanadi.

Bolaning otasi sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa, otalikni belgilash to'g'risidagi arizani uning nomidan vasiylik va homiylik organining ruxsati bilan uning homiysi berishi mumkin.

Otalikni belgilash to'g'risidagi ariza bolaning tug'ilganligini qayd etish vaqtida, shuningdek, bola tug'ilganligi qayd etilgandan keyin ham berilishi mumkin. Agar otalikni belgilash to'g'risida bola, tug'ilgandan sung er-xotin birgalikda ariza berishining imqoni bo'lmay holishi yoki mushkul bo'lishini kursa-tuvchi asoslar mavjud bo'lsa, tug'ilajak bolaning o'zaro nikohda bo'lmagan ota-onasi shunday arizani ona xomiladorlik vaqtida fuharolik holati daholatno-malarini qayd etish organiga berishga haqli.

Otalikni belgilash rad etilganda, o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs sud tartibida shikoyat qilishi mumkin.

| Moddada bolaning ota-onasi tomonidan fuharolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga otalikni o'z istagi bilan belgilash uchun ariza berish tufisidagi qoida keltirilgan. Turt holatda faqat ota fuharolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga otalikni belgilash tufisida vasiylik va homiylik organining roziligi bilan ariza berishi mumkin, bo'lar: onaning ulimi, onaning muomalaga layoqatsiz deb topilishi, onaning qayerdaligini aniqlash imqoniyati yukligi, onaning onalik huquqidan mahrum qilinishidan iborat.

Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, otalikni belgilash faktini mustahkamlash uchun bolaning (bolalarning) aynan shu otadan tug'ilganligini tasdiqlaydigan dalillar bo'lishi shart. Bundan tashhari, ota va bola o'rtasida nasl-nasab bilan bog'liq bo'lgano'zaro huquq va majburiyatlarni ifodalovchi huquqiy munosabatlar ham urnatiladi. Otalik, shuningdek, otaning qarindoshlar qatoriga kirganligini ham anglatadi va bolaning ota qarindoshlari, ya'ni buva, buvi, aka-ukalar va opa-singillar bilan qarindoshligini aks ettiradi.

Otalik belgilanganda nasl-nasabga asoslangan va ota hamda boladan (bolalardan) iborat bo'lganoila vujudga keladi. Bu tamoyil ona vafot etganda, xuddi yukorida ko'rsatilgan uchta boshqa holatlardagidek, alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Onaning vafoti (uning vafot etgan deb e'lon qilinishi) vafot etganlik to'g'risidagi guvohnoma yoki sud harori bilan tasdiqlanadi.

Onaning qayerdaligini aniqlash imqoni yukligi, agar ona o'z turar joyida yuk bo'lsa, sud harori bilan yoki bolaning turgan joyiga nisbatan onaning turar joyi noma'lum bo'lsa, ichki ishlar organlari tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Onaning onalik huquqidan mahrum etilganligi sudning harori bilan mustahkamlangan bo'lishi kerak.

YUkorida ko'rsatilgan kужjatlar mavjud bo'lsa, fuharolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi otaning otalikni belgilash tufisidagi arizasini vasiylik va homiylik organi bergan yozma rozilik bilan birga qabo'l qiladi. Ektimol, amaliyotda bunday kelishuvning alohida shakli ishlab chikilar - bu vasiylik va homiylik organining muayyan hujjati yoki ota arizasi matniga kiritiladigan tegishli yozuv shaklida bo'lishi mumkin.

Vasiylik va homiylik organining roziligiga qonunchilik tomonidan huquq xosil qiluvchi ahamiyat berilgan: otaning bunday rozilik bilan mustahkamlanmagan arizasini fuharolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi qabo'l kilmaydi. Agar vasiylik va homiylik organi otalikni belgilashga rozilik bermasa, u holda ota sudga murojaat qilishga haqlidir. Sud harori vasiylik va homiylik organining roziligi o'rmini koplashi yoki bu organning otalikni belgilashga rozilik bermaganligini tufi deb topishi kerak. Bu holda fuharolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi shu bolaning (bolalarning) otasini belgilashi kerak emas.

Moddada fuharolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga otalikni belgilash tufisida er-xotinning birgalikda ariza berishini kiyinlashtiruvchi yoki, umuman, ularning ariza berishiga imkon bermaydigan holatlar mavjud bo'lishi mumkin. Bu yerda ran o'zaro nikohda bo'lmagan erkak bilan ayolning ayol xomilador bo'lganvaqtda birgalikda ariza berishi haqida bormokda.

Qonunda otalikni belgilash tufisida er-xotinning birgalikda ariza berishini kiyinlashtiruvchi yoki, umuman, bunga imkon bermasligi mumkin bo'lganholatlar keltiril-magan. Bu holatlar har kanaka bo'lishi mumkin va ularning aynan favkulodda bo'lishi ham shart emas. Muhimi shuki, fuharolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi xodimlari bu holatlarni asosli deb topishlari va bo'lajak ota-onadan otalikni belgilash to'g'risidagi arizani qabo'l qilishlari kerak. Bu ariza bola tug'ilgandan keyin uning tug'ilganligi tufisidagi guvohnomaga otasi to'g'risidagi ma'lumotlarni yozish uchun asos bo'ladi.

6.3. Otalikning sud tartibida belgilash tartibi.

O'zaro nikohda bo'lmagan ota-onadan bola tushlgan taqdirda, ota-onaning birgalikdagi arizasi yoki bola otasining arizasi bo'lmasa, Oila kodeksining 61-moddasida ko'rsatilgan hollarda otalik sud tartibida belgilanishi mumkin.

Otalikni sud tartibida belgilash ota-onadan birining yoki bolaning vasiysi (homiysi)king yoxud bola kimning haramogida bo'lsa, shu shaxsning arizasiga, shuningdek bola voyaga yetgandan keyin uning o'zi bergan arizaga muvofiq amalga oshiriladi.

Otalikni belgilayotganda sud bolaning onasi bola tug'ilishiga qadar javobgar bilan birga yashaganligi va umumiy ro'zgor yuritganligi yoki ular bolani birga-likda tarbiyalaganliklari yoxud ta'minlab turganliklarini yoki javobgarining otalikni tan olganligini aniq, tasdiqlovchi boshqa dalillarni e'tiborga oladi.

Bolaning onasi bilan nikohda bo'lmagan, lekin o'zi-ni bolaning otasi deb tan olgan shaxs vafot etgan taqdirda uning otalik fakti sud tomonidan belgilanishi mumkin.

Otalikni belgilash to'g'risidagi sudning hal qiluv harori qonuniy kuchga kirgandan keyin sud shu haror nusxasini bola tug'ilganligi ro'yxatga olingan joydagi fuharolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga yuboradi.

Mazkur modda o'zaro nikohda bo'lmagan ota-onadan tug'ilgan bolaning otasini aniqlash masalasi, agar ota yoki ona fuharolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga birgalikda ariza berishdan bosh tortsa yoxud otaning o'zi vasiylik va homiylik organining roziligi bilan (sud harori bilan) ariza bersa, sud tartibida yoritadi.

Sudga arizani ota yoki ona, vasiy (homiy), bolani o'z haramogiga olgan shaxs, bolaning o'zi balogat yoshiga yetgandan sung berishlari mumkin. Ariza sudda boshqa da'volar qatorida, faqat 1968 yilning 1 oktyabriga qadar tug'ilgan bolalarga nisbatan ko'rib chiqiladi.

Otaning otalik xdkida sudga ariza berishi, avvalo onaning fuharolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga eri bilan birgalikda ariza berishdan bosh tortishi yoki boshqa sabablar okibatida vujudga keladi.

Bolaning nasl-nasabini tasdiqlovchi dalillarni e'tiborga olish masalalari sudni shunday dalillarni bir necha guruxga bo'lishga undaydi, bu guruxlar alohidaligicha yoki birgalikda javobgarining otalikni buyniga olishi uchun guvohlik berishi lozim.

Bolaning aynan shu ota-onadan tug'ilganligini tasdiqlovchi dalillar faqatgina irsiyat fani yoki genom daktiloskopiya orqali aniqlanmaydi. Ba'zi mamlakatlarda shunday ishlarni ko'rib chikishda kullaniladigan kon ko'rsatkichlarini takkoslash uslubi ham mavjud. Biroq yozma dalillar ham, guvohlarning ko'rsatmalari ham, shajara ma'lumotlari ham, ashyoviy dalillar ham bolaning aniq bir shaxsdan tug'ilganligi haqida ishonchli guvohlik berishi mumkin. Otalik yoki onalikni tan olish dalillar qatoridan istisno bo'lmaydi, lekin mutlako to'g'ri deb ham topilmasligi kerak, chunki bu hol taxlil, aldov yoki zurlik natijasi bo'lishi mumkin.

Dalillarning ishonchliligini baholash faqat sudning vaholati doirasiga kiradi.

SHuningdek, modda - sud harorida yuridik fakt. Bu fakt -ota tiriklik vaqtida uning otaligi tan olingan bo'lsa ham, ammo faqat vafotidan keyingina otaligi belgilanganligini mustahkamlab kuyish imqoniyatini nazarda tutadi. SHaxsning vafot etgan deb e'lon qilinishi jismoniy vafotga tenglashtirilganligi tufayli, otalikning tan olinishi faktini aniqlash bu holatda ham mumkindir.

Ushbu moddaga asosan, sud bolaning muayyan otadan tug'ilganligini emas, balki otalikning tan olinishini belgilaydi._

O'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs tiriklik chogida o'zining otalikni tan olganligidan daholat beruvchi muayyan harakatlarni qiladi. Bu harakatlar - bolaning tarbiyasi, uni ukitish, unga moddiy yordam ko'rsatish bo'lishi mumkin. SHuningdek, bu harakatlar shaxsiy xatlarda, rasmiy anketalarda, buxgalteriyaga berilgan yoki yo'llanmalar olish to'g'risidagi arizalarda o'z aksini topgan bo'lishi mumkin.

YUridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash qoida-lari O'zbekistan Respublikasi Fuharolik-protsessual kodeksining 31-bobida berilgan, OKning 62-moddasi aynan shu

qoidalarga tayanadi. Tasavvurimizcha, otalikni belgilash me'yorlariga Fuharolik-protsessual kodeksidan joy berilishi ijtimoiy munosabatlarga ayniksa moye keladi, chunki shaxsning vafot etishi uning sud jarayonida javobgar sifatida ishtirok etishi imqoniyatini mustasno qiladi.

Biroq, otalikni tan olish faktining aniqlanishi natija-lari nasl-nasab bilan bog'liq bo'lganqarindoshlik munosabatlarining mavjudligi faktini ta'kidlash bilan deyarli barobardir, Otaning qarindoshlaridan alimeng olish imqoniyati, meros, nafaka, uy-joy haqidagi huquqiy munosa-batlarning yo'zaga kelishi mazkur faktning aniqlanishiga bog'liqdir.

O'zini bolaning otasi deb tan olgan, lekin uning onasi bilan nikohda bo'lmagan shaxs vafot etgan taqdirda, sud OKning 62-moddasiga muvofiq, ravishda uning otalikni tan olganligi faktini aniqlashga haqlidir. Sud bu faktni har tomonlama chukur tekshirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda, huquq borasida nizo kelib chikmagan taqdirdagina aniqlashi mumkin. Agar shunday nizo yo'zaga kelsa (masalan, meros kilib keltirilgan mulk borasida), sudya arizani ko'rib chikmaydi va manfaatdor shaxslarga ularning umumiy asosda da'vo qilish huquqlari tushuntiriladi.

Tug'ilishni yozish daftaridagi tug'ilishga oid yozuv bolaning unda ko'rsatilgan ota-onadan tug'ilganligini tasdiqlovchi dalil hisoblanadi.

Bolaning otasi yoki onasi deb yozilgai shaxs unga bunday yozuv ma'lum bo'lganyoki ma'lum bo'lishi lozim bo'lgan vaqtdan e'tiboran bir yil mobaynida ana shu yozuv to'g'risida sud tartibida e'tiroz bildirishga haqlidir. Agar shu vaqtga kelib, bolaning otasi yoki onasi deb yozilgan shaxs voyaga yetmagan bo'lsa, bir yil-lik muddat mazkur shaxs un sakqiz yoshga tulgan vaqtdan boshlab hisoblanadi.

O'zbekistan Respublikasi qonunlari bo'yicha, tug'ilishlarni qayd etish daftarida ota-onaning ko'rsatilishi yuridik fakt hisoblanadi. Biroq, bu fakt mutlak, emas va unga nisbatan sud tartibida, tegishli dalolatnoma yozuvlari amalga oshirilgandan sung istalgan paytda quyidagi shaxslar tomonidan e'tiroz bildirilishi mumkin:

1. bolaning otasi yoki onasi deb yozilgan shaxslar;
2. bolaning haqiqiy otasi yoki onasi;
3. bolaning o'zi, u 18 yoshga yetgandan sung;
4. bolaniig vasiysi (homiysi);
5. sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan ota yoki onaning vasiysi.

SHuni hisobga olgan holda, otasi falon shaxs deb qayd qilingan bolaga nisbatan otalikni aniqyaash to'g'risidagi da'vo ko'rib chikilayotganda, sud o'sha shaxsni ishga jalb qilishi lozim, chunki arizadagi talablar kondirilgan taqdirda bolaning otasi haqidagi bolaning tug'ilganligi to'g'risidagi avvalgi yozuvlar bekor xiliniadi.

Agar manfaatdor shaxslar o'rtasida (masalan, bolaning onasi, bolaning otasi deb yozilgan shaxs va bolaning haqiqiy otasi o'rtasida) bu masalada nizo bo'lmasa, sud bolaning tug'ilganligi to'g'risidagi yozuvlardan uning otasi haqidagi avvalgi yozuvni bekor qilish va yangi ma'lumotlarni (ya'ni boshqa shaxsning otaligi aniqlanganligi borasida) kiritish haqidagi talabni ham ko'rib chiqadi, chunki fuharolik holatlari dalolatnomalaridagi yozuvlarning bekor qilinishi faqat sudning harori bilan amalga oshirilishi mumkin.

Otalik haqidagi yozuvga e'tiroz bildirish to'g'risidagi ishlar ko'rib chikilayotganda OKning 68-moddasida ko'rsatilgan bolaning o'z fikrini ifoda etish huquqi hisobga olinishi kerak,

Qonun chiharuvchi organ ham keyinchalik, sud amaliyoti ham ota-ona to'g'risidagi yozuvning shubxasiz ekanligini tan olishdan yiroklashib ketayotgan bo'lishi mumkin. Bu hol yozuvga e'tiroz bildirishi mumkin bo'lganshaxslar doirasining kengaytirilishida ham, e'tiroz uchun ajratilgan bir yillik muddatning bekor qilinishida ham, yozuvning mavjudligi bolaning aynan shu ota-onadan tug'ilganligi to'g'risidagi dalillardan faqat bittasi ekanligida. ham aks etib turibdilOtalikni aniqlash to'g'risidagi ishlarni sud jarayoni uchun tayyorlashda va ishni qurish vaqtida sudya (sud) zarur hollarda, bolaning nasl-nasabi bilan bog'liq masalalarga aniqlik kiritish paytida taraflarning fikrlarini, ish holatlarini hisobga olgan holda ekspertiza tayinlashi mumkin.)

Bolaning nasl-nasabi masalasida ekspertiza xulosasi, shu jumladan, irsiy daktiloskopiya usulida utkazilgan tekshiruvlar xulosalari ishdagi boshqa dalillar bilan bir katorida sud tomonidan baholanishi kerak bo'lgandalilardan biridir, chunki hech kanday dalil ham sud uchun avvaldan belgilangan kuchga ega bo'lmaydi.

Bolaning onasi bylan nikohda bo'lmagan, lekin otaligi ariza bo'yicha yoki sud tartibida aniqlangan shaxs otalik to'g'risida sud orqali e'tiroz bildirgan taqdirda, agar sud tug'ilganlik to'g'risidagi yozuvni to'zish vaqtidagi shaxs bolaga formal ravishda «otalik»ka rozilik berganligini aniqlasa, e'tiroz bildirish to'g'risidagi talab sud tomonidan krndirilishi mumkin emas. Boshqacha k,ilib aytganda, o'z xox,ishi bilan (yoki sudning harori bilan) o'ziny bolaning otasi deb tan olgan, lekin o'zi bolaning otasi bo'lmagan shaxs ataylab yolgondan to'zilgan yozuvning bekor qilinishiga umid kilmasligi kerak.

Bu toifadagi ishlarda shuni hisobga olish lozimki, OK bolaning otasi (onasi) to'g'risidagi yozuvga sud orqali e'tiroz bildirish huquqini aniq bir muddat bilan cheklab kuymagan. Shu bilan birga, 1968 - yilning 1 - sentyabrigacha tug'ilgan bolalarning otasi (onasi) to'g'risidagi yozuvga e'tiroz bildirilganda sud shuni nazarda tutishi kerakki, OKning 62-moddasiga ko'ra, bolaning otasi yoki onasi deb yozilgan shaxsga shu yozuv haqida ma'lum bo'lishi lozim bo'lgandan beri yoki ma'lum bo'lganidan keyin bir yil ichida bunday yozuvga e'tiroz bildirilishi mumkin.

Oila kodeksning 61 va 62-moddalarida nazarda to'tilgan tartibda otalik belgilanganda bolalar ota-onasi va ularning qarindoshlariga nisbatan o'zaro nikohda bo'lgan shaxslardan tug'ilgan bolalar bilan teng huquq va majburiyatlarga ega bo'ladilar.

Otalik otaning o'z istagi bilan yoki sud tartibida aniqlangandan sung, nikohsiz tug'ilgan bolalarga nikohda tug'ilgan bolalar bilan teng huquqdarni beradi.

Bolalarning nasl-nasabi fakti bolaning otasi to'g'risidagi yozuv bilan tasdiqlanadi, bu bilan bola otaning qarindoshlari sirasiga kiradi. Bu shuni anglatadiki, nikohda to'tilgan bolalar ota va uning qarindoshlariga nisbatan kanday huquqlarga ega bo'lsalar, nikohsiz tug'ilgan bolalar ham xuddi shunday huquqlarga ega bo'ladilar. Lekin bu narsa bolaning hamma huquqlariga emas, balki faqat mulk va meros huquqlarigagina tegishlidir. Bolalarning ba'zi huquqlarini ta'minlash ancha mushkul ish (masalan, agar bolaning otasi va onasi alohida mustaqil oilali bo'lsalar va ularning har biri boshqa-boshqa nikohda bo'lsalar). Bolaning oilada yashash va tarbiyalanish, ota-onasining gamxurligiga ega bo'lish, ular bilan birga yashash kabi kukukdari faqat oilada ta'minlanishi mumkin. Otalikning aniqlanishi esa yuridik ravishda oilani vujudga keltirmaydi, bu hol oila va uning barcha a'zolari huquqdarini yagona huquqiy andozaga solib bo'lmasligidan dalolat beradi. (Faqat oila huquq sub'ekti sifatida, bolalar va ularning ota-onasi kukuklarini to'laligicha va o'z o'rnida ta'minlashga kodir. Nikohsiz tug'ilgan bolalarning huquqlari bilan nikohda tug'ilgan bolalarning huquqlarini tenglashtirishga intilish - qonunchilik siyosatining eng to'g'ri va demokratik yunalishidir. Biroq, ijtimoiy tarakkiyot sharoitidagi tabiiy sabablar okibatida bunday bolalarning barcha huquq va majburiyatlarining to'la tengligini ta'minlash imqoniyati deyarli yuk.

YOlgiz ayoldan tug'ilgan bolalarning huquqiy holati birgina alohida xususiyatga ega: bunday bolalar faqat onaning qarindoshlari sirasiga kiradilar, ota va uning qarindoshlariga nisbatan esa, hech kanday huquq va majburiyatlarga ega bo'lmaydilar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Qon – qarindoshlik va va bolalarning nasl – nasabini belgilash Oila kodeksining nechanchi bobida o'z ifodasini topgan?
2. Qarindoshlik deb nimaga aytiladi?
3. YOt aralashgan va yot aralashmagan qarindoshlik deb nimaga aytiladi?
4. Bolaning nasl – nasabini belgilash asoslarini ayting?
5. Ota – onaning arizasi bo'yicha bolaning nasl – nasabini belgilash qanday amalga oshiriladi?
6. Otalikni sud tartibida belgilash kimning arizasiga binoan amalga oshiriladi?

Adabiyotlar ro'yxati:

Rahbariy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir" Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabo'l qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi Ma'ruzasi. // Huquq va burch jurnali. 2009 – yil. № 12 son. 2-9 – betlar.
2. Karimov I.A. "O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir" Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabo'l qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi Ma'ruzasi. // Huquq va burch jurnali. 2009 – yil. № 12 son. 2-9 – betlar.
3. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T.8. -T., 2000 y.
4. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz. T.9. –T., 2001 y.
5. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun ko'rashmoq kerak. T.10 -T., 2002 y.
6. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008 - yil.
7. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: "O'zbekiston", 2009 – yil.
8. Karimov I.A.. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. "Xalq so'zi", 2007 - yil, 31 - avgust.

Maxsus adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar. 2009 – yil.
2. Saidov A, Tadjixanov U, Odilkoriyev X. "Davlat va huquq asoslari". T., "Sharq", 2002 - yil.
3. Z. Islomov, O. Xusanov, M. Mirhamidov. Huquqshunoslik. Ma'ruzalar matni. T., 2000 - yil.
4. F. Otaxujayev. "Nikoh va uni huquqiy tartibga solinishi". T., "O'zbekiston", 2000 - yil.
5. O'zbekiston Respublikasi oila kodeksiga sharhlar. T., 2009 - yil.

Me'yoriy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston", 2009 - yil.
2. O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi 1991 -yil 31 - avgust konstitutsiyaviy qonuni.
3. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy Dasturi. 1997 - yil 27-avgust.
4. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. T., "Adolat", 2009 - yil.
5. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. T., "Adolat", 2009 - yil.
6. O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi qonuni. 2000 - yil 15.12.

7-Mavzu: Ota-ona hamda voyaga yetmagan bolalarning huquq va majburiyatlari.

Reja:

1. **Ota-ona va voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy nomulkiy huquqlari va majburiyatlari.**
2. **Ota-ona hamda bolalarning mulkiy huquq va majburiyatlari.**
3. **Oila azolarning va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlari.**

Darsning maqsadi: Talabalarga Ota-ona va voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy nomulkiy huquqlari va majburiyatlari, Ota-ona hamda bolalarning mulkiy huquq va majburiyatlari, Oila a'zolarining va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlari to'g'risidagi bilimlarni berish.

Kutilayotgan natija: Talabalarning huquqiy savodxonligini oshirish, oila kodeksi me'yorlarini urganish, qo'llash malakalarini shakllantirish.

Dars uslubi: Munozara.

Tayanch tushunchalar: Shaxsiy nomulkiy huquqlari va majburiyatlar, mulkiy huquq va majburiyatlari, Oila a'zolarining va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlari

7.1. Ota-ona va voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy nomulkiy huquqlari va majburiyatlari

O'zbekiston Respublikasida Oila Kodeksining qabul qilinishi va bu kodeksda voyaga yetmagan bolalarning oiladagi huquqlariga bag'ishlangan qoidalarining mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Chunki bunga qadar amalda bo'lgan «Nikoh va oila kodeksi» voyaga yetmagan bolalarning huquqlari ota-ona va bolalar o'rtasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar orqali belgilanar edi, voyaga yetmaganlar ota-ona karamogidagi ob'ektlar sifatida qabo'l qilinar edi.

O'zbekiston Respublikasida 1998 - yil aprelda «Oila Kodeksining» qabo'l qilinishi, IV bo'limda ota-ona hamda voyaga yetmagan bolalarning huquq va majburiyatlarining muhim ahamiyatga ega bo'ldi. BMT tomonidan 1989 - yil 20 - noyabrda qabo'l qilingan va O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992 - yil 9 - dekabrda qarori bilan ratifikatsiya qilingan «Bola huquqlari to'g'risida» gi konvensiya qoidalariga amal kilib, O'zbekiston da xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olib, oila kodeksi voyaga yetmagan bolalarni mustaqil shaxs sifatida maay'yan huquqlarga ega qilish, ularni ma'lum darajada amalga oshirish va himoya qilish uchun imqoniyat yaratdi.

Bolaning yashashi kamol topishi uchun oila birdan bir makon, tabiiy muxit hisoblanadi. Ota-ona hamda voyaga yetmagan bolalarning huquq va majburiyatlari bo'limi kuiidagi masalalarga bag'ishlangan:

1) Voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy nomulkiy huquqlari;

- A) Bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi
- B) Bolaning ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan qurishish huquqi
- V) Bolaning himoyaga bo'lgan huquqi
- G) Bolaning o'z fikrini ifoda etish huquqi
- D) Bolaning ism, ota ismi va familiya olish huquqi
- E) Bolaning ismi va familiyasini o'zgartirish huquqi

2) Ota-onaning shaxsiy nomulkiy majburiyatlari:

- A) Ota-ona huquq va majburiyatlarining tengligi
- B) Voyaga yetmagan ota-onaning huquqlari
- V) Ota-onaning bolalarga ta'lim-tarbiya berishga oid huquq va majburiyatlari
- G) Bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ota-onaning huquq va majburiyatlari
- D) Ota-onalik huquqini amalga oshirish
- E) Boladan alohida yashayotgan ota-onaning ota-onalik huquqini amalga oshirish
- YO) Bobo, buvi, aka-uka, opa-singil va boshqa yaqin qarindoshlarning bola bilan qurishib turish huquqi
- J) Ota-onalik huquqini himoya qilish
- Z) Ota-onalik huquqidan mahrum qilish, tartibi, okibatlar.
- I) Ota-onalik huquqini cheklanishi, cheklanish okibatlar, cheklanishni bekor qilish.
- K) Bolalarni tarbiyalash bilan bog'liq ishlar bo'yicha sudning hal qiluv qarorlari, ularni ijro etish.

4. Ota-ona hamda bolalarning mulkiy huquq va majburiyatlari.

- A) Oilada ota-ona hamda bolalarning mulkiy munosabatlari.
- B) Ota-ona va bolalarning alohida-alohida mulki.
- V) Ota-ona va bolalarning umumiy mulki.
- G) Bolalarning oiladagi xususiy mulki.
- D) Voyaga yetmagan bolalarning xususiy mulkini boshqarish va tasarruf etish.
- E) Ota-ona va bolalar o'rtasidagi mulkiy nizolarni hal qilish.

Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilash, ularning gamxurligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega, bola manfaatlariga zid bo'lgan holatlar bundan mustasnodir.

Bola o'z ota-onasi tomonidan tarbiyalanishi, o'z manfaatlari ta'minlanishi, har taraflama kamol topishi insoniy kadr-kimmatlari xurmat qilinishi huquqiga ega.

Bolaning ota-onasi bo'lmaganda yoki ular ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda va bola ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan boshqa hollarda uning oilada tarbiyalanish huquqi vasiylik va homiylik organi tomonidan ta'minlanadi.

Bola otasi, onasi, bobosi, buvisi, aka ukalari, opa-singillari va boshqa qarindoshlari bilan qurishish huquqiga ega. Ota-onasining nikohdan ajralishi, nikohning haqiqiy emas dep topilishi yoki ota-onaning boshqa-boshqa yashashi bolaning huquqlariga ta'sir qilmaydi.

Ota va ona alohida yashagan holda bola ularning har biri bilan qurishish huquqiga ega. Ota-ona turli davlatlarda yashagani taqdirda ham bola ular bilan qurishish huquqiga ega.

Favqulotda vaziyatlarga tushib qolgan bola (ushlab turish, qamoqqa olish, xibsga olish, davolash muassasasida bo'lish) o'z ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan qonunda belgilangan tartibda qurishish huquqiga ega.

Bola o'z huquqigi va qonuniy manfaatlari himoya qilish huquqiga ega.

Bolaning huquqi va qonuniy manfaatlari himoya qilish uning ota-onasi (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar), ushbu kodeksda nazarda to'tilgan hollarda esa vasiylik va homiylik organi, prokuror va sud tomonidan amalga oshiriladi.

Voyaga yetmagan bola qonunga muvofiq to'la muomala layoqatiga ega deb e'tirof etilsa, u o'z huquq va majburiyatlarini, shu jumladan himoya huquqini mustaqil amalga oshirishga haqlidir.

Bolaning huquq va qonuniy manfaatlari bo'zilganda, shu jumladan, ota-ona (ulardan biri) bolani tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganda yoxud ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilganda bola o'z huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini surab, vasiylik va homiylik organiga, un turt yoshga tuglgandan keyin esa, mustaqil ravishda sudga.

Bolaning xayoti yoki sogligiga xavf tug'ilganidan, uning huquq va qonuniy manfaatlari bo'zilganligidan xabardor bo'lgan shaxslar bu haqda bola ayni paytda yashab turgan joydagi vasiylik va homiylik organiga ma'lum qilishi shart. Shunday ma'lumotlarni olgach, vasiylik va homiylik organi bolaning huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilish yo'zasidan zarur choralar qurishi shart.

Oilada bolaning manfaatlariga taaluqli har kanday masala hal qilinayotganda bola o'z fikrini ifoda qilishga, shuningdek har sud muhokamasi yoki ma'muriy muhokama davrida so'zlashga haqlidir.

Bolaning familiyasi ota-onaning familiyasiga qarab belgilanadi. Ota-ona turli familiyalarda bo'lganda ota-onaning kelishuviga binoan bolaga otasining yoki onasining familiyasi beriladi. Ota-onaning hohishiga ko'ra, bolaga ota yoki ona tomonidan milliy an'analarga ko'ra boboning ismi bo'yicha familiya berilishi mumkin. Ota-ona o'rtasida bolaning ismi va (yoki) familiyasi bo'yicha kelishuv bo'lmaganda, kelib chiqqan nizo vasiylik va homiylik organi tomonidan hal etiladi.

Fuqarolik holati dalolannomalarini qayd etish organi ota-onaning birgalikdagi arizasiga binoan bola un olti yoshga to'lguncha bola manfaatlarini e'tiborga olib, uning ismini o'zgartirishga, shuningdek unga berilgan familiyani ham otasi yoki onasining familiyasiga qarab o'zgartirishga haqlidir.

Agar ota-ona alohida yashasa va bola bilan birga yashovchi ota (ona) bolaga o'z familiyasini berishni hohlasa, vasiylik va homiylik organi bu masalani bolaning manfaatlarini va ona (ota)ning fikrini hisobga olgan holda hal qiladi. Ota yoki onaning turgan joyini aniqlash mumkin bo'lmaganda, ular ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda, muomalaga layoqatsiz deb topilganda, shuningdek ota yoki ona bolaga ta'minot berish va uni tarbiyalash majburiyatlarini bajarishdan o'zrsiz sabablariga ko'ra buyin tovlagan hollarda ota yoki onaning fikrini hisobga olish shart emas.

Agar bola o'zaro nikohda shaxslardan tug'ilgan va otalik qonuniy tartibda belgilanmagan bo'lsa, vasiylik va homiylik organi bolaning manfaatlarini e'tiborga olib, uning

familyamini onaning murojaat qilgan davridagi familiasiga almashtirish uchun ruxsat berishga haqli.

Un yoshga tulgani bolaning ismi yoki familiyasini o'zgartirishga faqat uning roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

Ota-ona o'z bolalariga nisbatan teng huquq va majburiyatlarga egadirlar (ota-onalik huquqlari). Ushbu bobda nazarda to'atilgan ota-onalik huquqlari bolalar un sakqiz yoshga tulgani (voyaga yetganda), shuningdek voyaga yetmagan bolalar nikohga kirgani hamda qonun bilan belgilangan boshqa hollarda bolalar voyaga yetmasdan to'la muomala layoqatga ega bo'lgani tugaydi.

Voyaga yetmagan ota-ona o'z bolasi bilan birga yashash va uning tarbiyasida ishtirok etishi huquqiga ega.

O'zaro nikohda bo'lmagan voyaga yetmagan ota-ona ulardan bola tug'ilganda hamda ularning onaligi va (yoki) otaligi belgilanganda un olti yoshga tushishi bilan ota-onalik huquqlarini mustakil ravishda amalga oshirishga haqidirlar. Voyaga yetmagan ota-ona un olti yoshga yetgunga qadar, bolani voyaga yetmagan ota-ona bilan birgalikda tarbiyalash uchun bolaga vasiy tayinlashini mumkin. Bolaning vasiysi bilan voyaga yetmagan ota-ona o'rtasida kelib chiqadigan kelishmovchiliklar vasiylik va homiylik organi tomonidan hal etiladi.

Voyaga yetmagan ota-ona o'z otaligi va onaligini umumiy asoslarda e'tirof etish va bunga e'tiroz bildirish huquqiga egadir.

Ota-ona o'z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shart.

Bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish ularning ota-ona zimmasiga yuklatiladi.

Ota-ona o'z bolalarining qonuniy vakillari hisoblanadilar hamda har kanday jismoniy va yuridik shaxslar bilan bo'lgan munosabatlarda. SHu jumladan sudda alohida vakolatsiz ularning huquq va manfaatlarini himoya qiladilar.

Vasiylik va homiylik organi tomonidan ota-ona va bolalar manfaatlari o'rtasida qarama qarshilik borligi aniqlanganda, ota-ona o'z bolalarining manfaatlarini himoya qilishga haqli emas. Ota-ona va bolalar o'rtasida kelishmovchiliklar mavjud bo'lganda vasiylik va homiylik organi bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun vakil tayinlashi shart.

Ota-onalik huquqi bolalar manfaatlariga zid tarzda amalga oshirilishi mumkin emas. Bolalar manfaatlarini ta'minlash ota-ona gamxurligining asosini tashkil qilishi

Ota-onalik huquqini amalga oshirishda ota-ona bolalarning jismoniy va ruhiy sog'lomligiga, aqliy kamolotiga zarar yetkazishga haqli emas. Bolalarni tarbiyalash usullari mensimaslik, shavqatsizlik, qo'pollikdan, insoniy qadr-qimmatni kamsituvchi muammodan, bolalarni haqoratlash yoki ekspluatatsiya qilishdan holi bo'lishi kerak.

Ota-ona alohida yashaganda bolalarning qayerda yashashi ota-onaning kelishuviga binoan belgilanadi. Ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmasa, nizo sud tomonidan bolalar manfaatlaridan kelib chiqib, ularning fikrini hisobga olgan holda hal etiladi. Bunda sud, bolaning ota-onadan, aka-uka, opa-singillaridan qaysi biriga bog'lanib qolganligini, ota-onasining axlokiy va boshqa shaxsiy fazilatlarini, ota-onaning har biri bilan bola o'rtasidagi munosabatlarni, bolani tarbiyalash va uning kamoloti uchun shart-sharoitlar (ota-onasining mashg'ulot turi, ish tartibi, moddiy hamda oilaviy axvoli va boshqalar) yaratish imkoniyatini hisobga oladi.

Boladan alohida yashayotgan ota (ona) bolaning ona (ota)si bilan qurishishga, agar bunday qurishish bolaning jismoniy va ruhiy sog'ligiga, axlokiy kamolotiga zarar keltirmasa, qarshilik qilmasligi kerak.

Boladan alohida yashayotgan ota (ona) tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalari va boshqa shunga o'xshash muassasalardan o'z bolasi to'g'risida axborot olish huquqiga ega. Ota (ona) tomonidan bolaning hayoti va sog'ligi uchun xavf-xatar bo'lgandagina, ularga axborot berish rad etilishi ustidan sud tartibida shikoyat qilinishi mumkin.

Bobo, buvi, aka-uka, opa-singil va boshqa yaqin qarindoshlar bola bilan qurishib turish huquqiga ega.

Agar ota-ona (ulardan biri) vasiylik va homiylik organining qarorini bajarmasa, bolaning yaqin qarindoshlari yoki vasiylik va homiylik organi bola bilan qurishib turishga tuskini qiluvchi hollarni bartaraf qilish haqida da'vo bilan sudga murojaat qilishga haqlidir. Sud bolaning manfaatlarini va bolaning fikrini hisobga olgan holda nizoni hal qiladi.

Sudning hal qiluv qarori bajarilmagan taqdirda aybdor ota (ona)ga nisbatan qonun hujjatlarida nazarda to'atilgan choralar kulaniladi.

Ota-ona bolani qonunga asoslanmasdan ushlab turgan har qanday shaxsdan uning qaytarilishini talab qilishga haqli. Nizo chiqqan taqdirda, ota-ona o'z huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilishga haqli. Bu talablarni qurishda sud bolani ota-onasiga kaytarish uning manfaatlariga zid degan xulosaga kelsa, bolaning fikrini hisobga olgan holda ota-onaning da'vosini rad qilishga haqli.

Agar sud ota-ona ham, bolani o'z karamogiga olgan shaxs ham bolaga lozim darajada tarbiya berishni hamda uni kamolotga yetkazishni ta'minlay olmaydilar, deb topsa, bolani vasiylik va homiylik organi qaramog'iga olib beradi.

Ota-ona (ulardan biri) quyidagi hollarda:

Ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortsa, shu jumladan aliment to'lashdan bo'yin tovlasa;

O'zrsiz sabablarga ko'ra o'z bolasini tug'ruqxona yoki boshqa davolash muassasasidan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'xshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortsa;

Ota-onalik huquqini suis'temol kilsa, bolalarga nisbatan shafkatsiz muomalada bo'lsa, jumladan jismoniy kuch ishlatsa yoki ruxiy ta'sir ko'rsatsa, ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi mumkin.

Bolani ota-ona (ulardan biri) bilan qoldirish ota-onaga (ulardan biriga) bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra (ruxiyatning bo'zilishi yoki boshqa surunkali kasallik, ogir holatlarni boshdan kechirish va boshqalar) bola uchun xavfli bo'lsa, ota-onalik huquqi cheklashga yo'l qo'yiladi.

Agar bolani ota-ona (ulardan biri) bilan qoldirish okibatida ota-onaning xulq atvori bola uchun xavf tug'dirsa, ota-onani (ulardan birini) ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun esa yetarli asoslar aniqlanmagan taqdirda ham ota-onalik huquqini cheklashga yo'l qo'yiladi. Agar ota-ona (ulardan biri) o'z xulq atvorini o'zgartirmasa, vasiylik va homiylik organi sud tomonidan ota-onalik huquqini cheklash to'g'risidagi hal qiluv qarori chiqarilgandan keyin olti oy utgach, ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risida da'vo taqdim etishi shart. Vasiylik va homiylik organi bolaning manfaatlarini e'tiborga olib ota-onani (ulardan birini) bu muddat o'tmasdan turib, ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqida da'vo taqdim etishga haqli.

Ota-onalik huquqini cheklash to'g'risidagi ishlar prokuror hamda vasiylik va homiylik organi ishtirokida ko'riladi.

Ota-onalik huquqini cheklash to'g'risidagi ishlarni qurishda sud ota-onadan (ularning biridan) bolaning ta'minoti uchun aliment undirish masalasini hal qiladi.

Ota-onalik huquqi cheklangan ota-ona bolani shaxsan tarbiyalash huquqidan, shuningdek bolali Fuqarolar uchun qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va nafaqalar olish huquqidan mahrum bo'ladi.

Ota-onalik huquqining cheklanishi ota-onani bolaga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilmaydi.

Ota-onasi (ulardan biri)ning o'ziga nisbatan ota-onalik huquqi cheklangan bola turar joyga bo'lgan mulk huquqini yoki turar joydan foydalanish huquqini saqlab qoladi, shuningdek, ota-ona va boshqa qarindoshlari bilan tug'ishganlik faktiga asoslangan mulkiy huquqlarini, shu jumladan meros olish huquqini saqlab qoladi.

Sud tomonidan ota-onalik huquqi cheklangan ota-onaning bolasi bilan qurishishi unga salbiy ta'sir ko'rsatmasa, bola bilan ko'rishishga ruxsat berilishi mumkin. Ota-onaning bola bilan

ko'rishishiga vasiylik va homiylik organining roziligi bilan yoxud vasiy (homiy)ning, bolaning tutingan ota-onasi yoki bola turgan muassasa ma'muriyatining roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

Agar ota-ona (ulardan biri)ning ota-onalik huquqlari cheklanishiga asos bo'lganholatlarda barham topsa, sud ota-onaning (ulardan birining) da'vosiga binoan bolani ota-onasiga kaytarish va ushbu Kodeksning 83 moddasiga nazarda to'tilgan cheklashlarni bekor qilish haqida hal qiluv qarori chiqarish mumkin.

Agar bolani ota-onasiga (ularning biriga) kaytarish uning manfaatlariga zid bo'lsa, sud bolaning fikrini hisobga olib, da'voni kanoatlantirishni rad qilishga haqlidir.

Bola olinganda vasiylik va homiylik organi tezda prokurorga xabar berishi, bolani vaqtincha muayyan yerga joylashtirishi va Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi bolani olish to'g'risida hujjat qabo'l qilganidan keyin yetti kun ichida ota-onani ota-onalik huquqidan mahrum qilish yoki ularning ota-onalik huquqini cheklash to'g'risida sudga da'vo bilan murojaat etishi shart.

Sud tomonidan bolalar tarbiyasi bilan bog'liq nizolar ko'rilayotganda, bolaning himoyasi uchun kim da'vo taqdim qilganligidan ka'tiy nazar, ishda ishtirok etish uchun vasiylik va homiylik organi jalb qilinishi kerak.

Bolalarni tarbiyalash bilan bog'liq ishlarga doir sudning hal qiluv qarorlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sud ijrochisi tomonidan ijro qilinadi.

Agar ota-ona (bolani karamogiga olgan boshqa shaxs) sudning hal qiluv qarori ijro etilishiga tushkinlik kilsa, unga nisbatan qonun hujjatlarida nazarda to'tilgan choralar kulaniladi.

Bolani olish va uni boshqa shaxs (shaxslar)ga berish bilan bog'liq sudning hal qiluv qarorlarini majburiy tartibda ijro etish albatta vasiylik va homiylik organining hamda bola tarbiyalashga berilayotgan shaxs ishtirokida, zarur hollarda esa. Ichki ishlar organi vakili ishtirokida amalga oshirilishi lozim.

7.2. Ota-ona hamda bolalarning mulkiy huquq va majburiyatlari.

Ota-ona xayotligida bolalar ularning mol mulkini nisbatan mulkdor bo'lish huquqiga ega emas.

Ota-ona ham voyaga yetmagan bolalarning mol mulkiga nisbatan mulkdor bo'lish huquqiga ega emas.

Ota-ona va bolalarning ular o'rtasidagi umumiy mol mulkka bo'lganmulk huquqi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi bilan belgilanadi.

Voyaga yetmagan bolalar o'z ota-onasidan va boshqa shaxslardan qonunda nazarda to'tilgan mikkorda va tartibda ta'minot olish huquqiga ega. Voyaga yetmagan bolalar ta'minoti uchun olingan mablag', pensiya, nafaka uning otasi yoki onasi tasarrufida bo'lib, bolaning ta'minoti tarbiyast va ta'lim olishi uchun sarflanishi kerak.

Voyaga yetmagan bolalarning mol-mulkini tasarruf etishga doir vakolatlar amalga oshirilayotgan Fuqarolik qonun hujjatlarida belgilangan qoidalar kulaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36 - moddasiga binoan har bir shaxsning mulkdor bo'lish huquqiga ega ekanligi va Konstitutsiyaning 53 – moddasi bilan xususiy mulk boshqa mulklar kabi daxlsiz va davlat himoyasida bo'lishi belgilangan.

Demak, Konstitutsiyaga asosan ota – ona, shuningdek, voyaga yetmagan bolalar ham xususiy mulk egalari bo'lishi mumkin. Ammo ota – onalar voyaga yetmagan bolalarga tegishli bo'lgan mol – mulkka nisbatan mulkdor bo'lish huquqiga ega bo'lmasliklari mumkin.

Aliment olish huquqi – bolaning sub'ektiv huquqi bo'lib, aliment talab qilgan ota yoki ona o'z nomidan bolaning qonuniy vakili sifatida harakat qiladi. SHu sababdan bolaga aliment berish majburiyati ikki tomonning, ya'ni otav a onaning kelishuvi bilan bekor qilinishi mumkin emas.

Voyaga yetmagan bolalar ta'minoti uchun olingan mablag'', pensiya, nafaqa ota yoki onaning tasarrufida bo'lib, faqatgina bolaning ta'minoti, tarbiyasi va ta'lim olishi uchun sarflanishi kerak.

Voyaga yetmagan bolalar o'z ish haqi, stipendiyasi va boshqa daromadlarini tasarruf etish, Fan, adabiyot, san'at bobidagi asarlari, ixtirolari yoxud o'z intellektual faoliyati samaralarini, shuningdek, qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa mualliflik huquqini amalga oshirish, qonunga muvofiq kredit muassasalariga omonatlar qo'yish va ularni tasarruf etish hamda qonunda belgilangan mayda maishiy bitimlarni to'zishni mustaqil amalga oshirishlari mumkin.

Ota – ona va bolalarning alohida – alohida mulki bo'lishi mumkin va birga yashab turganda ular bir – birlarining roziligi bilan bunday mulkka egalik qilishlari va undan foydalanishlari mumkin.

Ota-onaga va un turt yoshga tulgani voyaga yetmagan bolalar o'rtasida qonunda belgilangan tartibda umumiy mulk huquqi vujudga kelishi mumkin.

Ota-onaga va voyaga yetmagan bolalar umumiy mol-mulkni vujudga kelishuv to'zishlari mumkin.

Ota-onaga va voyaga yetmagan bolalarning umumiy mol-mulkka egalik qilish. undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqi Fuqarolik qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Voyaga yetmagan bolalar qonunda belgilangan tartibda xususiy mulk egasi bo'lish huquqiga egadirlar.

Voyaga yetmagan bolalarning qonunda belgilangan tartibda hadya, meros tarikasida olgan mol-mulki, shuningdek shaxsiy mehnati va tadbirkorlik faoliyati natijasida orttirgan mol-mulki ularning xususiy mulki hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlarning tadbirkorlik faoliyatiga qo'shgan mablag'i va undan orttirgan daromadi, agar bola bilan ota – ona yoki oilaning boshqa a'zolari o'rtasida boshqacha tartibni belgilovchi shartnoma bo'lmasa, voyaga yetmaganlarning xususiy mulki hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlarning shaxsiy foydalanishidagi buyumlari (kiyim-keak, poyabzal, ishlab ikarish kurollari, ukuv anjomlari va boshqalar) ularning xususiy mulki hisoblanadi.

Ota-onaga, farzandlikka oluvilar, vasiylar va homiylar voyaga yetmagan bolalarning xususiy mulkini Fuqarolik qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqaradilar va tasarruf etadilar.

Ota-onaga va voyaga yetmagan bolalar o'rtasida kelib ikkan mulkiy nizolar sud tomonidan umumiy asoslarda hal qilinadi. Bunday hollarda voyaga yetmagan bolalarning huquqini himoya qilish vasiylik va homiylik organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Voyaga yetmagan bolalar un olti yoshga to'lgandan sung, mustaqil ravishda sudga murojaat qilishga haqlidirlar.

7.3. Oila a'zolarining va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlari.

Ota – ona voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berishi shart.

Voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota (ona)dan sudning hal qiluv qaroriga asosan aliment undiriladi.

Voyaga yetmagan bolalarga aliment to'lash haqida ota – ona o'rtasida kelishuv bo'lmaganda yoki aliment ixtiyoriy ravishda to'lanmaganda va ota – onadan birortasi ham aliment undirish to'g'risida sudga da'vo ariza bilan murojaat qilmagan hollarda, vasiylik va homiylik organlari voyaga yetmagan bolaning ta'minoti uchu nota yoki onadan qonunda belgilangan miqdorda aliment undirish to'g'risida da'vo qo'zg'atishga haqlidir.

Voyaga yetmagan bolalariga aliment to'lash va ularga ta'minot berishda ota – onaning majburiyatlari tengdir.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga ta'minot berishda ota – onalarning majburiyatlari tengdir.

Ota – ona voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish uchun aliment to'lash tartibini o'zaro kelishgan holda belgilashga haqlidirlar.

Voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish uchun aliment to'lash tartibi va shakli haqida ota – ona o'rtasidagi kelishuv qonunda belgilangan qoidalarga va bolaning manfaatlariga zid bo'lmasligi kerak.

Agar voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish haqida ota – ona o'rtasida kelishuv bo'lmasa, ularning ta'minoti uchun aliment sud tomonidan ota – onalarning har oydagi ish haqi va (yoki) boshqa daromadining bir bola uchun – yarmisi miqdorida undiriladi. Bu to'lovlarning miqdori taraflarning moddiy yoki oilaviy ahvolini va boshqa e'tiborga loyiq holatlarni hisobga olgan holda kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi mumkin.

Har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonun hujjatlari bilan belgilangan eng kam ish haqining uchdan bir qismidan kam bo'lmasligi kerak.

Ota – ona voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga ta'minot berish shartdir.

Voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga ta'minot berish ota – onaning kelishuviga binoan amalga oshiriladi. Ota – ona o'rtasida bunday kelishuvga erishilmagan taqdirda nizo sud tartibida hal qilinadi.

Ota – onadan voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga undiriladigan alimentning miqdori sud tomonidan aliment to'lashi shart bo'lgan ota – onaning oilaviy va moddiy ahvoli hisobga olinib, har oyda pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanadi.

Ota – onadan bolalarga undiriladigan aliment miqdori aliment to'lovchining oylik ish haqiga va (yoki) boshqa daromadiga nisbatan ulushlar hisobida yoki pul bilan to'lanadigan qat'iy miqdorda belgilanishi mumkin.

Aliment to'lashi shart bo'lgan ota – onaning ish haqi va (yoki) boshqa daromadi doimo bir xilda bo'lmay, o'zgarib tursa yoxud daromadining bir qismini natura tarzida oladigan bo'lsa, shuningdek, daromaddan ulush tarzida aliment undirish imqoniyati bo'lmasa yoki ota – ona rasman belgilangan ish haqi yoki daromadga ega bo'lmasa, voyaga yetmagan bolalarning ta'minoti uchun to'lanishi lozim bo'lgan aliment miqdori har oyda pul bilan to'lanadigan qat'iy miqdorda belgilanishi mumkin.

Ota – ona favqulotda holatlar (bolaning og'ir shikastlanishi, kasal bo'lishi va boshqalar) tufayli kelib chiqqan, bolaning ta'minoti uchun zarur bo'lgan qo'shimcha harajatlarda ishtirok etishi shart.

Qo'shimcha harajatlarda ishtirok etishdan bosh tortgan ota (ona)dan sud ularning oilaviy va moddiy ahvolini hisobga olib, qo'shimcha harajatlarni qisman pul bilan to'lanadigan qat'iy summada undirish haqida hal qiluv qarori chiqarishi mumkin.

Aliment O'zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida pul yoki natura tarzida olingan barcha turdagi daromadlardan ushlab qolinadi.

Aliment to'layotgan ota – onaning boshqa voyaga yetmagan bolalari bo'lib, undan qonunda belgilangan miqdorda aliment undirilganda o'sha bolalar aliment olayotgan bolalarga nisbatan moddiy jihatdan kamroq ta'minlanib qoladigan bo'lsa, shuningdek aliment to'layotgan ota (ona) nogiron bo'lib, moddiy jihatdan qiynalib kelayotgan bo'lsa yoki aliment olayotgan shaxs mustaqil daromadga ega bo'lgan taqlirda, aliment miqdori sud tomonidan kamaytirilishi mumkin.

Agar voyaga yetmagan bola davlat yoki nodavlat muassasalarining to'liq ta'minotida bo'lsa, sud aliment to'layotgan ota yoki onaning moddiy ahvolini hisobga olib, to'lanayotgan aliment miqdorini kamaytirish yoki uni aliment to'lashdan ozod qilish haqida hal qiluv qarori chiqarishi mumkin.

Aliment miqdorini kamaytirish yoki uni to'lashdan ozod qilish uchun asos bo'lgan holatlar tugaganda manfaatdor taraf aliment qonunda belgilangan miqdorda undirilishini talab qilib, sudga murojaat etishga haqli.

Ota – onasi vafot etganligi oqibatida yetim qolgan voyaga yetmagan bolalarga ta'minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta'lim berish davlat tomonidan amalga oshiriladi.

Voyaga yetmagan bolani ota – onasidan oilb, ularni bolalar tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi hal qiluv qarorini chiqarishda sud otav a onaning har biridan mazkur muassasa foydasiga Ushbu Kodeksning 99 – moddasida belgilangan miqdorlarda aliment undirish mumkin.

Mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj voyaga yetgan bolalar ota – onasidan, agar ular yo'q bo'lsa, qarindoshlari va Ushbu Kodeksda ko'rsatilgan boshqa shaxslardan o'z ta'minoti uchun aliment talab qilish huquqiga ega. Bunday hollarda aliment miqdori sud tomonidan aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning moddiy va oilaviy ahvoli hisobga olinib, pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanishi mumkin.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj o'z ota – onasiga ta'minot berishlari va ular to'g'risida g'amxo'rlik qilishlari shart.

Ota – onasining davlat va nodavlat muassasalari qaramog'ida ekanligi voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalarni ota – ona haqida g'amxo'rlik qilish va ularga moddiy yordam ko'rsatish majburiyatidan ozod qilmaydi.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar o'z ota – onasiga ixtiyoriy ravishda moddiy yordam berishdan bo'yin tovasalar, ta'minot miqdori bolalarning oilaviy va moddiy ahvolini hisobga olgan holda sudning hal qiluv qaroriga asosan belgilanadi.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalardan aliment undirish nizosi o'zil – kesil hal bo'lgunga qadar sudya shu nizo bo'yicha vaqtincha to'lab turilishi lozim bo'lgan summani ko'rsatib, ajrim chiqarishi mumkin.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalardan undiriladigan aliment miqdori qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi miqdorining uchdan bir qismidan kam bo'lmasligi kerak.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar ota – onasining kasalligiga va boshqa o'zrli sabablarga ko'ra qilinadigan qo'shimcha harajatlarda ishtirok etishlari shart.

Agar sud ota – onaning ota – onalik majburiyatini bajarishdan bo'yin tovlaganliklarini aniqlasa, bolalarni mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj ota – onasiga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilishi mumkin.

Aliment miqdorining bir bola uchu nish haqi va boshqa daromadning to'rtidan bir qismi, ikki bola uchun uchdan bir qismi, uchta va undan ko'p bola uchun ish haqi va boshqa daromadlarning yarmi miqdorida undirilish 99 – moddada belgilangan.

Voyaga yetmagan yoki voyaga yetgan, mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga aliment to'lash haqidagi sudning hal qiluv qarorini bajarishdan bo'yin tovlagan shaxslar Oila kodeksining 79 – moddasiga asosan ota – onalik huquqidan mahrum qilinishi yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Ota – onasiga moddiy yordam berish to'g'risidagi sudning hal qiluv qarorlarini bajarmaslik jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Ota-onaga hamda voyaga yetmagan bolalarning huquq va majburiyatlari Oila Kodeksining nechanchi bobida ko'rsatilgan?

2. Ota -onaning voyaga yetmagan bolalariga aliment to'lash tartibini qanday tartibda amalga oshiriladi?

3. Ota -onaning voyaga yetmagan bolalariga to'laydigan aliment miqdori qancha?

4. Ota -onaning voyaga yetgan bolalariga to'laydigan aliment miqdori qancha?

5. Ota-onadan bolalarga undiriladigan aliment miqdorini aniqlash tartibi

6. Bolalarning ta'minoti uchun qilinadigan qo'shimcha harajatlar deganda nimani tushunasiz?

7. Aliment undirishda hisobga olinadigan daromadlar qaysilar?

8. Qaysi hollarda aliment miqdorini kamaytirish yoki aliment to'lashdan ozod qilinadi?

9. Ota -onaga beriladigan ta'minot miqdori va tartibini ayting.

10. Aliment to'lashdan bosh tortganlik qanday javobgarlikka asos bo'ladi?

Adabiyotlar ro'yxati:
Rahbariy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir" Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabo'l qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi Ma'ruzasi. // Huquq va burch jurnali. 2009 – yil. № 12 son. 2-9 – betlar.
2. Karimov I.A. "O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir" Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabo'l qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi Ma'ruzasi. // Huquq va burch jurnali. 2009 – yil. № 12 son. 2-9 – betlar.
3. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T.8. -T., 2000 y.
4. Karimov I.A.Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz. T.9. –T., 2001 y.
5. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun ko'rashmoq kerak.T.10 -T., 2002 y.
6. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: " Ma'naviyat", 2008 - yil.
7. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi,O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: "O'zbekiston", 2009 – yil.
8. Karimov I.A.. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. "Xalq so'zi", 2007 - yil, 31 - avgust.

Maxsus adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar. 2009 – yil.
2. Saidov A, Tadjixanov U, Odilkoriyev X. "Davlat va huquq asoslari". T., "Sharq", 2002 - yil.
3. Z.Islomov, O.Xusanov, M.Mirhamidov. Huquqshunoslik. Ma'ruzalar matni. T., 2000 - yil.
4. F.Otaxujayev. "Nikoh va uni huquqiy tartibga solinishi". T., "O'zbekiston ", 2000 - yil.
5. O'zbekiston Respublikasi oila kodeksiga sharhlar. T., 2009 - yil.

Me'yoriy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston ", 2009 - yil.
2. O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi 1991 -yil 31 - avgust konstitutsiyaviy qonuni.
3. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy Dasturi.1997 - yil 27-avgust.
4. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. T., "Adolat", 2009 - yil.
5. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. T., "Adolat", 2009 - yil.
6. O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi qonuni. 2000 - yil 15.12.

8-Mavzu: Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganbolalarni joylashtirish shakllari.

Reja:

- 1. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganbolalarni aniqlash va joylashtirish**
- 2. Farzandlikka olish**
- 3. Vasiylik va homiylik**
- 4. Bolani oilaga tarbiyaga olish**

Darsning maqsadi: Talabalarga ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganbolalarni aniqlash va joylashtirish shakllari va tartiblari to'g'risidagi oila qonunchiligi me'yorlari bilan tanishtirish vositasida huquqiy bilimlar berish.

Kutilayotgan natija: Talabalarni oila qonunchiligi me'yorlari bilan tanishtirib huquqiy savodxonligini yuksaltirish, ularda oila qonunchiligi me'yorlarini tushuntirish, kunikmalarini shakllantirish.

Pedagogik texnologiya: Ma'ruza.

Tayanch tushunchalar: Vasiylik va homiylik organlari, Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganbolalar, ularni aniqlash, hisobga olish, joylashtirish, farzandlikka olish, tarbiyaga olish, vasiylik va homiylik.

8.1. Ota-ona karamog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakllari.

Ota-ona vafot etganda, ota-onalik huquqidan mahrum etilganda, ularning ota-onalik huquqt cheklanganda, ular muomilaga layoqatsiz deb topilganda, kasal bo'lganda, o'zok muddat bo'lmaganda, ota-ona bolalarni tarbiyalash yoki ularning huquq manfaatlarini himoya qilishdan buyin tovlaganda, shu jumladan ota-ona tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalari va shunga uxshash boshqa masalalardagi bolasini olishdan bosh tortganda, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganboshqa hollarda bolalarning huquq va manfaatini himoya qilish vasiylik va homiylik organlari zimmasiga yuklatiladi.

1. yetim bolalarga va boshqa sabablarga ko'ra ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganbolalarga gamxurlik qilish xalqimizning kadimiy udumlaridandir. Mustaqillik sharofati bilan bu masala davlat siyosatining ustivor yunalishlaridan biri bo'lib koldi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasiga muvofiq davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarning vasiyligidan mahrum bo'lganbolalarni bokish, tarbiyalash, ukitishni ta'minlaydi, bolalarga bagishlangan xayriya faoliyatlarini ragbatlantiradi.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganbolalarning huquqi alohida himoya qilinishi va ularga davlat tomonidan yordam berilishi lozimligi haqida «Bola huquqlari to'g'risida» gi Konvensining 20-moddasi 1-bandida maxsus ko'rsatib o'tilgan.

2. Bolalar turli xil sabablarga ko'ra ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lish mumkin. Bolalar ota-onaga bog'liq bo'lmagan sabablar tufayli, ularning erkiga bog'liq sabablarga ko'ra ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lish mumkin.

I. Ob'ektiv sabablarga: Ota-onaning vafot etishi, bola tarbiyasi Bilan shugullanish va uning huquqlarini himoya qilish imqonidan mahrum qilinadigan ogir kasal Bilan kasallanish, ota-onaning muomilaga layoqatsiz deb topish, ozodlikdan mahrum qilish joylarida bo'lishni ko'rsatish mumkin.

II. Bolalarning ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lish sub'ektiv sabablarga ko'ra, ya'ni ota-onalarning bolalarni tarbiyalash yoki ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq majburiyatlarini bajarishdan sababsiz bosh tortishlari tufayli yoki xayotda uchraydigan boshqa turli sabablarga ko'ra (ota yoki onaning YAngi oila qurishi va boshqalar) yo'z berishi mumkin.

III. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lish yuridik ahamiyatga ega bo'lganfaktlar jumlasiga kiradi. OK ning 148-moddasida nazarda to'tilgan holatlar yo'z berganda vasiylik va homiylik organlarida bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish majburiyatlari vujudga keladi. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganbolalarning huquq va majburiyatlarini himoya qilish vasiylik va homiylik organlarining ham huquq va majburiyatidir.

Bu huquq va majburiyatlarni himoya qilish vasiylik va homiylik organlariga berilgan. SHuning uchun bolaning ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganlik fakti kachon ruy berganligi va bu faktning mavjudligini nimalar tasdiqlashini bilish muhim ahamiyatga egadir.

Ota-onaning vafoti ulim to'g'risidagi guvohnoma bilan tasdiqlanadi. Bu holatda, ota-onaning qaramog'idan mahrum bo'lish ota-ona vafot etgan kun hisoblanadi. Ota-ona huquqidan mahrum etilganda, ularning ota-onalik huquqi cheklanganda, ular muomilaga layoqatsiz deb topilganda bolaning ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lish sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan hisoblanadi. Ota-ona ozodlikdan mahrum qilinganda muddat ularning qamoqqa olingan kunidan hisoblanadi. Ota-ona kasal bo'lganida bolaning ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganlik fakti vujudga kelgan vaqttni aniqlash bir qadar murakkab. Ogir dardga chalingan ota-ona uyda davolanayotgan bo'lsa, bolaning ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lish vaqti har bir vaziyatda kasallikning xususiyati, boshlangan vaqti va boshqa holatlar hisobga olgan holda aniqlanadi. Ota-ona surunkali olkogolizm yoki giyoxvandlikka duchor bo'lganda masala ko'rsatilgan tartibda hal qilinadi.

Ota-ona bolalarni tarbiyalashdan buyin tovlaganda bu faktning ruy bergan faktini aniqlash ancha kiyin. Bu sabablarga ko'ra bolaning ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lishi bolaning kundalik extiyojlari va tarbiyasiga ota-onaning mutloko kaygurmasligida namoyon bo'ladi. SHu vaqtdan bolaning xayoti, sogligi, tarbiyasi uchun xavf tug'ila boshlaydi.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganlik fakti vujudga kelgan sanani aniqlash mumkin bo'lmagan hollarda, u vasiylik va homiylik organi vakili tomonidan ish holatlari e'tiborga olingan holda aniqlanadi. Vasiylik va homiylik organi bolaning ota-ona qaramog'idan mahrum qilganligi haqidagi xabarni tekshirib chikib, bu fakt tasdiqlanganligi to'g'risida bayonnoma to'zgan kun – bolaning ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgankunning boshlanishi deb hisoblanishi lozim.

Vasiylik va homiylik organlari ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganbolalarni aniqlaydi va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganhar bir holatga qarab bolalarni joylashtirish shakllarini tanlaydi, bundan buyon ularga ta'minot berish, ularni tarbiyalash, t'lim berish shart-sharoitlarini nazorat kilib boradi.

Vasiylik va homiylik organidan tashqari boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganbolalarni aniqlash va joylashtirish bo'yicha faoliyat yuritishga yo'l qo'yilmaydi.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganbolalar borligidan xabardor bo'lganmuassasalar (maktabgacha tarbiya va boshqa muassasalarning) mansabdor shaxslari va boshqa fukorolar bu haqda bolalar turgan joydagi vasiylik va homiylik organiga xabar berish shart. Vasiylik va homiylik organi bunday xabar olgan kundan boshlab uch kun ichida bolaning turmush sharoitini tekshirib chiqishi shart bo'lib, bunda bola ota-ona yoki qarindoshlari qaramog'idan mahrum bo'lganligi aniqlansa, uni joylashtirish masalasi hal bo'lgunga qadar bolaning huquq va manfaatlari himoya qilinishini ta'mirlash shart.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganbolalarni aniqlash va hisobga olish qoidalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 12-apreldagi 171-son qarori bilan tasdiqlangan « O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risidagi nizom » da belgilab qo'yilgan.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganbolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish vasiylik va homiylik organlari zimmasiga yuklatiladi.

OK bu organlar zimmasiga ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganbolalarni aniqlash, hisobga olish, joylashtirish, tegishli tartibda joylashtirilganligidan sung ularga ta'minot va ta'lim berish, ularni tarbiyalash shart-sharoitlarini nazorat kilib borish majburiyatini yuklaydi.

2. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganbolalarni aniqlash, hisobga olish, joylashtirish bolalar huquqini himoya qilish vakolati berilgan vasiylik va homiylik organlari mansabdor shaxslarning xizmat burchidir. Boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning bu faoliyat bilan shugullanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganbolalar borligidan xabardor topgan mansabdor shaxslar va fukorolarga bu holda bolalar turgan joydagi vasiylik va homiylik organiga xabar berish majburiyati yuklatadi.

Qonunga ko'ra, quyidagilar ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganbolalar haqida vasiylik va homiylik organlariga xabar berishga majburdirlar:

Maktabgacha tarbiya muassasasining mansabdor shaxslari; davolash muassasalarining mansabdor shaxslari; Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining mansabdor shaxslari; aholini ijtimoiy himoyalash muassasalarining mansabdor shaxslari;

- karovsiz qolgan bolalarning yakin qarindoshlari;

- sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish yoki ota-onalik huquqini cheklash, muomilaga layoqatsiz deb topish haqida va bolaning ota-ona qaramog'idan mahrum qilinishiga sabab bo'lganholatlar haqida hal qiluvchi qarori chiqarganda;

- shunday bolalar haqida ma'lumotga ega bo'lganboshqa mansabdor shaxslar va boshqalar, Fuqarolar.

Ba'zi holatlarda o'z bolalarining huquq va manfaatlarini himoya qilish va ularni tarbiyalash imqoniga vaqtincha ega bo'lganota-onalar ham vasiylik va homiylik organlariga murojaat qilishlari mumkin.

Vasiylik va homiylik organi bolaning ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganligi to'g'risida xabar olgan kundan boshlab uch kun ichida bolaning turmush sharoitini tekshirib chikish shartlari belgilab qo'yilgan.

Dastlabki tekshirishda olingan malumotning kanchalik haqiqatga to'g'ri kelishi aniqlanadi, bola va uning sharoiti bilan tanishiladi. Bolaning ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganligi aniqlangan taqdirda, unga vaqtincha qarab turish uning qarindoshlariga topshirilishi yoki sharoitidan kelib chiqqan holda, darhol tarbiya davolash yoki aholini ijtimoiy himoyalash muassasalariga joylashtirilishi mumkin.

Dastlabki tekshirishda 2 ta hujjat: bolaning turmush sharoitini tekshirish yakunlari haqidagi bayonnoma va unga asoslangan xulosa to'zilai. Xulosa yigilgan faktlarga baxo beriladi, fikrlar va bolani joylashtirish shakllari haqida takliflar bayon qilinadi. Bolaning mulkini kuriklash choralari kuriladi. Bu choralar mulkni xatlash uni fukorolar yiginiga, mahalla kumitasiga, bolaning yaknlari saqlash uchun topshirish kabilardan iborat bo'lishi mumkin.

Bola haqidagi ma'lumotlar vasiylik va homiylik organida yuritadigan tegishli shakldagi kitobga kiritilib, bolani joylashtirish choralari kuriladi.

Ota-ona karomogidan mahrum bo'lganbolalar oila (farzandlikka olinishi, vasiylik va boshqa) ga berilishi, bunday imqoniyat bo'lmaganda, yetim bolalar yoxud ota-ona karomogidan mahrum bo'lganbolalar uchun tayinlangan muassasalarga tarbiyaga berilishi lozim.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganbolalarni oilaga yoki muassasalarga tarbiyalash uchun joylashtirish masalasi hal bo'lgunga qadar vasiylik majburiyatlarini bajarish vaqtincha vasiylik va xomilik organlari zimmasiga yuklatiladi. Oila kodeksining 150-moddasida ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganbolalarni joylashtirish shakllari ko'rsatilgan.

OK bolalarni joylashtirishda ularni oilaga tarbiyaga olinishini taminlovchi shakllarga afzallik beriladi.

Bolaning oilada yashashi va tarbiyalanishi uning "Bola huquqi to'g'risida" gi Konvensiya va OK da nazarida to'tilgan eng muhim huquqlaridandir. Bu yerda, odatda bolaning o'z ota-onasi oilasida yashashi va tarbiyalanishi tushiniladi. Ba'zi sabablarga ko'ra, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganbolalarning oilada tarbiyalanishi, deganda uning farzandlikka olinilishi, ularga vasiylik va homiylik tayinlanishi yoxud tutingan oilaga berilishi tushuniladi. Bolani oilaga berish imqoniyati bo'lmagan holdagina uni yetim bolalar yoxud ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganbolalar uchun tayinlangan muassasalarga tarbiyaga berish mumkin. Mazkur muassasalarda bola to'liq davlat ta'minotida bo'ladi. Bu muassasalar ma'muriyati u yerga joylashtirilgan bolalarni nisbatan vasiy yoki homiy huquqi majburiyatlariga yegadir. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganbolalarning bunday muassasalarga joylashtirilishi vaqtinchalik chora sifatida karalib, bu hol bolani kelajakda oilaga tarbiyaga berilishga tuskinlik kilmaydi.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganbolalarni joylashtirish shakli turli holatda yo'zaga keladigan aniq sharoitlar, bolaning ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lish sabablari e'tiborga olinadi va uning manfatlaridan kelib chikib, joylashtirish shakli tanlanadi.

2. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganbolalarni tezlikda oilaga yoki tegishli muassasalarga joylashtirish imqoni bo'lmasa, bu masala hal etulgunga qadar vasiylik (homiylilik) majburiyatlarini bajarish vaqtincha vasiylik va homiylik organlari zimmasiga yuklatiladi.

8.2. Farzandlikka olish

Farzandlikka olish faqat voyaga yetmagan bolalarga nisbatan va ularning manfaatlarinigina ko'zlab yo'l qo'yiladi.

Farzandlikka olish bolani farzandlikka olishni istagan shaxslarning arizasiga binoan hamda vasiylik va homiylik organi tavsiyasiga ko'ra tuman, shahar hokimi qarori bilan amalga oshiriladi.

Voyaga yetmagan bolalarning huquq va manfaatlarini ta'minlash uchun ularni farzandlikka olishga yo'l qo'yiladi. Bolalarning manfaatlarini himoya qilishi farzandlikka olishning asosiy shartidir. "Bola manfaatlari" deyilganda birinchi navbatda, uning jismoniy, ruxiy va ma'naviy rivojlanishi uchun to'la konli sharoit yaratish tushuniladi.

Farzandlikka olish masalasini hal qilishda kator muhim faktorlarni e'tiborga olish va har bir farzandlikka olishga individual yondashish kerak. Bolaga uning manfaatlarini mumkin qadar to'larok ta'minlay oladigan oilani tanlash uchun uning ruxiy holati, shu bilan birga, fe'lidan o'ziga xos xususiyatlar, u farzandlikka olinayotgan oiladagi moddiy va ma'naviy sharoit, e'tiborga olinishi lozim bo'ladi.

Faqat voyaga yetmagan shaxslar farzandlikka olinishi mumkin, emansipatsiya qilingan shaxslar farzandlikka olinishi mumkin emas. Nafaqat soglom bolalar, balki kasallikka chalingan bolalar ham farzandlikka olinishi mumkin. Kasal bolani farzandlikka oluvchi uni tarbiyalash majburiyatini ixtiyoriy va to'liq ongli ravishda o'z zimmasiga olayotganligi aniqlangan holdagini ruxsat beriladi.

Farzandlikka olish ixtiyoriyligi tufayli qaysi bolani farzandlikka olishni farzandlikka oluvchi shaxsning o'zi hal qiladi. Bolani farzandlikka berish haqidagi qarorni esa uning manfaatlarini e'tiborga olgan holda vakolatli organ qabo'l qiladi. Bir paytning o'zida ikki yoki undan ortiq bolalar farzandlikka olinayotgan bo'lsa, har bir bola uchun alohida qaror chikariladi.

Farzandlikka olish muhim huquqiy akt bo'lib, maxsus tartibga rioya qilinib va alohida shartlar asosida amalga oshiriladi.

Oila kodeksining 152-moddasiga ko'ra «voyaga yetgan» erkak yoki ayol Fuqarolar farzandlikka oluvchilar bo'lishi mumkin, quyidagi shaxslar bundan mustasno:

- ota-onalik huquqidan mahrum qilingan yoki ota-onalik huquqi cheklanganlar;
- qonun bilan belgilangan tartibda muomilaga layoqatsiz yoki muomilaga layoqati cheklangan deb topilganlar;
- asab kasalliklari yoki norkologiya muassasalarida ro'yxatda turuvchilar;
- oila kodeksining 169-moddasida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha farzandlikka olganligi bekor qilingan sobiq farzandlikka oluvchilar;
- kasddan sodir qilgan jinoyatlari uchun ilgari hukm qilinganlar;

Va shuningdek, farzandlikka oluvchi va farzandlikka olinuvchilar yoshidagi far kun besh yoshdan kam bo'lmasligi shart, ugay ota va ugay ona tomonidan farzandlikka olish hollari bundan mustasno¹;

Farzandlikka olishda quyidagilar ustunlik huquqiga ega bo'ladilar:

- turar joyidan qat'iy nazar farzandlikka olinuvchining qarindoshlari;
- farzandlikka olinuvchi bola oilasida yashayotgan shaxs;
- aka-uka, opa-singillarni birgalikda farzandlikka olayotgan shaxslar;
- ugay ota va ugay ona;
- O'zbekiston Respublikasi fuqorolari;
- kasallik, baxtsiz xodisa okibatida farzandidan ajralgan shaxslar 10 yoshga tulgan bolani farzandlikka olish uchun uning roziligi talab qilinadi.

Agar bola farzandlikka oluvchilarning oilasida tarbiyalanayotgan bo'lsa va ularni o'z ota-onasi deb e'tirof etsa, farzandlikka olish farzandlikka olinayotgan bolaning rozilgisiz amalga oshirilishi mumkin.

Ba'zi bolani er va xotini emas, balki ulardan biri farzandlikka olayotgan bo'lsa, unda ikkinchi tomonning roziligi talab qilinadi.

Agar bolaning ota-onasi xayot bo'lib, ular sud tomonidan ota-onalik huquqlaridan mahrum qilinmagan, muomilaga layoqatsiz, bedarak yuqolgan deb topilgan yoki vafot etgan

deb e'lon qilinmagan va bolani bokish hamda tarbiyalash majburiyatlarini bajarishdan bosh tortmayotgan bo'lsalar, bolani farzandlikka olish uchun ularning roziligi talab qilinadi.

Oilaga tarbiyaga berilgan bolalarni farzandlikka olishda tutingan ota-onalarning roziligi talab qilinadi.

Vasiylik yoki homiylikdagi bolani farzandlikka olishda vasiy yoki homiyni roziligi talab qilinadi.

Farzandlikka olish quyidagi holatlarda ota-onaning rozilgisiz amalga oshiriladi:

1. ota-onaning kimligi noma'lum bo'lsa;
2. ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsa;
3. ota-ona muomilaga layoqatsiz, bedarak yuqolgan deb topilgan yoki vafot etgan deb e'lon qilingan bo'lsa;

4. ota-ona bir yildan ortiq muddat davomida bolalar yoki davolash muassasalaridagi bolasidan o'zrsiz sabablar bilan xabar olmagan bo'lsa;

Davlat bolalar muassasalarining tarbiyasi va ta'minotidagi bolalarni farzandlikka olish shu muassasa ma'muriyatining roziligi bilan amalga oshiriladi.

Farzandlikka olingan bolalar barcha shaxsiy va mulkiy huquqlarda farzandlikka oluvchining o'z bolalariga tenglashtiriladi.

Farzandlikka olingan bolaning tug'ilishini qayd etish daftariga zarur o'zgartirishlar kiritilgan kun farzandlikka olishning vujudga kelgan vaqtini hisoblanadi. Farzandlikka olishni sir saqlash qonun bilan himoya qilinadi.

ota-ona bir yildan ortiq muddat davomida bolalar yoki davolash muassasalaridagi bolasidan o'zrsiz sabablar bilan xabar olmagan bo'lsa;

Davlat bolalar muassasalarining tarbiyasi va ta'minotidagi bolalarni farzandlikka olish shu muassasa ma'muriyatining roziligi bilan amalga oshiriladi.

Farzandlikka olingan bolalar barcha shaxsiy va mulkiy huquqlarda farzandlikka oluvchining o'z bolalariga tenglashtiriladi.

Farzandlikka olingan bolaning tug'ilishini qayd etish daftariga zarur o'zgartirishlar kiritilgan kun farzandlikka olishning vujudga kelgan vaqtini hisoblanadi. Farzandlikka olishni sir saqlash qonun bilan himoya qilinadi.

8.3. Vasiylik va homiylik.

Vasiylik va homiylik ota-ona karomogidan mahrum bo'lgan bolalarga ta'limot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta'lim berish, shuningdek, bunday bolalarning shaxsiy hamda mulkiy huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun belgilanadi. Vasiylik va homiylik belgilanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 - yil 12 - apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risidagi nizom» bilan belgilanadi.

Vasiylik va homiylik tuman yoki shahar xokimining qarori bilan belgilanadi. Vasiylik va homiylik vazifalarini amalga oshirish 18 yoshga tug'ganlar uchun xalq ta'limi bo'limlariga,

- sud tamonidan muomilaga layoqatsiz yoki muomilaga layoqati cheklangan deb topilgan shaxslarga nisbatan – sog'likni saqlash bo'limlariga,

- sog'ligi yomoligi sababli homiy tayinlanishiga muxtoj, muomilaga layoqatli shaxslarga nisbatan – ijtimoiy ta'minot bo'limlariga yuklatiladi.

Vasiylik va homiylik majburiyatlarini bevosita amalga oshirish uchun vasiylik va homiylik organi vasiy va homiy tayinlaydi.

Vasiylik va homiylik faqat fukorning o'z roziligi bilan belgilanadi. Vasiylik va homiylik tayinlash lozimligi vasiylik va homiylik organlariga ma'lum bo'lgan vaqtdan boshlab bir oydan kechiktirmay vasiy va homiy tayinlashi lozim. Vasiy yoki homiyni tayinlash vaqtida uning shaxsiy fazilatlarini, tegishli majburiyatlarni bajarishga qobiliyati, mazkur shaxs bilan vasiylik va homiylikka muxtoj shaxs o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek, vasiylik va homiylikka olinuvchining o'z hohishi e'tiborga olinishi lozim.

Quyidagi shaxslarning vasiy yoki homiy kilib tayinlanishiga yo'l qo'yilmaydi:

- ota-onalik huquqidan mahrum qilinganlar yoki ota-onalik huquqi cheklanganlar;

- qonunda belgilangan tartibda muomilaga layoqatsiz yoki muomilaga layoqati cheklangan deb topilganlar;

- qonun Bilan zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganliklari yoki o'z huquqlarini suiste'mol qilganliklari uchun vasiylik va homiylik vazifasidan chetlatilganlar;

- kasddan sodir etgan jinoyati uchun ilgari hukm qilinganlar;

SHuningdek ruxiy yoki norkologik muassasalarda ro'yxatda turganlar va sogligi yomonlashgani tufayli vasiylik yoki homiylik majburiyatlarini bajara olmaydigan shaxslar ham vasiy yoki homiy etib tayinlanishi mumkin emas. Vasiylar o'z karamogidagi shaxslarning qonuniy vakillari hisoblanadilar va ular nomidan hamda ularning manfaatlarini ko'zlab barcha zarur bitimlarni to'zadilar O'zbekiston Respublikasi fukorolik kodeksiga ko'ra, vasiylar o'z himoyalaridagi shaxslarning huquq va manfaatlarini maxsus vakolatsiz amalga oshiriladilar¹.

Homiyar o'z karamogidagi shaxslarga o'z huquqlarini amala oshirishda va majburiyatlarini bajarishda ko'maklashadilar, shuningdek, ularning huquqlari uchinchi shaxslar tomonidan suiste'mol etilishida himoya qiladilar.

Vasiy va homiyar o'z karamogidagi shaxslarni tarbiyalash borasida bir xil huquq va majburiyatga egadirlar.

Vasiy va homiy quyidagi majburiyatlarga ega:

- turar joyi o'zgarganligi haqida vasiylik va homiylik organini xabardor qilish;

- vasiyligi va homiyligidagi bolalarni tarbiyalashi, ularning ta'minoti, salomatligi, jismoniy, ruxiy, ma'naviy va axlokiy kamolati haqida gamxurlik qilishi hamda ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

- o'z karamogidagi voyaga yetmagan shaxs bilan birga yashash shart. Alohida yashashga faqat vasiylik va homiylik organlarining roziligi Bilan yo'l qo'yiladi.

Alohida yashash homiyni ungayuklatilgan homiylikdagi voyaga yetmagan shaxsni tarbiyalash, uning huquq va majburiyatlarini himoya qilish majburiyatidan ozod kilmaydi.

Oila kodeksining 181-moddasi, 4-qismida vasiy va homiylarning huquqlari ko'rsatilgan.

Vasiy yoki homiy o'z karamogidagi bolani tarbiyalash usullarini mustaqil belgilaydi. Ammo u tarbiya usulini tanlashda bolaning fikri, vasiylik, homiylik organining tavsiyalarini e'tiborga olish lozim.

Vasiy yoki homiy vasiyligi yoki homiyligidagi bolani qonuniy asoslab bo'lmasdan turib o'z karamogida saqlab turgan har kanday shaxslardan sud tartibida kaytarib berishni talab qilishga haqlidir.

Vasiy va homiy bolaning ota-onasi, qarindoshlari Bilan qurishib turishga tuskinlik qilishga haqli emas.

Vasiy va homiyar faoliyati vasiylik va homiylik organlari tomonidan nazorat qilinadi va zarur hollarda vasiy yoki homiyni o'z majburiyatlarini bajarishdan chetlashtirish mumkin. Vasiylik va homiylikning tugash asoslari oila kodeksining 189,190-moddalarida mustahkamlangan.

8.4. Bolani oilaga tarbiyaga olish.

Voyaga yetmagan bolani oilaga tarbiyaga berish uchun bola ota-ona qaramog'idan doimiy yoki o'zok vaqtga mahrum bo'lganligidir.

Quyidagi bolalar oilaga tarbiyaga beriladi:

a) etim bolalar;

b) ota-onasi noma'lum bo'lganyoki tashlab ketgan bolalar;

c) ota-onasi ota-onalik huquqidan mahrum qilingan yoki ota-onalik huquqi cheklangan, sud tarkibida muomilaga layoqatsiz deb topilgan, daraksiz yuqolgan deb e'lon qilingan, ozodlikdan mahrum etilagn ota-onalarning bolalari

d) sogligigi ko'ra farzandlarining tarbiyasi vata'minoti Bilan shaxsan shugullana olmaydigan ota-onalarning bolalari;

e) ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan, tarbiya va davolanish muassasalaridagi, shuningdek, aholini ijtimoiy himoyalash va shunga uxshash muassasalardagi bolalar.

Oilaga tarbiyaga beriladigan bolalar vasiylik va homiylik organlari tomonidan aniqlanadi va hisobga olinadi.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganbolalarni tarbiyaga olishni xoxlagan Fuqarolar tutingan ota-ona, oilaga tarbiyaga berilayotgan bola – tutingan farzand, bunday oila esa tutingan oila deb ataladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga berish ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganbolalarni joylashtirishning boshqa shakllaridan fark qiladi. Bolani oilaga tarbiyaga berish farzandlikka olishdan o'zining shartnomaviy va vaqtinchalik hamda o'zaro ta'minot berish majburiyati vujudga kelmasligi bilan fark qiladi hamda vasiylik va homiylikdan munosabatlarni rasmiylashtirish usuli bilan fark qiladi;

18 yoshga tulgagan bolalar oilaga tarbiyaga berilishi mumkin. Bolalarni oilaga tarbiyaga olishni istagan shaxslar o'zlari yashayotgan joydagi vasiylik va homiylik organlariga murojat qilishlari mumkin va ular ro'yxatga olinadilar.

Vasiylik va homiylik organlari tegishli tekshirishlar utkazib bolalarni oilaga tarbiyaga olini istagan shaxsni ro'yxatga olgach, u shaxs vasiylik va homiylik organlari bilan kelishib tarbiyaga olish uchun bola tanlaydi. U bolaning o'zi va hujjatlari bilan, sogligi haqidagi ma'lumotlar bilan tanishish mumkin.

Bolalarni oilaga tarbiyaga berishda ularning hohishi hisobga olinadi. 10 yoshga tulgagan bolalarni ularning roziligi bilan oilaga tarbiyaga beriladi.

Bolaning roziligi vasiylik va homiylik tomonidan aniqlanib tegishlicha rasmiylashtiriladi.

Bolani oilaga tarbiyaga berishdan oldin uni oilaga tarbiyaga olishni istagan shaxs bilan bir necha bor uchrashishni ta'minlash zarur.

Bolalarni oilaga tarbiyaga berishni tartibi va shartlari O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi hamda Vazirlar Maxkamasi 1999 - yil 12.04 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Voyaga yetmagan farzandlikka va tarbiyaga olish to'g'risidagi nizom» bilan belgilanadi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi vasiylik va homiylik organlari Bilan tutingan ota-ona o'rtasida to'zilib, tegishli shaxs ryoki tuman xokimligi tomonidan tasdiqlanadi. Kelishuvda tutingan ota-onaning asosiy majburiyatlari sifatida quyidagilar ko'rsatilishi mumkin:

- a) tutingan bolani o'zaro yordam va xurmat asosida tarbiyalash;
- b) bolaning ta'lim olishi, axlokiy va jismoniy soglom usishi uchun sharoit yaratishi;
- c) bolaning huquq va manfaatlarini himoya qilishi;
- d) bolaning davolanishini ta'minlash;
- e) bolaning umumta'lim muassasalarida ta'lim olishini ta'minlash, uning fanlarni o'zlashtirishini ko'zatib bori shva maktab ma'muriyati bilan alokada bo'lib turish;

f) tutingan oilada bolaning tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladigan yoki uning bu oilada yashashi va tarbiyalanishini istisno qiluvchi holatlar yo'zaga kelganda, bu haqda darhol vasiylik va homiylik organlariga xabar qilishi;

Bolalarni oilaga tarbiyaga berish to'g'risidagi kelishuvda vasiylik va homiylik organlarinin majburiyatlari quyidagicha belgilanishi mumkin:

- a) tutingan bolani maktabga, tarbiya muassasalariga joylashtirishga yordam berish;
- b) bolaning bepul davolanishini ta'minlash;
- c) bola tarbiyasida tutingan ota-onaga turli maslaxatlar berib turi shva uslubiy yordam ko'rsatish;
- d) bolaning huquq va majburiyatlarini himoya qilishda tutingan ota-onaga huquqiy yordam ko'rsatish;
- e) tarbiyaga olingan bolaning ta'minoti uchun belgilangan tartibda nafakalar to'lab borishi;
- f) tutingan bola uchun soglomlashtirish muassasalaiga bepul yo'llanmalar ajratish;

g) turli xayriya va otalik yordamlari uyushtirish

Bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuvni to'zishdan oldi vasiylik va homiylik organi bolani tarbiyaga olayotgan shaxsning turmush sharoitlarini, salomatligini tekshirib xulosa beradi va bu xulosada bola tarbiyasi uchun ahamiyatli bo'lgan barcha holatlar o'z ifodasini topmogi lozim.

Bolalarni oilaga tarbiyaga berishda vasiylik va homiylik organlari ularga bir yo'la, yil faslini hisobga olgan holda, bir sidra kiyim bosh va payafzal beradi.

Tutingan ota-onaga esav bolaning ta'minoti uchun har oyda belgilangan mikkdorda nafaka to'lab turadi.

Oilaga tarbiyaga olingan bolalar:

- o'zlariga tegishli bo'lgan aliment, pensiya, nafaka va boshqa ijtimoiy tulovlarni olishi;
- uy-joyga bo'lgan mulk huquqi yoki uy-joylardan foydalanishi;
- qonun hujjatlariga muvofiq uy-joy olish kabi huquqlarini saqlab koladilar.

Oilaga tarbiyaga berilgan bolalarning o'z huquq va manfaatlarini himoya qilishlari, ota-onalari va karindshlari bilan qurishish huquqiga ega ekanliklarining qonunda nazarda tutilishi ularning qonuniy manfaatlarining himoya qilinishini ta'minlash kafolatlaridan biridir.

Tutingan ota-ona bo'lishi mumkin bo'lmagan shaxslar ro'yxati oila kodeksining 198-moddasida keltirilgan.

Bolalarni tarbiyaga olgan shaxslar o'z huquqida garazguylik maqsadlarida, tarbiyasidagi bolalarga zarar keltiradigan holda foydalansalar, ularni nazoratsiz qoldirsalar zaruriy moddiy yordamsiz qoldirsalar qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

Vasiylik va homiylik organlari tutingan ota-ona o'z majburiyatlarini kandy bajarayotganligini nazorat qilishda va vasiy va homiy faoliyatini nazorat qilishda kullaniladigan uslublardan foydalanadilar.

Mavzu yo'zasidan nazorat savollari:

1. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar tushinchasi?
2. Ota-ona koramogidan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va hisobga olish kim tomonidan amalga oshiriladi.
3. Ota-ona koramogidan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish tartibi.
4. Farzandlikka olish tushinchasi.
5. Farzandlikka olishning huquqiy okibatlari.
6. Farzandlikka olishni bekor qilish asoslari.
7. Vasiylik va xomilik nima?
8. Vasiylik va homiylikning turlari.
9. Vasiy va homiy faoliyatini nazorat qilish qaysi organga yuklatilgan.
10. Oilaga tarbiyaga beriladigan bolalar kategoriyasi.
11. Bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuv kandy asoslarga imzolanadi.
12. Oilaga tarbiyaga olingan bolalar kandy huquqlarga egadirlar.
13. Kimlar tutungan ota-ona bo'lishi mumkin.
14. Tarbiyaga olgan shaxslarning javobganrigi kandy asoslarda belgilangan.
15. Oilaga tarbiyaga berilgan bolalarning kelishuvlari kandy asoslarga ko'ra bekor qilinadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

Rahbariy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir" Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabo'l qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi Ma'ruzasi. // Huquq va burch jurnali. 2009 – yil. № 12 son. 2-9 – betlar.

2. Karimov I.A. "O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir" Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabo'l qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi Ma'ruzasi. // Huquq va burch jurnali. 2009 – yil. № 12 son. 2-9 – betlar.
3. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T.8. -T., 2000 y.
4. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz. T.9. –T., 2001 y.
5. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun ko'rashmoq kerak. T.10 -T., 2002 y.
6. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008 - yil.
7. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: "O'zbekiston", 2009 – yil.
8. Karimov I.A.. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. "Xalq so'zi", 2007 - yil, 31 - avgust.

Maxsus adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar. 2009 – yil.
2. Saidov A, Tadjixanov U, Odilkoriyev X. "Davlat va huquq asoslari". T., "Sharq", 2002 - yil.
3. Z. Islomov, O. Xusanov, M. Mirhamidov. Huquqshunoslik. Ma'ruzalar matni. T., 2000 - yil.
4. F. Otaxujayev. "Nikoh va uni huquqiy tartibga solinishi". T., "O'zbekiston", 2000 - yil.
5. O'zbekiston Respublikasi oila kodeksiga sharhlar. T., 2009 - yil.

Me'yoriy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston", 2009 - yil.
2. O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi 1991 -yil 31 - avgust konstitutsiyaviy qonuni.
3. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy Dasturi. 1997 - yil 27-avgust.
4. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. T., "Adolat", 2009 - yil.
5. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. T., "Adolat", 2009 - yil.
6. O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi qonuni. 2000 - yil 15.12.

9 – Mavzu: Fuqarolik holati dalolatnomalari

R e j a:

- 1. Fuqarolik holati dalolatnomalari, ularni qayd etishning umumiy qoidalari.**
- 2. Nikohni qayd etish.**
- 3. Nikohdan ajralishni qayd etish.**
- 4. Tug'ilishni qayd etish.**
- 5. O'limni qayd etish.**
- 6. Familiya, ism va ota ismini o'zgartirish.**
- 7. Dalolatnoma yozuvlariga o'zgartirish, to'zatishtish va qo'shimchalar kiritish.**

Darsning maqsadi: Talabalarga Fuqarolik holati dalolatnomalari, ularni qayd etishning umumiy qoidalari, nikohni qayd etish, nikohdan ajralishni qayd etish, tug'ilishni qayd etish, o'limni qayd etish, familiya, ism va ota ismini o'zgartirish, dalolatnoma yozuvlariga o'zgartirish, to'zatishtish va qo'shimchalar kiritish tartiblari to'g'risidagi oila qonunchiligi me'yorlari bilan tanishtirish vositasida huquqiy bilimlar berish.

Kutilayotgan natija: Talabalarni oila qonunchiligi me'yorlari bilan tanishtirib huquqiy savodxonligini yuksaltirish, ularda oila qonunchiligi kunikmalarini shakllantirish.

Pedagogik texnologiya: Ma'ruza.

Tayanch tushunchalar: Fuqarolik holati dalolatnomalari, nikohni qayd etish, nikohdan ajralishni qayd etish, tug'ilishni qayd etish, o'limni qayd etish, familiya, ism va ota ismini o'zgartirish, dalolatnoma yozuvlariga o'zgartirish, to'zatishtish va qo'shimchalar kiritish.

9.1. Fuqarolik holati dalolatnomalari, ularni qayd etishning umumiy qoidalari.

Fuqarolik holati dalolatnomalari – Fuqarolar xayotidagi tug'ilish, ulim, nikoh to'zish, nikohdan ajralish kabi vokea va faktlarning vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanishidir.

Farzandlikka olish, otalikni belgilash, familiya, ism va ota ismini o'zgartirish, jinsni o'zgartirish kabi vokea va faktlar ushbu moddaning birinchi qismida to'tilgan Fuqarolik holatlari dalolatnomalariga tegishli o'zgartirishlar kiritishda ifodalanadi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish davlat ahamiyatiga molik bo'lib, ikki nusxada to'ziladi.

Fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlari asosida qat'iy hisobda turadigan, ma'lum seriyasi, tartib rakami bo'lgan, Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organining muxri va mansabdor shaxsning imzosi qo'yilgan, davlat gerbi tasvirlangan guvohnomalar beriladi.

Gerbli guvohnoma berishda Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilangan tartib va mikdorda davlat boji hamda gerb yigimi undiradi.

Davlat gerbi tasvirlangan guvohnomani kalbakilashtirish qonunga binoan ta'kid etiladi.

Fuqarolik holati dalolatnomalari tuman va shaharda Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limlarida qayd etiladi, shaharcha, kishlok va ovullarda esa, tug'ilish, ulim, nikoh to'zish, nikohdan ajralish, otalikni belgilash – Fuqarolik yigini raislari (oksokollari) tomonidan ham qayd etilishi mumkin.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining Fuqarolik holati dalolatnomalarini ro'yxatga olish borasidagi harakatlari o'zlari joylashgan xududlardagi tegishli Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limlarining nazorati ostida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi ning chet elda doimiy yoki vaqtincha yashovchi Fuqarolarning Fuqarolik holati dalolatnomalari konsul tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq qayd etiladi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish daftarlari Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limlarining arxivlarida yetmish besh yil saklanadi. Ushbu muddat utgach, Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish daftarlari O'zbekiston Respublikasi ning Markaziy arxiviga utkaziladi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limlari arxivlarining faoliyatini tashkil etish, shuningdek ularni Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish daftarlari saqlash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

FXDYO organi arxivida dalolatnoma yozuvlari daftarlari to'la saqlanishi uchun javobgarlik FXDYO organi mudiri yoki arxiv uchun ma'sul xodimga yuklatiladi.

9.2. Nikohni qayd etish

Nikohni qayd etish nikohlanuvchi shaxslardan birining yashash joyidagi Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Alohida hollarda nikohni qayd etish kasalxona yoki uyga amalga oshiriladi.

Nikohni qayd etish tantanali vaziyatda amalga oshirilishi mumkin.

Nikohlanuvchilar Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga nikoh qayd etilishidan bir oy ilgari nikohga kirish to'g'risida ariza beradilar.

Faqat tegishli tartibda FXDYO organlarida qayd etilgan nikohgina er – xotinlik huquq va burchlarini tug'diradi. Diniy yo'l bilan to'zilgan inkoh huquqiy ahamiyatga ega emas.

Qoida bo'yicha nikohni qayd etish FXDYO organlari binosida amalga oshiriladi. Istisno tariqasida, nikohga kiruvchilarning biri kasalligi sababli FXDYO organiga kela olmasa, nikoh uyda, kasalxonada yoki tegishli joyda nikohga kiruvchilarning ishtirokida qayd etiladi.

Nikohga kirishni xoxlovchilar ariza berish chogida o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni, ilgari nikohda bo'lgan shaxslar esa, avvalgi nikoh tugatilganligi haqidagi hujjatlarni ham taqdim etishi lozim.

Nikoh to'zish to'g'risida arizani qabo'l qilishda FXDYO organi kelik – kuyovning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar bo'yicha ularning avval nikohda turgan – turmaganligini

tekshiradi. Nikohga kiruvchilarga nikoh to'g'risidagi monelik qiladigan hollarni yashirgan yoki yolg'on ma'lumotlar bergan hollarda jinoiy javobgarlikka tortilishlarini tushuntiradilar.

Nikohlanuvchi shaxslar nikohga kirish to'g'risidagi arizalarida umumiy familiya olish yoki nikoh to'zilganidan keyin o'z familiyasida kolish haqidagi istaklarini ko'rsatishlari shart.

Nikoh to'zilganligi qayd etilganidan keyin nikoh to'zilganligi to'g'risida guvohnoma beriladi.

SHu bilan bir vaqtda shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarga nikoh qayd etilganligi to'g'risida belgi qo'yiladi.

Nikohga kirish vaqtida er – xotindan biri ikkinchisining familiyasini qabo'l qilganda pasportiga «Almashtirilishi kerak» degan belgi qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolarining O'zbekiston Respublikasi xududida doimiy yashovchi Fuqaroligi bo'lmagan shaxs bilan nikoh to'zilganligini qayd etish umumiy asoslarda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolarining chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilan nikohini qayd etish umumiy asoslarda, ya'ni O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'rtasidagi nikohni qayd etish kabi amalga oshiriladi.

Tergov izolyatorlarida, ozodlikdan mahrum etish tarikasidagi jazoni ijro etuvchi muassasalarda saklanayotgan shaxslar bilan to'ziladigan nikohqayd etish ushbu muassasa joylashgan yerdagi Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Yuqorida ko'rsatilagan shaxslar bilan nikohni qayd etishda ishi tergovdagi yoki sudlanuvchi shaxs qaysi organ hisobida turgan bo'lsa, o'sha organning yozma roziligini olishi zarur.

Amaliyotda bunday nikohni qayd etishni so'rab odatda ishi tergovda yoki sudda bo'lgan, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki mahkum shaxs bilan nikohga kirishni hohlagan shaxs murojaat etadi.

10.3. Nikohdan ajralishni qayd etish.

Er-xotinning o'zaro roziligi bo'lganda, nikohdan ajralishda ariza beruvchilar Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga bergan arizalarida o'rtada voyaga yetmagan bolalari va mulkiy nizolari yo'qligini tasdiqlashlari shart.

Nikohdan ajralish ariza beruvchilarning yashash joyidagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida ariza berilgan kundan boshlab uch oy muddat o'tgach qayd etiladi.

Er – xotinning nikohdan ajratish to'g'risida birgalikdagi arizasi nikohdan ajratishga asos bo'ladi.

Ariza qabul qilingach, u nikohni bekor qilish to'g'risidagi arizalar ro'yxatga olinadigan jurnalga qayd etiladi va shu vaqtning o'zida 3 oydan keyin ajralish kuni tayinlanadi. Bu muddat qisqartirilishi mumkin emas.

Er-xotindan birining arizasi bo'yicha nikohdan ajralishni qayd etish uchun fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga quyidagilar taqdim etiladi:

Er (xotin) ning muomalaga layoqatsiz yoxud bedarak yuqolgan deb topilganligi to'g'risida sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluvchi qarori;

Er (xotin) uch yildan kam bo'lmagan maddatga ozodlikdan mahrum qilinganligi to'g'risida sudning qonuniy kuchga kirgan hukmidan ko'chirma, shuningdek, sudlangan er (xotin) ning o'rtadagi bolalari va mol-mulki yo'zasidan nizosi yo'qligi to'g'risidagi tilxat.

Er-xotindan birining nikohgacha bo'lgan familiyasini qaytarish to'g'risidagi istagi nikohdan ajralish haqidagi arizida ko'rsatilishi lozim.

Ikkinchi tomonning bu boradagi e'tirozi yuridik ahamiyatga ega emas.

Nikohdan ajralganidan so'ng o'zining nikohgacha bo'lgan familiyasiga qaytishni istagan er yoki xotin bu to'g'rida nikohdan ajralish haqida yozgan arizasida ko'rsatishi lozim.

Nikohdan ajralish qayd etilganidan keyin sobiq er-xotinlarning har biriga nikohdan ajralganligi haqida guvohnoma beriladi. Er-xotindan birining familiyasi o'zgartirilganda, shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarga uni almashtirish lozimligi to'g'risida belgi qo'yiladi.

Nikohdan ajralishni qayd etgan fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi nikoh qayd etilgan joydagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga nikoh tugatilganligi haqida belgi qo'yish to'g'risida xabarnoma yuboradi.

O'zbekiston Respublikasida o'zaro nikoh tuzgan chet el fuqarolarining nikohdan ajralishlarini qayd etish umumiy asoslarda amalga oshiriladi.

9.4. Tug'ilishni qayd etish

Bolalarning tug'ilishini qayd etish majburiy bo'lib, bolalar tug'ilgan joydagi yoki ota – onadan birining doimiy yashash joyidagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida bir oy muddat ichida amalga oshirilishi lozim.

Bolalarning o'lik tug'ilganligi, tibbiy muassasaning xabariga binoan 24 soat davomida shu muassasa joylashgan yerdagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan qayd etiladi.

Bolaning tug'ilishi uning tug'ilganligi haqidagi tibbiy ma'lumotnoma, ota – onaning oilaviy holati va shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar asosida qayd etiladi.

O'zaro nikohda bo'lgan ota va onadan birining arizasiga ko'ra tug'ilish to'g'risidagi yozuvlar daftarida ular bolaning ota – onasi deb yozilib qo'yiladi.

Agar ota – ona o'zaro nikohda bo'lmasalar, bolaning onasi to'g'risidagi yozuv onaning arizasiga ko'ra, otasi to'g'risidagi yozuv esa, bolaning otasi va onasining birgalikdagi arizasi bo'yicha yoxud sudning hal qiluv qaroriga asosan yoziladi. Ona vafot etgan yoki u muomilaga layoqatsiz deb topilgan yoxud onalik huquqidan mahrum etilganda, shuningdek, onaning qayerda ekanligini aniqlash mumkin bo'lmaganda ota to'g'risidagi yozuv otaning arizasiga ko'ra vasiylik va homiylik organining roziligi bilan yoziladi.

Nikohda bo'lmagan onadan bola tug'ilganda ota – onaning birgalikdagi arizasi va otalikni belgilash to'g'risida sudning hal qiluv qarori bo'lmasa, tug'ilish to'g'risidagi yozuv daftarida otaning familiyasi onaning familiyasi bo'yicha, otaga tegishli ism, otaning ismi va millati – ona ko'rsatmasi bo'yicha yoziladi.

Agar ota – onaning ikkalasi ham noma'lum bo'lsa, ota va ona haqidagi yozuvlar vasiylik va homiylik organi ko'rsatmasiga asosan yoziladi.

Nikohda bo'lgan va sun'iy homila hosil qilish yoki embrionni ko'chirishga yozma rozilik bergan shaxslarda shu usullarni qo'llashi natijasida bola tug'lsa, tug'ilish to'g'risidagi yozuvlar daftariga ular shu bolaning ota – onasi deb yozilib qo'yiladi.

O'zaro nikohda bo'lgan va boshqa ayolga homilani rivojlantirish maqsadida embrionni ko'chirishga yozma rozilik bergan shaxslar bolani tuqqan ayolning (qondosh onaning) roziligi bilangina bolaning ota – onasi deb yozilishi mumkin.

Agar ota – ona bolaning tug'ilishini qayd etish bilan bir vaqtda otalikni belgilash haqida birgalikda ariza bersalar, ota haqidagi ma'lumotlar berilgan ariza asosida yoziladi, bolaga familiya ota – onaning kelishuviga binoan beriladi.

Ota – onaning arizasi, sudning hal qiluv qarori, otaning arizasiga asosan (ona vafot etganda, uning turar joyini aniqlashning imqoniyati bo'lmaganda, muomilaga layoqatsiz deb topilganda, onalik huquqidan mahrum qilinganda) tug'ilish dalolatnomasi yozilgan joyda tug'ilish to'g'risida yozuvlar daftariga ota to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritish yo'li bilan otalik belgilanadi.

Tuman, shahar hokimining farzandlikka olish qaroriga ko'ra, tug'ilish to'g'risidagi dalolatnoma yozuvi turgan joydagi fuqarolik holatlarini yozish organi tug'ilish to'g'risidagi yozuvlar daftariga zarur o'zgartirishlar kiritadi.

Farzandlikka olish sudning hal qiluv qarori bilan bekor qilinganida yoki u haqiqiy emas deb topilganida, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi farzandlikka olish haqidagi barcha yozuvlarni bekor qiladi va bolaning tug'ilishi to'g'risidagi dastlabki yozuvlarni tiklaydi.

9.5. O'limni qayd etish.

O'limni qayd etish marxumning yashash joyi yoki o'lim sodir bo'lgan joydagi Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan amalga oshiriladi.

Fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish haqidagi sudning hal qiluvchi qaroriga asosan, o'limni qayd etish mazkur qarorni chiqargan sud joylashgan yerdagi Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan amalga oshiriladi.

Hayotining birinchi xaftasi davomida o'lgan bolalarning tug'ilganligi va ulimi tabiiy muassasa joylashgan yerdagi Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida qayd etiladi.

O'lim sodir bo'lganligi haqidagi ariza o'lim sodir bo'lgan kuni yoki murda topilgach, uch kundan kechiktirmay berilishi zarur.

O'limni Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlariga qayd etmasdan marxumni dafn qilish taqiqlanadi.

Temir yo'l yoki avtomobil transportida sodir bo'lgan o'limni qayd etish yaqinroq joydagi Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Havo yoki suv kemasida sodir bo'lgan o'limni qayd etish havo kemasi yerga qo'ngan joydagi yoki suv kemasi to'xtagan portdagi Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Shaxsi aniqlanmaganlarning o'limini qayd etish davlat sog'liqni saqlash tizimi tibbiy muassasasining xabariga asosan, shu muassasa joylashgan yerdagi Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan amalga oshiriladi. Bu hollarda o'lim haqidagi guvohnoma marxumning shaxsi aniqlangandan keyingina beriladi.

O'limni qayd etish uchun Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga o'lim haqidagi tibbiy guvohnoma yoki sudning fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish haqidagi hal qiluvchi qarori, shuningdek, marxumning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etiladi.

9.6. Familiya, ismi va ota ismini o'zgartirish.

Familiya, ism va otasining ismini o'zgartirish haqidagi arizalar, ariza beruvchi 16 yoshga tuglgandan keyin u yashab turgan joydagi Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Familiya ism va ota ismini o'zgartirish to'g'risidagi xulosa ichki ishlar organlari tomonidan ushbu shaxs tegishli tekshiruvdan utkazilgandan keyingina to'zilishi mumkin.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organining familiya, ism va otasi ismini o'zgartirishni rad etilganligi ustidan sud tartibida shikoyat qilinishi mumkin.

Familiya, ism va ota ismi o'zgartirilganda Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish daftarlari yozuvlariga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

Er (xotin) ning familiyasi o'zgartirilishi (unga nisbatan otalik belgilanganda ham) xotin (er) ning hamda uning voyaga yetmagan bolalari familiyasini o'zgartirishga sabab bo'lmaydi.

Agar ota-onadan biri o'z familiyasini o'zgartirsa, ularning 16 yoshga tulmagan bolalari familiyasini o'zgartirish masalasi ota-onaning kelishuviga binoan, bunday kelishuv bo'lmaganda esa, vasiylik va homiylik organlari tomonidan hal etiladi.

Ota ismining o'zgartirilishi uning 16 yoshga tulmagan bolalarining ota ismi albatta o'zgartirilishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi xududida Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozuvlariga o'zgartirish, to'zatisht va kushimchalar kiritish yetarli asoslar mavjud bo'lib, manfaatdor shaxslar o'rtasida nizo bo'lmagan ushbu dalolatnoma yozuvlari saklanayotgan joydagi Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan amalga oshiriladi.

16 yoshga tulgan shaxslarning tug'ilish, nikoh to'zish, nikohdan ajralishni qayd etish daftarlarga o'zgartirishlar kiritish ularning arizalariga binoan amalga oshiriladi.

16 yoshga tulmagan shaxslarni tug'ilish haqidagi yozuvlvr daftariga o'zgartirishlar kiritish ularning ota-onasi arizasiga binoan amalga oshiriladi.

9.7. Dalolatnoma yozuvlariga o'zgartirish, to'zatisht va qo'shimchalar kiritish.

O'zbekiston Respublikasi xududidan tashqarida to'zilgan Fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlariga to'zatishtlar kiritish haqidagi arizalar arzi beruvchining yashash joyidagi Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida ko'rib chiqiladi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organining dalolatnoma yozuvlariga o'zgartirish, to'zatisht va kushimchalar kiritishni rad etish to'g'risidagi xulosasi ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Jins o'zgarganda dalolatnoma yozuviga tuzatish kiritish faqat sog'likni saqlash organlari xulosasiga asosan amalga oshiriladi.

Fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlarini tiklash deganda ilgari shunday yozuv bo'lganligini tasdiqlovchi yetarli asoslar bo'lganida, ularni qayta tiklab qo'yish tushuniladi.

Tug'ilish, nikoh tuzish, nikohdan ajralish haqidagi dalolatnomalar yozuvlari bu yozuvlar kimga nisbatan tuzilgan bo'lsa, faqat ana shu shaxslarning arizasiga ko'ra tiklanadi.

Agar 16 yoshgacha bo'lgan bolaning tug'ilishi haqidagi yozuv yo'qolgan bo'lsa, yozuv bolaning ota-onasi, vasiysi, homiysi, bolalar muassasasi ma'muriyatining arizasiga asosan tiklanadi.

Yozuvni tiklashdan manfaatdor taraflar o'rtasida nizo bo'lsa, yozuvni tiklash O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga asosan amalga oshiriladi.

Fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlari ariza beruvchining yashash joyidagi Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida tiklanadi.

Agar Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi ikki va undan ortiq bir xil yozuvlar borligini aniqlasa, o'sha yozuv tuzilgandagi Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida bekor qilinishi mumkin.

Agar topilgan Fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlarida familiya, ism, ota ismi, tug'ilgan sanasi, ota-ona to'g'risidagi ma'lumotlarda jiddiy farq bo'lsa, tiklangan Fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlari sudning hal qiluvchi qarori bilan bekor qilinadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Fuqarolik holati dalolatnomalari, ularni qayd etishning umumiy qoidalari haqida qanday tushunchaga ega bo'ldingiz?.
2. Nikohni qayd etish nima?
3. Nikohdan ajralishni qayd etish.
4. Tug'ilishni qayd etish nima?
5. O'limni qayd etish nima qanday amalga oshiriladi?
6. Familiya, ism va ota ismini o'zgartirish tartibini ayting.
7. Dalolatnoma yozuvlariga o'zgartirish, to'zatisht va qo'shimchalar kiritish tartibi qanday amalga oshiriladi?.

Adabiyotlar ro'yxati:

Rahbariy adabiyotlar:

1. 1. Karimov I.A. "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustvor maqsadimizdir". Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi Ma'ruzasi. // Huquq va burch jurnali. 2010 – yil. № 1 son. 3-10 – betlar.
2. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T.8. -T., 2000 y.
3. Karimov I.A.Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz. T.9. –T., 2001 y.
4. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun ko'rashmoq kerak.T.10 -T., 2002 y.
5. Karimov I.A. O'zbekiston da demokratik o'zgarishlarni shakllantirishning asosiy yunalishlari// O'zbekiston ovozi. 31 - avgust 2002 - yil.
6. Karimov I.A. «Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir»Toshkent-2005 - yil. «O'zbekiston» n.

7. Karimov I.A.. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. "Xalq so'zi", 2007 - yil, 31 - avgust.

Maxsus adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar. 2009 – yil.
2. Saidov A, Tadjixanov U, Odilkoriyev X. "Davlat va huquq asoslari". T., "Sharq", 2002 - yil.
3. Z.Islomov, O.Xusanov, M.Mirhamidov. Huquqshunoslik. Ma'ruzalar matni. T., 2000 - yil.
4. F.Otaxujayev. "Nikoh va uni huquqiy tartibga solinishi". T., "O'zbekiston ", 2000 - yil.
5. O'zbekiston Respublikasi oila kodeksiga sharhlar. T., 2009 - yil.

Me'yoriy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston ", 2009 - yil.
2. O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi 1991 -yil 31 - avgust konstitutsiyaviy qonuni.
3. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy Dasturi.1997 - yil 27-avgust.
4. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. T., "Adolat"., 2009 - yil.
5. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. T., "Adolat", 2009 - yil.
6. O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi qonuni. 2000 - yil 15.12.